

M.G. Azamova

# DINSHUNOSLIK



24/08.8/

A-99

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA  
VA SPORT UNIVERSITETI

Azamova Muhabbat G'anijonovna

# DINSHUNOSLIK

*O'quv qo'llanma*



O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY  
TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

No. 8141 30.12.15

TOSHKENT

«EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI» MChJ - 2025

UO'K: 2(075.8)

KBK: 86.3я73

***Muallif:***

**M.G'. Azamova – O'zDJTSU Sport huquqi. Ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi**

***Taqrizchilar:***

**1. Abdikadirova Nigora Sobirjaonovna – UzDJTSU ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PChD)**

**2. Pulatova Sevara Akmalovna - Alfraganus universiteti. Professor**

**M.G'. Azamova. «Dinshunoslik» [Matn]: O'quv qo'llanma / T - «EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI» MCHJ 2025 – 188 b.**

Mazkur oquv qo'llanma OTM bakalavr, magistr talabalari uchun moljallangan bo'lib, unda dinning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, uning shaxs va jamiyat hayotida tutgan o'rni va roli haqida so'z yuritiladi. Qo'llanma talaba yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi va ularning diniy savodxonligini oshirishga, turli salbiy ta'sirlarga nisbatan immunitetini mustahkamlashga yordam beradi.

\*\*\*

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата и магистратуры высших учебных заведений. и рассказывает о зарождении религии, этапах развития, ее месте и роли в жизни личности и общества. Пособие играет важную роль в воспитании молодежи, помогает повысить их религиозную грамотность и укрепить иммунитет против различных негативных воздействий.

\*\*\*

This textbook is intended for undergraduate and graduate students of higher educational institutions. and tells about the origin of religion, stages of development, its place and role in the life of the individual and society. The manual plays an important role in the education of students, helps to increase their religious literacy and strengthen their immunity against various negative influences.

**ISBN 978-9910-8286-8-3**

**© «EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI», 2025**

**© M.G'. Azamova, 2025**

## KIRISH

Mustaqillikka erishgach O'zbekistonda siyosy, iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham qator o'zgarishlar kirib keldi. Hususan ta'lif sohasida o'tkazilgan islohotlar xalqimiz, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayoni va tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dirlarga bo'lgan munosabat ijobiy tomon-ga o'zgardi: sobiq sovet davlatining dinka ateistik hujumkorlik siyosa-tiga barham berildi, vijdon erkinligi Konstitutsiya orqali mustah-kamlanib, qonun bilan kafolatlandi<sup>1</sup>. Ayni paytda Respublikada 16 diniy konfessiya emin-erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ko'pdinlilik sharoitida yoshlarimiz barcha bilimlar qatori dunyo dirlari tarixidan xam xabardor bo'lmos'hish zarur. Mamlakatimizdag'i ta'lif muassasalarida «Dunyo dirlari tarixi», «Dinshunoslik» fanlarini o'qitish yo'lga qo'yildi

Mazkur fanlar ilgarigi «Ilmiy ateizm» deb atalmish fandan farqli ravishda, dinni har qanday ko'rinishini tanqid qilish, uni jamiyatdan yo'qotish maqsadida emas, balki unga milliy ma'naviyatning bir bo'lagi sifatida yondashish, uni holisona va chuqur o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi

Dinshunoslik dunyo dirlari haqidagi har tomonlama bilimlarni ifodalaydi. Mazkur ta'lif keng ma'noda quyidagi ijtimoiy-gumanitar fanlar: sotsiologiya, psixologiya, falsafa, tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik, arxeologiya, antropologiya haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Dinshunoslik kursi din va davlat, din va jamiyat, din va madaniyat o'rtasidagi munosabatlardagi

<sup>1</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/mamlakatimiz-diniy-ta-lim-muassasa>

asosiy muammolarni o'rganadi.<sup>2</sup> XIX asrdan boshlab G'arbda «Dinshunoslik» sohasi mustaqil fan sifatida o'rganila boshlandi (Bu fan bizning diyorlarimizda Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk daholar davridanoq boshlanib hayotga tadbiq etilgan edi). Shu zaylda, «Qiyosiy dinshunoslik», «Dinlar tarixi», «Din fenomenologiyasi», «Din antropologiyasi», «Din falsafasi» kabi bir qator mustaqil sohalar yuzaga keldi. Bu jarayon bugungi kunda ham izchillik bilan rivojlantirib borilyapti. Demak, dinshunoslik fanining predmeti inson borlig'ining tabiiy, hayvonot borligidan farq qiluvchi o'ziga xos ruhiy shakli sifatida dinning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi bilimlar majmu-asidir. Dinshunoslik din faoliyati va rivojlanishining umumiy qononiyatlarini o'rganadi.

Dinshunoslikning maqsadi: dinni o'rganish, din haqida tushunchani shakllantirish. Dinshunoslik fanining vazifalari: dinni, unung mohiyati, mazmuni, vazifa va xususiyatlarini<sup>3</sup> to'liq, chuqur va yaxlit tushuntirish; umuman dinning genezisini, shuningdek, alohida hodisa va jarayonlarni o'rganish; dinda insonning o'rni va rolini aniqlash; dinshunoslikning kategorik apparatini shakllantirish; dinning boshqa fanlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish; diniy tashkilotlarning rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borishdir. O'zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga astoydil bel bog'langan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik (tolerantlik) uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari (insonparvarlik, mehr-oqibat, o'zaro xurmat) o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni dinga munosabati, e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Diniy bag'rikenglik kishilar

<sup>2</sup> <https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2024/02/DINSHUNOS>

<sup>3</sup> <https://arm.ssuv.uz/frontend/web/books/63f8919050a3b.pdf>

ongi va qalbiga singganda diniy mutaassiblikka, ayirmachilikka hech qanday o'rin qolmaydi.

O'zbekistonda dunyoviy bilimlar bilan diniy bilimlar o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani sir emas. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahriri) ning 1- moddasida shunday deyiladi:

«O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'l-gan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat»<sup>4</sup>. Buning zamirida juda katta ma'no yotibdi. Dunyoviy davlat sifatida fuqarolarning havfsizligi masalasiga jiddiy e'tibor qaratish eng dolzarb vazifalardan xisoblanadi. Yoshlarga dunyoviy bilimlar berish bilan bir qatorda ularning diniy bilimlarini oshirib borish, dinning tarbiyalovchi, birlashtiruvchi xususiyatlarini yoritib berish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish orqali dinimizdan o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalana-yotgan kimsalarga munosib javob qaytara olishlariga erishish eng muhim masaladir. Asosiy Qonunimizning 35-moddasida esa hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi mustahkamlangan bolib, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»<sup>5</sup>, deb belgilangan.

Har qanday jamiyatda turli-tuman din, millat, etnik guruhlar va madaniyatlar vakillari mavjud bo'lgan holda, bunday jamiyatda davlat boshqaruvi va siyosati, albatta bir mafkuraga yoki diniy qarashga assoslana olmaydi. Bunday sharoitda har bir davlat uchun eng adolatli va to'g'ri yo'l – dunyoviy davlat yo'lidir.

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri) 2023-yil

<sup>5</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-7404923>

Ko'p millatli yurtimizda o'zaro do'stlik muhitini yaratish, konfessiyalar vakillari o'rtasida bag'rikenglik prinsiplarini qaror toptirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat o'zaro ham-jihatlikda ahil-inoq yashab kelmoqda, 16 ta konfessiyaning 2,3 mingdan ziyod diniy tashkilotlari o'z faoliyatini olib bormoqda. 2021-yilda qabul qilingan «Vijdon etkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun 6 bob, 35 moddadan iborat bo'lib, unda diniy tashki-lotlar tashkil etish tartibi, faoliyatini to'xtatish uchun asos bo'ladigan xolatlar haqida qoidalar kiritilgan hamda diniy atama-larga ta'rif berilgan.

2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 16 ta konfessiyaga mansub 2 350 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda, shulardan 2 153 ta musulmon, 179 ta xristian, 8 ta yahudiy, 7 ta baxoiy jamoalari, Krishnani anglash jamiyati, Budda ibodatxonasi va O'zbekiston Bibliya jamiyati.

Shuningdek, yurtimizda 15 ta diniy ta'lif muassasasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jumladan 13 tasi O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o'rta maxsus islom bilim yurtlaridir. Bulardan 3 tasi oliy ta'lif muassasasi: Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi va 10 ta o'rta maxsus islom bilim yurtlari hisoblanadi, shundan 2 tasi ayol-qizlar o'rta maxsus islomiy ta'lif muassasalari hisoblanadi.

«Hech shubhasiz, biz inson qadrini uning diniy sohadagi huquq va manfaatlari bilan uzviy bog'liq holda ko'ramiz. Shuning uchun so'nggi yillarda mamlakatimizda diniy qadriyatlarimizni tiklash, bebafo ilmiy-ma'naviy merosimizni o'rganish va targ'ib etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Buxoroda – yetti ulug' pir, Surxondaryoda – Imom Termiziylar ziyoratgohlari, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy, Toshkent viloyatida – Zangi ota, Namanganda – Sulton Uvays

Qaraniy, Toshkent shahrida –Suzuk ota yodgorlik majmuasi kabi mo'tabar maskanlar har tomonlama obod qilingani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Hozirgi kunda ana shu xayrli amallarimizning mantiqiy davomi sifatida Buxoroda – Mir Arab oliv madrasasi, Samarcanda – Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi hamda Toshkent shahrida – O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida keng ko'lamli qurilish va buniyodkorlik ishlari olib borilmoqda» - deyiladi Prezidentning O'zbekiston xalqini Ramazon hayiti munosabati bilan qilgan bayram tabrigida. «O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiylasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekistan aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 16 diniy konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiyijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar.

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, din davlatdan ajratilgan. Vijdon erkinligining kafolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda (2021y) bayon etilgan. O'zbekistonda din va diniy dunyoqarash dunyoviy turmush tarzi, dunyoviy fikr bilan yonma-yon rivojlanib kelmoqda»<sup>6</sup>.

## I BOB. DINSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

### REJA:

- 1.1. Dinning kelib chiqishi va uning tarixiy ildizlari
- 1.2. Dinning asosiy funktsiyalari
- 1.3. Dinlar va ularning kelib chiqish va mohiyatini o'rganish.
- 1.4. Din ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida.

**Tayanch so'zlar:** *Din, din tarixi, dinning funktsiyalari, urf-odatlar, legitimlik, davlat, jamiyat, ta'lif, diniy marosimlar, mustaqillik, ilohiyot.*

### 1.1. Din va uning kelib chiqishi, tarixiy ildizlari.

Dinlarning paydo bo'lishi haqida turli fikr va qarashlar mavjud bo'lib, bular diniy qarashlar va ilmiy yondashuvlardir. Ammo, bu haqda yagona fikr yo'q. Din – o'ta murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, o'ziga hos tarkibga ega do'lgan kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti mahsulidir. Da'zi ilmiy izlanishlar din kishilarning tabiatda uchraydigan g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonishdan yuzaga kelgan, degan fikr ilgari suriladi. «Din» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, «ishonch», «ishonmoq» degan ma'nolarni anglatadi<sup>7</sup>. U yoki bu dinga e'tiqod qilish, insonlar atrofida unga ko'rinxmaydigan, ammo undan ancha yuqori darajada turuvchi liohiy mavjudotlar borligiga, yani farishtalar, jinlarga, ularning g'ayritabiiy kuchlarga ishonchi asosida paydo bo'lgan. Dinning ta'rifi va uning jamiyatdagi vazifalari mavjudligiga - muqaddas kitoblar, inson xayoti muntazam nazorat ostida ekanligiga, qilingan barcha

<sup>7</sup> A.V.Narbekov (2007). Dinshunoslik asoslari

yxashilik va yomonlik uchun mukofot yoki jazo muqarrarligiga (ohirat, hisob-kitob qilinish), inson qismati avvaldan belgilanishiga (taqdiri azal) va shu kabi qarashlarga ishonish, ularni aqida sifatida qabul qilishdan iboratdir»<sup>8</sup>.

Bugungi kunga kelib, din ijtimoiy hayotning muhim omillari dan biriga aylandi, u ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini saqlab qolgan bo'lsada, uning ahamiyati turli ijtimoiy-siyosiy tuzumlarda turlichadir. Din yetakchi mafkura hisoblangan davlatlarda din o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlash uchun harakat qilmoqda.

Islomda masjidlar arxitekturasi, sarishtaligi, obodligi, ichki bezak ishlarida Qur'oni karim suralari, milliy va sharqona ornamentlar uygunligi hamda ibodatdan oldin qilinadigan amri ma'ruflar va ma'ruzalar insonga alohida kuch bag'ishlaydi.

«Ilohiyot ta'lilotiga ko'ra olam, undagi barcha narsa va jonzotlarni xudo yaratgan. Olamdagи barcha hodisa va jarayonlar uning irodasi bilan yuz beradi. Jahon dinlaridan biri bo'lgan xristianlik ta'lilotiga binoan xudo insonni o'zining jismiga monand qilib yaratdi va moddiy olamga egalik qilishni buyurgan. Xudo borliqni, shu jumladan, insonni ham yaratgan vaqtida u bilan bevosita muloqotda bo'lgan. Lekin, Odam Ato (Adam) va Momo Havo (Eva) xudoning irodasini bajarmay gunohga yo'l qo'yganligi sababli, u bilan bevosita muloqot imtiyozidan mahrum bo'ldi. Lekin xudo insonga xalos bo'llish imkoniyatini berdi. Insoniyat xudoni bilish, ilohiy haqiqatni idrok etish salohiyatini saqlab qoldi. Zero, insonning xudo bilan bevosita aloqani qayta tiklash yo'lidagi faoliyati umumiyl nom bilan din deb ataladi»<sup>9</sup>.

<sup>8</sup>Xakimova M.A. Mamadaminova B.A. (2019). "DINSHUNOSLIK" FANIDAN O'QUV QO'LLANMA  
<sup>9</sup>[https://tb.urdu.uz/k\\_afedra/attach/](https://tb.urdu.uz/k_afedra/attach/)

Ilohiy ta'lilot insoniyat tarixini xudoni bilish tarixi deb biladi. Dunyoviy ilm esa dinni ilmiy talqin qilib, uning tarixi va mohiyatini o'rganadi. Odamzod asrlar davomida xudoni bilishga intilib, moddiy dunyo to'g'risidagi bilimlarini takomillashtirib bordi va bu jarayon hali nihoyasiga etgani yo'q.

Fan dinning vujudga kelish sabablarini o'rganishda boshqa prinsip va qonuniyatlarga asoslanadi. Olamning g'ayritabiyy kuch faoliyati natijasida paydo bo'lganligi g'oyasi inkor qilinadi. Fan dinni madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ilmiy uslublarga tayanib o'rganadi. Dinni ilmiy o'rganish dalillarga asoslanadi. Dinshunoslik bu dalillarni tabiiy va ijtimoiy fanlardan oladi.

Tarixiy manbalarga ko'ra insoniyat hozirgi holatga ega bo'lishi uchun bir necha million yillik tadrijiy rivojlanish davrlaridan o'tgan. Bu jarayon bir qator bosqichlarga bo'linadi. Miloddan avvalgi 40-35-ming yilliklarda «Xomo xabilis» (ishbilarmon odam) o'rnnini «Xomo sapiens» (ongli odam) egallagan. «Xomo sapiens» ning dastlabki vakili «kromanon odam» ajdodlaridan jismoniy tuzilishi, fiziologik va ruhiy imkoniyatlari bilan keskin farq qilgan. SHu davrdan boshlab madaniyatning muhim elementlari til orqali muloqot qilish, qon-qardoshlik aloqalari, o'zaro munosabatlarni axloq normalari asosida tartibga solish singari madaniyat elementlari vujudga kelgan.

Bizgacha etib kelgan arxeologik manbalarning tasdiqlashi-cha, Yuqori paleolit davridan boshlab odamlar vafot etgan urug'doshlarini ko'mish marosimini amalga oshirganlar.

Marhumlarning tanasiga rangli bo'yoq surtilgan, qabriga ov va mehnat qurollari, maishiy buyumlar qo'yilgan. Qoya va g'orlarda chizilgan sYujetlarda odamlar yarim odam va yarim hayvon qiyofasida tasvirlangan. Ushbu ma'lumotlar ham o'sha vaqtda dinning paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Dinning vujudga kelishi, avloddan-avlodga o'tib borishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni shakllantiruvchi omillar

uning ildizlari deb ataladi»<sup>10</sup>. «Dinning ildizlari uch qisimga bo'linadi. Ularning har biri dinni o'rganishda juda muhim omildir. Mazkur qismlar birgalikda dinning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ular quyidagi muhim jihatlardir: dinning ijtimoiy ildizi, dinning gnoseologik ildizi, dinning ruhiy ildizi.

«1) dinning ijtimoiy ildizi kundalik hayotda kishilarning turmushini belgilovchi moddiy va ma'naviy munosabatlar tizimidan iborat. Dinning ijtimoiy ildizida moddiy sharoitlar ustuvor. Siyosiy ustqurma institutlari dinga ikkilamchi ta'sir etadi. Dinning ijtimoiy ildizini tashkil etuvchi jabhalardan biri ijtimoiy hayotni stixiyali qonuniyatlar asosida rivojlanishidir. Undagi boshqarib bo'lmaydigan jarayonlar jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy inqirozlarni, urushlarni, kasalliklarni keltirib chiqaradi. Tabiiyki, individ ularning vayron qiluvchi ta'sirlaridan o'zini himoya qilishga intiladi va oqibatda g'ayritabiyy kuchlardan najot so'rab murojaat qilishga majbur bo'ladi.

2) dinning gnoseologik (grekcha gnosis – bilish, logos – ta'limot degan ma'nolarni anglatadi) ildizi kishining bilish faoliyati jarayonida diniy e'tiqodi vujudga kelishiga imkoniyat yaratadigan sharoitlardir. Tabiat va jamiyatni bilish dialektik jarayon»<sup>11</sup>. Tajribaning kamligi, sub'ektivlik, narsa va hodisalarни mutlaqlashtirish voqelikning noto'g'ri idrok etilishiga olib keladi. Shu bilan birga diniy g'oyalarning paydo bo'lishi borliqni hissiy idrok etishdan boshlanadi va u ratsional bilish bosqichida ahamiyati saqlanib qoladi. Dinning gnoseologik ildiziga aloqador va barcha tarixiy davrlarda takrorlanib turadigan xususiyatlar quyidagilardir:

a) bilishning sub'ektiv jihatlarini mutlaqlashtirish (lotincha-da – voqelik bilan bog'lanmagan narsa, nisbatsizlik, so'zsiz degan ma'nolarni anglatadi), ya'ni bo'rttirib ko'rsatish;

<sup>10</sup> <https://tb.urdu.uz/kafedra/attach/fandocs/>

<sup>11</sup> A.V.Narbekov (2007). Dinshunoslik asoslari. Ozbekiston Respublikasi VII Akademiyasi

b) mavhum (lotincha abstratio – diqqatni chetga tortish degan ma’noni anglatadi), ya’ni tafakkur;  
v) tafakkurning umumlashtiruvchi qobiliyati.

3) Dinning ruhiy ildizi: individual va ijtimoiy ruhiyatlarga bo’linadi. Individual ruhiyatga shaxsiy iztirob, g’am-tashvish, o’limdan qo’rqish, yołg’izlik, muhabbat, mehr-shafqat, minnat-dorlik singari ijobiy va salbiy kechinmalarni misol keltirish mumkin. Dinning vujudga kelishida kishining bilish faoliyatiga bog’liq jarayonlar bilan birga uning ruhiy kechinmalari, hissiyoti, kayfiyati va idroki ham ishtirok etadi. Diniy tasavvurlar dastlab kishilarning his-tuyg’ulari orqali vujudga keladi.

Xulosa sifatida dinning vujudga kelishi sabablarini o’rganish uning odamlar ongiga ta’siri, jamiyatdagi o’rni va ahamiyatini yaxshiroq tushunishga, vayronkor kuchlarning jamiyatdagi barqarorlik, fuqaroviylar tovvifik, uning yaratuvchilik jihatlaridan insoniyat manfaatlari uchun yanada kengroq foydalanishga imkon beradi, o’zaro yordam va hamjihatlikni barbod qilishga qaratilgan faoliyatiga qarshi samarali kurashadi.

## 1.2. Dinning asosiy funksiyalari

Dinning asosiy funksiyalari (vazifalari) deganda avvalo uning inson va jamiyat hayotida tutgan o’rni qandayligiga e’tibor qaratish lozim.

Ishonmoq tuyg’usi insoniyatning eng teran va go’zal ruhiy-ma’naviy ehtiyojlariidanadir. Din ishonmoq tuyg’usidir. Dunyoda diniy e’tiqodi, yuksak tuyg’ularga ishonchi bo’limgan xalq yo’q. Xech bir xalq dinsiz, e’tiqodsiz biror bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Sotsiologik nuqtai nazardan qaraganda din jamiyat uchun zarurat. Ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir.<sup>12</sup>

---

<sup>12</sup> <https://muhaz.org/1-mavzu-dinshunoslik-faniga-kirish.html?pa>

Din ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi<sup>13</sup>. Bu esa dinni jamiyatda bajargan vazifalariga ko'ra o'rghanishni taqazo qiladi. Dinning vazifalari uning alohida shaxs va jamiyatga ta'siri va tabiatidan kelib chiqadi.

Dinning jamiyatda o'rni, bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy hamda ruhiy vazfalari quyidagilardan iboratdir:

Kompensatorlik, to'ldiruvchi va tasalli beruvchilik vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy nimagadir ehtiyoj sezish hodisasini olaylik. Inson o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishish ilojsiz bo'lib koringanida, tushkunlikka tushganida, muammolar girdobida qolganida qandaydir ma'naviy-ruhiy tasalliga ehtiyoj sezadi. Bu diniy ehtiyoj bo'lib, inson u orqali ma'naviy-ruhiy dalda oladi va ruhiy xotirjamlikka erishadi. Ibodati chog'ida ruhiy tetiklik his qiladi. Shu tariqa din o'zining tasalli beruvchi vazifasini bajarib kelgan va bajarib kelmoqda.<sup>14</sup>

Dinning birlashtiruvchilik- integratorlik vazifasi orqali din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta'limot dorasida saqlashga, ularni o'zaro birlashtirishga harakat qilgan va xozir ham shunday. Bag'rikenglik bilan boshqa dinlarga va vakillariga nisbatan xurmat bajo keltirishdir.

Bu dinning integratorlik ya'ni birlashtiruvchilik vazifasi deb ataladi. Din doimo etnik, ijtimoiy va ma'naviy hayotda uzviylik, muntazamlilikni ta'minlash maqsadida xalqlarning adabiyoti va san'atiga ijtimoiy hayotiga, madaniyatiga, axloqiy munosabalariga bog'langan. Masalan islomda masjid va madrasalar ibodat qiluvchilar va diniy ta'lif oluvchilarni birlashtirsa, yahudiyligidanida mazkur din vakillari yagona mafkura atrofida bir millat va

<sup>13</sup> <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/10/14/NamDU-ARM-13>

<sup>14</sup> <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/manaviyat-asoslari/din-va-un>

yagona maslak va maqsad egalari bo'lib, yagona xudo Yahvening sevimli bandalari ekanligi uqtiriladi. Xristianlikda esa diniy, musiqa, me'moriy va tasviriy san'atdan foydalanib ikona yaratuvchilar maktablari faoliyat olib boradi.

Dinning regulyatorlik vazifasi. Har bir din o'z qavmlari hayotini tartibga solib, nazorat qiluvchilik, ya'ni regulyatorlik vazifasini bajaradi. Diniy urf-odatlar, marosim va bayramlarining qavmlar tomonidan o'z vaqtida qat'iy tartibda amal qilinishi shart hisoblanadi. Masalan islomda kuniga besh mahal namoz o'qish, har hafta juma namozini jome' masjidlarida ado etish va hayoti davomida qodir bo'lgan shaxslarga xaj amalini bajarish, vol-mulki nisabidan zakot berish, muborak Ramazon oyida ro'za tutmoqligi.<sup>15</sup>

Kommunikativlik – dinning aloqa bog'lashlik vazifasi. Har bir din o'z qavmlarining birligi, turli din vakillarning mustahkam aloqalari, o'zaro huquq va burchlarning boligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib ado etilishi, tizimliligi nazarda tutiladi.<sup>16</sup>

Dinning jamiyat traqqiyotida yuqorida sanab o'tilgan funktsiyalariga qo'shimcha ravishda legitimlik, falsafiy, nazariy, axloqiy ideallarni qo'llab-quvvatlash, baxtli his qilishga yordam berish, yaqinlaringiz va qo'shnilaringizga mehr ko'rsatish, psixologik yordam ko'rsatish kabi vazifalarni ham bajarishini qayd etish lozim.

### **1.3. Dinlar va ularning kelib chiqish va mohiyatini o'rganish.**

Dinning paydo bo'lishi masalasi bilan ilk bor 19-asr o'rtalarida mustaqil bilim sohasiga aylana boshlagan diniy fanlar

<sup>15</sup> <https://prezi.com/p/2i6vgplz20m2/dinning-ijtimoiy-vazifalari/>

<sup>16</sup> <https://reja.tdpu.uz/shaxsiyereja/content/>

shug'ullanadi. Biroq, din masalasiga qiziqish insoniyat tarixi davomida qayd etilgan. «Qadim zamonlarda odamlar xudolarga ishonish (ko'pxudolik) qanday paydo bo'lganini tushunishni xohlashgan. Turli xalqlarning dirlari haqida ilk ma'lumotlar Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida keltirilgan. Masalan, mil.avv. V asrda yashab o'tgan «tarix otasi» Gerodot ham o'zi tadqiq qilgan xalqlarning tarixi xaqida ma'lumot berish barobarida, ularning dirlari haqida ham to'xtalib o'tgan.


Masalan, yunon shoiri Gesiod (miloddan avvalgi 8—7-asrlar) o'zining «Teogoniya» («Xudolarning kelib chiqishi to'g'risida») asarida yunon mifologiyasining birinchi tizimli tavsifini berishga harakat qilgan, u yerda «Xudolarning kelib chiqishi to'g'risida»gi talqinini ifodalagan. Ushbu asarga o'xshash parchalar yoki hikoyalar "ikkinchi ming yillikda Mesopotamiyada, Finikiyada, Kichik Osiyoning janubi-sharqida, Suriya va Mesopotamianing shimolida yashagan xurriylar orasida paydo bo'lgan. Xeltlar ularning mifologiyasini keyinchalik qabul qilgan"<sup>17</sup>.

Gomer (Mil.av IX asr) asarlaridan xudolar va qahramonlar haqida berilgan ma'lumotlarni misol qilib olishimiz mumkin. Gomerning «Illiada», «Odisseya» va Gesiodning «Mehnatlar va kunlar» asarlarida xudolar xaqida asosan triada, yani uch eng asosiy xudolar sifatida Zevs, Poseydon va Aid haqida ma'lumotla berilgan. Qadimgi Yunon shoir va faylasuflaridan Platonning «Davlat» hamda Esxilning «Geliad» poemalarida ham xudolar xaqida so'z boradi. O'rta asr sharq allomalari tomonidan ham din mavzusiga alohida e'tibor berilgan.

Dastlabki «maqolot» turidagi asarlar asosan shialik e'tiqodidagi insonlar tomonidan yozilgan va ular «ashob al-maqolot» deb nomlangan. Biroq, vaqt o'tishi bilan sunniy olimlar ham «maqolot» janrida asarlar yozishgan. Shunday asarlardan

<sup>17</sup> <https://ru.wikipedia.org>

eng mashhurlari Abu Mansur Moturidiyning «Maqolot» va Abul Hasan Ash'ariyning «Maqolot alislomiyyin va ixtilaf al-musolliyn» nomli asarlari hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy haqiqiy ma'noda musulmon sharqidagi dinshunoslik fanining otasi nomiga munosibdir. Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» kabi asarlarida turli dinlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» islom olamida qiyosiy dinshunoslik sohasida ham salmoqli ishlar qilinganligidan darak beradi.



**Abu Rayhon Beruniy (973-1048)**

Ibn Nadimning aytishicha «Hindiston» asarining yozilishi «Dinshunoslik» fanini o'rGANISHNI boshlab berdi. Abu Rayhon Beruniyning «al-Osor al-boqiya» asari ham kitobxonlarga ma'lum. Asarning yozilish maqsadini, «Olimlardan biri mendan xalqlar tarixi, ular amal qiladigan taqvimlarning boshlanishi, oylar va yillardagi qarama-qarshiliklar, bularning sabablari, xalqlarning mashhur bayramlari, maxsus belgilangan kunlar, millatlarning ba'zisi amal qilib, ba'zilari amal qilmaydigan marosimlari haqida so'radi. Men imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o'qiguvchi fahmlaydigan, turli kitoblarni

topib, bu kitoblarga nisbatan tushunmovchilik qolmaydigan bir asar yozishga da'vat etdi» deb bayon qilgan. «Abu Rayhon Beruniy o'zining «Osor al-boqiya ani-l-quruni-l-holiya» (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) nomli asarida keltirib, unda Zardusht va «Avesto» haqida ma'lumot berib o'tadi, dunyoda avestoshunoslikka asos solgan desak, xato bo'lmaydi. Abu Rayhon Beruniyning fikr va mulohazalari, mushohada hamda xulosalari keyinchalik o'z tasdig'ini topgani buning isbotidir. U xorazmliklarning diniy e'tiqodlari haqida quyidagi ma'lumotlarni bergan: «Peshdodiy podshohlari va Balxda turuvchi kayoniylarning ba"zilari to Bishtosf podshohligidan o'ttiz yil o'tib, Zardusht yuzaga chiqqan vaqtgacha, ikki yoritqichni; yulduzlar va barcha unsurlarni ulug'lar va muqaddas hisoblar edilar»<sup>18</sup>.


Keyingi asrlardan esa «al-Firaq», «ar-Radd», «ad-Dlyonat» va «al-Milal» yo'nalihidagi adabiyotlar vujudga kelgan. Biroz keying davrlarda Gollandiyada S.R.Tile va Shantepi de la Sosse bu borada izchil faoliyat olib borganlar. Shunday qilib davrlar o'tishi bilan Parij, Bryussel va Rim kabi markazlarda dinshunoslik univer-sitetlar ta'lif dasturlaridan joy olgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dinshunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar shakllangan. Bu davrda turli mintaqalarda zikr qilingan sohada bir qancha mutahassislar yetishib chiqqan. Ulardan R.Pettazone, M.Eliade, Van der Lyu, R.Otto G.Menshing, J.Vax kabi tadqiqotchilar nomini zikr qilishimiz mumkin.»<sup>19</sup>

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoyiga hissa qo'shgan tarixchi, faylasuflardan Abdusamedov A.E, Karimov T., Komilov N, Mamashokirov S, Tog'ayev Sh, G'oyibnazarov, Jo'rayev S, Idirov

<sup>18</sup> Ал-Беруний Авесто ва зардустийлик жаҳони

<sup>19</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dinshunoslik>



U, Nazirov N, Muratov D., Alimova M., Karimov J. Raximdjanov D., Ernazarov O, Isoqjonov R, Kamilov D., Shermuxamedova N.A.lar «Dinshunoslik», «Dinlar tarixi» ustida ish olib borishgan.

Mustaqillik yillarida «Dinshunoslik» fani rivojiga ilmiy izlanishlari bilan ulkan hissa qo'shayotgan N.Nazarov, D.Rahimjonov, N.Muhamedov, Z.Isoqova, A.Alloqulov kabi tarixchi, faylasuf olimlarni alohida tilga olish joiz.

#### **1.4. Dinning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi ahamiyati.**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin dinning ijtimoiy-siyosiy salmog'i o'zgargan bo'lsa-da, u bilan bog'liq muayyan muammolar hamon uchrab turibdi. 2023 yil 30 aprelda O'zbekiston Konstitutsiyasi Yangi tahrirda qabul qilindi. Unda dinning mamlakatimizdagi ijtimoiy o'rni aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, xususan, uning 35-moddasida: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi», – deb ta'kidlangan. Bu bilan mamlakatda dinga bo'lgan munosabat o'z aksini topgan.

Mustaqillikdan keyingi yillarda O'zbekistonda dinga munosabat ijobjiy tomonga o'zgardi. Islom dini rivojiga beqiyos hissa qo'shgan byuuk allomalar, din peshvolarining nomlari qayta tiklandi, islom dinining taraqqiyotiga doir qator tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Bunday tadbirlar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan barcha diniy konfessiya-larda amalga oshirildi. Bu tadbirlarning ayrimlarini sanab o'tish kifoya. Masalan, 1991 yil 11 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ro'za hayiti» va «Qurban hayiti»ni milliy bayram deb e'lon qilish haqida farmoni qabul qilindi va Konstitutsiyada

belgilandi. 1992 yil 7 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilish to'g'risida farmoni, 1992 yil 1 aprelda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinganligi fikrimizning dalilidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 1993 yil 16 sentyabrda Buxoro shahrida islom dinida naqshbandiya tariqati asoschisi Xoja Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligi keng nishonlandi. 1993 yil 23-24 oktyabrda O'zR hukumati qarori bilan va Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti hamkorligida Samarqand shahrida «Imom Buxoriy: hayoti va faoliyat» mavzuida xalqaro anjuman o'tkazildi. 1994 yil 18 oktyabrda islom ilmiga katta hissa qo'shgan alloma Xo'ja Ahror Valiy tavalludining 590 yilligi keng nishonlandi. 1995 yilning noyabrida Xorazmning Urganch shahrida Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi yubiley-lari nishonlangani fikrimizning dalilidir. 1998 yil 23 sentyabrda muftiy Toshkent shahrida Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Yana bir muhim voqeа sifatida 1998 yil 23 oktyabrda esa Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi Samarqand shahrida nishon-langani va Imom al-Buxoriy majmuasi ochilganini e'tirof etish mumkin. Bu kabi tadbirlar bevosita O'zbekiston Respublikasi hukumatining tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi natijasida amalga oshirildi.

1998 yilga kelib, ezgu ishlar bilan bir qatorda, mamlakatda din va diniy faoliyat shu qadar keng quloch yozganligidan foydalaniб, yovuz, qora niyatlarni amalga oshirish, mamlakat hayotini diniy o'zanga burib yuborish uchun sharoit yaratishga urinishlar ham ko'paydi. Bu holat mantiqan va tarixan 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar

to'g'risida»gi qonunning hayotdan orqada qolganligini ko'rsata boshladi. Shu bois 1998 yil 1 mayda ushbu qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi hayot taqozosi bo'ldi.

O'zbekiston, milliy tarkibiga ko'ra, ko'p millatli davlat hisoblanadi. Hozir respublikamizda 130 dan ortiq millat va elatlarning vakillari istiqomat qilmoqda. Agar 1990 yilda Respublikamizda 119 ta diniy tashkilot, 2 ta diniy o'quv yurti mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda Respublikamizda 16 diniy konfessiya tarkibida 2 241 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2064 tasi islomiy, 157 tasi xristian jamoasi, 8 tasi yahudiylik va 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan «Krishnani anglash» jamiyatni va Buddaviylik ibodatxonasidir. O'zbekistonda Imam Buxoriy xalqaro markazi, Imam Termiziylar xalqaro ilmiytadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom madaniyati markazi, Mir Arab Oliy madrasasi, Imam Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda Asosiy Qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyamiz, amaldagi qonunlarimiz va milliy-diniy qadriyatlarimizga monand ravishda istiqlolning ilk pallasidan mamlakatimizda davlat va din munosabatlari dindorlarning diniy tuyg'u va qarashlarini hurmat qilish, diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqaro larning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash, diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish, ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik, ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy tashkilotlarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan doimiy muloqotda bo'lish, dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslik tamoyillar asosida olib borilmoqda.

Sobiq ittifoq davrida oyoqosti qilingan masjid va madrasalar, cherkov va ibodatxonalarning binolari, nodir tarixiy manbalar, osori atiqalar istiqlol tufayli dindorlarga qaytarib berildi. Respublikamizning turli hududlarida qad ko'targan biri-biridan go'zal masjidlarda ochiq-oshkora ibodatlarini ado etish musulmonlarimiz uchun ulkan tuhfa bo'ldi. Ular bilan bir qatorida poytaxtdagi «Minor», «Islom ota», Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi «At-Termizi» masjidlarining rekonstruksiya qilinib, go'zal maskanga aylantirilganini misol qilib aytishimiz mumkin. Urganch, Nukus kabi shaharlarda musulmonlarimizni o'ziga chorlovchi masjidlarning qurilib topshirilgani yanada quvonarli voqealardan bo'ldi..

Hazrati Imom, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Hakim Termizi, Imom Termizi kabi buyuk ajdodlarimizning majmualari, Rim-katolik cherkovi kosteli, rus pravoslav cherkovi «Svyato-Uspensk» kafedral sobori, Yevangeliyuteranlar kirkasi va boshqa diniy majmular to'liq qayta ta'mirdan chiqarilib, keng faoliyat yurita boshladi

### **Nazorat savollari**

1. «Din» ga ta'rif bering
2. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
3. Dirlarning kelib chiqishi va mohiyati haqida o'rghanish qacon boshlangan?
4. O'rta asr Sharq mutafakkirlarining din mavzusidagi fikrlari
5. Dinning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi ahamiyati qanday?

## **II BOB. MILLIY DINLAR**

### **REJA:**

1. Urug'-qabila dinlari( sehrgarlik, totemizm, shomonizm, animism, fetishizm)
2. Milliy dinlar. Yahudiylik (Iudaizm)
3. Vedalar va veda dinlari, hinduizm, braxmanizm
4. Konfutsizm, daosizm,sinkxizm, sintoizm, zardushtiylik

**Tayanch tushunchalar:** *qadimiy dinlar, milliy dinlar, totem, fetish, jon, ruh, ibtidoiy jamoa tuzumi, magiya, ta'limot.*

### **2.1. Urug'-qabila dinlari (sehrgarlik, totemizm, shomonizm, animism, fetishizm)**

Ibtidoiy odamlar hozirgi davrdagi singari to'la shakllangan diniy tizimga ega bo'lмаган. Ularda boshlang'ich diniy tasavvurlargina bo'lган, xolos. Dinning ana shunday ibtidoiy shakllari urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bo'lган.

Tabiat xodisalarining sabablarini bilmaslik esa u davrda ishlab chiqaruvchi kuchlarning nihoyatda past darajasi bilan izohlanadi. Sinfiy jamiyatda tabiat kuchlari oldidagi qo'rquv, daxshat, ojizlikka xukmron sinf oldidagi ojizlik xam qo'shilgan. Ibtidoiy odamlarning diniy tasavvurlari xaqida ma'lumotlar toplashda arxeologiya fanining xizmati juda katta. Birgina misol: Arxeologlar bundan bir necha ming yillar avval yashagan kishilarning qabrlarini topishganida va qazilma yodgorliklarni o'rganishganida, qabrlarga marhum bilan birga oziq-ovqat, mehnat qurollari, zeb-ziynatlar qo'yilganini aniqlashdi. Bu xol odamlarda ruhga ishonish vujudga kelganligidan guvohlik beradi, ya'ni rux (jon) tanaga qaytadi.

U vaqtarda odamga bu dunyoda kerak hamma narsa u dunyoda ham zarur bo'ladi, deb o'ylaganlar. Bu fikrni bundan 4000 yil oldingi odamlar yashagan Surxondaryodagi Sopollitepa manzilgohidan topilgan namunalar ham tasdiqdaydi. Sopollitepa qabrlari ochilganda, murdalar yonida xar xil buyumlar, xum, xurma, kosa va boshqa xil idish buyumlar topilgan. Marxumning oxiratda tanavvul qilishi uchun shu idishlarga ovqat solib qo'yanlar. Vafot etganlar sharafiga qo'y, echki va boshqa hayvonlar so'yanlar va uning bir qismini marhumga in'om qilganlar. Vafot etgan odam u dunyoda o'z xayotini yana davom ettiradi, deb ustidagi kiyimlari bilan ko'mganlar. Shu va shunga o'xshash primitiv diniy qarashlar avloddan avlodga ko'chib o'tib kelavergan va keyinchalik milliy dinlarning dhakllanishiga turtki bo'lgan. Shunga ko'ra avvalo eng qadimgi- urug'-qabila dinlariga e'tiborni qaratamiz.

Ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlari totemizm, animizm, fetishizm, shomonizm, magiya (sehrgarlik) shakllarida tarqalgan; ularning ba'zi elementlari (tumor, sanamlar, ko'zmunchoqlarning qudratiga ishonish) hozirgi zamon dinlarida ham uchraydi.

Sehrgarlik-magiya insonlarga, hayvonlarga yoki tabiat hodisalariga g'ayritabiyy yo'l bilan ta'sir o'tkazish maqsadida bajariладиган маросимидир. Afsungarlik urf-odatlari bilan mahsus kishilar-shomonlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamaa bo'lib amalga oshirilishi mumkin edi. Magiya, ya'ni sehrgarlik maqsadiga ko'ra quyida-gilarga bo'linadi: «Yaxshi niyatda» amalga oshiriladigan – «oq sehrgarlik» («belaya magiya») «Yovuz niyatda» amalga oshiriladigan – «qora sehrgarlik» («chyornaya magiya»); Harbiy sehrgarlik (qurol aslahani sehrlash); Sevgi sehrgarligi («issiq», «sovuuq» qilish) Tibbiy sehrgarlik (davolash maqsadida) Ob-havo

sehrgarligi (yomg'ir chaqirish) Sehrgarlik zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan<sup>20</sup>.

Afsungalar osmon jismlarining harakatiga qarab, hayvonlarning suyaklari, ichak-chavoqlari, qushlarning uchishi va ovozi, odamlarning kaft chiziqlari tuzilishi, raqamlar, iyerogliflarning joylashish tartibi, ilonlar harakatiga, o'lgan odamlar ruhi bilan ruhiy muloqotga kirishganda, tushlarni ta'bir qilish hamda boshqa narsalarga qarab kelajakni bashorat qilganlar, bo'lajak ofatdan ogohlantirganlar.

Sehrgarlik bilan shug'ullanuvchilar xalq orasida afsungar, sehrgar, azayimxon, suqchi, emchi, baxshi, parixon, duoxon nomlari bilan atalgan. Sehrgarlik kuchini qaytarish uchun olov, kul, non, pichoq, piyoz, hayvon shoxi, duolar yozilgan tumorlar ishlataligan.

Sehrgarlikning shakllari turlicha bo'lib, ular turmushning barcha sohalarida qo'llanilgan. Sevgi-muhabbat magiyasi, davo magiyasi, ishlab chiqarish magiyasi, dushmanqa qarshi qollaniladigan magiya kabi sehrgarlik, ibodat va harakatlardan ancha keng yoyilgan. Mehnat bilan bog'liq bo'lgan sehr-jodu harakatlari ibtidoiy odamlar hayotida alohida o'rin tutgan bo'lib, ular tirikchilik uchun kerak bo'lgan narsalarni topishdan oldin shu buyum yoki hodisaga bog'liq bo'lgan turli harakatlarni bajarganlar.

Ibtidoiy jamoa ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining darajasi pastligi kishilar hayotining urug' va qabila munosabatlari tor doirasi bilan cheklanganligi, tabiat kuchlari oldidagi ojizlik dinning ilk shakllarida o'z in'ikosini topgan. Bu ojizlik ibtidoiy odamning sodda, yuzaki tasavvurlariga asoslangan soxta sehrgarlik usullari qo'llanishiga majbur etgan. Ojizlik, qadimgi

odamlarning har doim mo'jizaga ishonish bilan hayoldagina maqsadga erishishiga madad bergan.

Ibtidoiy dinlarda hayoliy in'ikos mahsuli bo'lgan tog', suv, bo'ron, quyosh, momoqaldiroq xudosi kabi tasavvurlar turlituman bo'lsada, ular oliv va past tabaqalarga ajratilgan emas. Bunday ajratish sinfiy jamiyatga o'tilgandan so'ng yuz bera boshladi.

«Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda ishlab chiqaruvchi kuchlar ham o'zgarib, rivojlanib borgan. Ishlab chiqarishni tashkil etuvchi va boshqaruvchi kuchlar-kishilar ham tabaqalanishda davom etgan, dunyoqarashlari kengaya borgan. Ilk afsungarlik kitoblari milodning I-II asrda Aleksandriyada vujudga kelgan. Unda sehr-jodu insonning irodaviy xattiharakatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir eta olishi mumkin bo'lgan o'ziga xos g'ayritabiyy kuchlar sifatida e'tirof etilgan. Sehrgarlikka oid tushuncha va e'tiqodlar maxsus marosim va bayramlarda o'z aksini topgan.

Masalan hozirgi O'zbekiston hududida qurg'oqchilik davrida yomg'ir tilash («Sust xotin»), shamol zarar keltirganda uni to'xtatish («Choy momo») va kerak bo'lganda chaqirish, ofat yuz berganda qurbanlik qilish marosimlari o'tkazilgan. Shu tariqa ilohiy kuchlarga ishonishga bag'ishlangan marosimlar asosida keyinchalik diniy marosimlar shakllana boshlagan.

Sehrgarlik hozirda ham turli xalqlar urf-odatlarida mavjud. Ko'pincha kishilarning irodasizligi, ijtimoiy hodisalar oldida ojizligi, tabiat kuchlari oldidagi qo'rquv, mavjud muammolarni to'g'ri tahlil eta olmaslik oqibatida sehrgarlikdan najot topishga ishoniladi. Sehr-jodu elementlari barcha dinlarda qarg'ish va duolar shaklida saqlanib qolgan». <sup>21</sup>

---

<sup>21</sup> Dinshunoslik-asoslariA.OchilidiyevD.Rahimjonov.pdf

Sehrgarlik yolg'on va ko'zga ko'rinxmaydigan sehrli aloqa va ta'sirlarning tabiatda mavjudligiga ishontirish, ayrim xollarda odam bilan tabiat orasidagi munosabatlarga ham o'zaro ta'sir o'tkazish, bir odamning ikkinchi bir shaxsga ta'sir qila bilish qobiliyatiga ega ekanligini uqtirishdan iborat diniy e'tiqoddir. Sehrgarlik yo'li bilan ko'pincha havf-xatardan saqlanish yoki dushmanga zarar yetkazish maqsadida uzoq masofadan bo'lsada, jismoniy xamda nojismoniy ta'sir o'tkazishga harakat qilin-gan. Bu ish bilan jodugarlar, azoyimxonlar, folbinlar, duoxonlar, baxshilar shug'ullanganlar.

Sehr-jodu qilishning turlari turli-tuman bo'lib, unga asosan quyidagilar kiradi: Birovga yoki dushmanga ziyon-zahmat yetka-zish, xarbiy sehrgarlik, muhabbat sehrgarligi, isitma-sovutma, kasallikdan davolash sehrgarligi, yomonlik yoki yovuzlikdan qo'riqlash sehrgarligi va boshqalar

Sehrgarlik barcha dinlarda ham muhim o'rinni olganligi bilan ajralib turadi. Xulosa shuki, sehrgarlik odam, hayvon va tabiatga g'ayritabiy yo'l bilan ta'sir o'tkazish maqsadida ma'lum kishilar tomonidan bajariladigan hatti-xarakatlardir.

Totemizm ibtidoiy o'ta sodda diniy e'tiqodlardan biri bo'lib, qadimda urug'-qabila a'zolarining muayyan bir hayvon, o'simlik bilan g'ayritabiiy aloqasi, yaqinligi, qon-qarindoshligi bo'lgan deb, bu hayvon va o'simliklarni ilohiylashtirishdan iboratdir. Totemizm degan nomi qadimgi hindlar tilidagi «O totem»(uning urug'i) degan so'zdan olingan. (Shimoliy Amerika hindularining «Ojibve» qabilasi lahjasidagi «ot-otem» so'zidan olingan – «uning urug'i») atamasini birinchi marta 1791 yilda Jon Long «insonning hayvon va o'simliklar bilan qon-qarindoshligi haqidagi ishonch»ni anglatuvchi so'z sifatida qo'llagan. Uning fikriga ko'ra, har bir qabila yoki urug' o'zlarini biror o'simlik yoki hayvon bilan atagan va ularga aloqador hisoblagan. Bu aloqadorlik o'ziga xos

qarindoshlik sifatida anglangan. Bunda hayvon, o'simlik yoki buyum muqaddaslashtirilib, unga sig'inilgan. Totemizm XIX-XX asrlarda Dj.Mak, Lenan, U.B.Robertson, Smit, Frezer va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Totemizmni tushuntirish va tadqiq qilish xilma-xil an'ana va tamoyillarga asoslanadi. Ular ichida eng ommaviylari – totemizmni dinning ilk shakli deb bayon etish (Dyurkgeym va boshqa) hamda totemizmni sodda aqliy tasnif tizimi deb atash (Levi-Stros va boshqalar)dir. Mazkur din muayyan kishilar jamoasining tabiat, binobarin tashqi olam bilan bog'liqligini ifodalovhi ilk shakllaridan edi. Har bir urug' yoki qabila o'z yashash sharoiti va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ba'zi hayvonlarni ovlar va ular haqidagi yetarli ma'lumotga ega edi.

Hayvonlar haqidagi ma'lumotlarning kengayishi, keyinchalik esa o'simlikning ba'zi navlari ham ilohiyashtirilishi ularni muayyan urug' a'zolarining ajdodi- totemidir, degan noto'g'ri tasavvur shakllanishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan keyinchalik urug' a'zolari «totemning yordamiga», uni ilohiyashtirib, o'z homiyları deb hisoblab, sehr yo'li bilan unga ta'sir qilishga, o'z navbatida undan panoh so'rashga uringanlar. Totem hisoblanmish hayvon yoki o'simlikga sajda qilingan, himoya qilingan, e'zozlangan, uni otib o'ldirish, iste'mol qilish ham ma'n etilgan. Faqat ayrim hollarda, ya'ni tantanali kunlarda totem hisoblangan hayvon yoki o'simlikni mahsus rasm-rusumga rioya qilingan holda iste'mol qilish mumkin bo'lgan. Urug' a'zolari shundagina totemning kuch-quvvati kishilarga o'tadi degan noo'rin tasavvurga ega bo'lganlar. Totemistik e'tiqod tub avstraliyaliklarda keng saqlanganligini ularning urug'lari nomlaridan payqash mumkin. Ular urug'larni konkret hayvonlardan (oq ho'kiz, qora ho'kiz, kenguru yoki ayrim o'simliklar nomi bilan ataganlar. Totemizm bilan bogliq tasavvurlarning an'anaviy kompleksi - urugning yangi tug'ilgan a'zolariga, ya'ni tirik avlodlarga «pok yo'l» bilan

totemning o'tib qolishiga ishonish, sehr-jodu yo'li bilan totemga ta'sir qilib, muayyan urug' yoki qabila xududida o'sha xildagi hayvon yoki o'simliklarni ko'pay-tirish va ularning moddiy farovonligini ta'minlash, totem timsoli bq'lgan narsaning xalokati uning avlodini xalokatga olib borishiga ishonishdan iborat bo'lgan.

Avvallari totemlar sifatida faqat xayvonlar, shunda ham ov xayvonlari e'zozlangan. Biroq, keyinchalik qarindoshlik munosabatlari boshqa xayvonlarga ham, ba'zi xollarda esa o'simliklar, tabiat xodisalariga (yomg'ir, quyosh, shamol va xokazo) xam tarqalgan. Qiziq, nega shunday bo'lgan? Ma'lumki, totemizm keng tarqalgan Avstraliyaning geografik joylashuvidanagi «o'ziga xoslik» uni uzoq vaqt tashqi olamdan uzib qo'ygan edi. Natijada qit'aning tub aholisi taraqqiyotdan orqada qolib ketgan. Ikkinchidan, Avstraliyaning tabiiy sharoiti uning barcha xududida deyarli bir xilligi bilan ajralib turadi. Avstraliyada inson kurash olib borishi zarur bulgan yirtqich hayvonlar bo'lman. Ular faqat ovchilik va termachilik orqasida kun ko'rganki, bu xol ularning taraqqiyotini sekinlatgan, albatta. Natijada XIX asrda Avstraliyaga yevropaliklar kirib kela boshlagan davrda xam Avstraliya axolisi sayyor, ko'chmanchi qabilalardan iborat bo'lib, ular xali yerga ishlov berishni, chorvachilik bilan shugullanishni, bichish-tikishni, idishlar yasashni, metallga ishlov berishni, ov qurollari yasashni (masalan, o'q-yoy) bilmas edilar. Bularning barchasi ular xayotida, dinida o'ziga xoslikni keltirib chiqarmay iloji yo'q edi. Avstraliya xalqlari qabilalaridagi urug'lar (totem) 10 dan 30 tagachani tashkil etar edi. Bu xalq shunday qoloq bo'lsa-da, ularda bir yaxshi odat ham bor ediki, uni aytib o'tmaslikning iloji yo'q. Bir totem urug'i a'zolarining o'zaro nikohga kirishlari mumkin emas edi.

Avstraliyaliklarda jinsiy va individual totem ham mavjud edi. Jinsiy totemning ma'nosi shuki, bir qabiladagi barcha erkaklarning totemi aloxida, ayollarining totemi aloxida bo'lgan. Masalan, erkaklarning totemi ko'rshapalak bo'lgan bo'lsa, ayollariniki biror qush bo'lishi mumkin edi.

Individual (yakka) totem deyilganda, bir urug' barcha a'zolarining umumiy totemi bilan bir qatorda, yana uning xar bir a'zosining aloxida-aloxida shaxsiy totemga ega bo'lganligi xam tushuniladi. Bunday totemlar asosan erkaklarda, shunda xam afsungarlarda, qabila boshliqlarida, duixonlarda bo'lgan. Ular o'zlarining shaxsiy totemlarini farzandlariga meros qilib qoldirganlar. Totemning bu ikki turi bir vaqtida paydo bo'lмаган, albatta.

Totemlar xaqida rivoyatlar to'qilgan. Totemlar e'zozlangan, ularni o'ldirish va otish taqiqlangan. Totemizm xozirgi dinlarda muayyan unsurlar sifatida mavjuddir. Masalan, xindlarda sigir, ilon, maymun, fil va boshqalar hamon muqaddas hayvon sifatida e'zozlanadi. Totemizmning elementlarini xozirgi mavjud dinlarda haligacha saqlanib qolgan. Masalan, hinduizm dinida maymun, fil, sigir, ilon kabilar muqaddas hisoblangan bo'lsa, Markaziy Osiyo xalqlarida, shu jumladan o'zbeklarda qaldirg'och, musicha, laylak, ko'k qarg'ani muqaddas qushlar deb e'zozlash ham totemizmning ko'rinishlaridan biridir. Xalqimizda muchalga qarab vaqt hisobini chiqarish totemizmdan qolgan odatdir. Masalan, ota-bobolarimiz odamlarning tug'ilgan kunidan boshlab qancha yashaganligini, yani yoshini muchal orqali, muayyan hayvon nomlari bilan atalgan yil hisobidan aniqlaganlar.

Muchal yil hisobi mo'g'ullarda, xitoyliklarda va barcha turkiy xalqlarda keng tarqalgan yil hisobi bo'lib, unda yil oylari 12 hayvon nomlari bilan ataladi: Masalan: sichqon, ilon, ot, qo'y maymun, baliq, tovuq, it, tong'iz shular jumlasidandir. Totemizm

unsurlari hozirda ham ko'plab xalqlar urf-odatlari, e'tiqodlari, an'ana va marosimlarida (Sibir xalqlari ayiq, hindlar sigir, qirg'izlar oq bug'u, xitoyliklar mushuk, avstraliyaliklar kenguru, o'zbeklar semurg'ni afsonaviy baxt keltiradi, deb ulug'laydilar) saqlanib qolgan.

Musulmonlarda, jumladan, xalqimizda, totemning elementlaridan bo'lган muchalga e'tiqod qilish hali ham qisman saqlanib qolgan.

Dinlardagi, chunonchi islomdagi ayrim hayvonlarning go'shtlarini harom hisoblab, yeishi man etilishi ham totemizm unsurlaridandir.

**Shomonizm** - qadimiy, urug'-qabila dinlaridan bolib, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo'lган animistik e'tiqod va ibodatning keng doirasiga kiradi. Shomonlik (shamanlik, evenk tilidan olingan shaman — jazavaga tushish) – diniy e'tiqod shakllaridan biri. Yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta'siriga ishonish shomnlikning asosini tashkil etadi. Shomolikda uning ruhoniylari – shomonlar ruhlar bilan aloqa bog'lay oladigan, bo'lajak voqealarни oldindan aytib bera oladigan shaxslar deb, ularga sig'iniladi. Maxsus kiyim kiygan, childirma ushlagan va boshqalar turli narsalar taqingan shomonning xalq o'rtasida raqs tushib va jazavaga kirib, ruhlar bilan «aloqa bog'lashi» hamda ulardan ma'lum yo'l-yo'riq olishi shomonizmning asosiy marosimi hisoblanadi. Bu diniy e'tiqodda oddiy dindorlarga belgilangan keng marosimchilik belgilari va ibodatxonalar yo'q. Shomonlarga bemorlar o'zlarini davolash maqsadida murojaat qilib turadilar. Shimoliy Afrika, Shimoliy va Sharqiy Osiyoning ko'п xalqlarida (turkiy xalqlar orasida Islom kirib kelishidan oldin), Sibirda, indeyslar va boshqa xalqlarda tarqalgan. Shomonlikka munosib ko'rilganlarni maxsus belgilari va ko'plab qobiliyatlar talab qilingan.

Shomonizmning o'ziga hos xususiyati shundan iboratki, kishilar ruhlar bilan munosabatda bola oladigan shomonlar qobiliyatiga ihonganlar. Shomonlar ilohiyashtirilib, odamlar ularning kelajakni oldindan aytib berish, turli kasalliklarni marosimlari orqali davolash, o'lganlarni oxiratga uzatish, tabiat va unda ro'y berayotgan hodisalarga xohlagancha o'zgartirishlar qila olish kabi g'ayritabiyy xususiyatlarining borligiga ishonib kelishgan. O'tmishda shomonlar marosimlar o'tkazish jaryonida, do'mbirasi yoki mo'jizaviy musiqa yordamida ruh bilan aloqa o'rnatayotganiga hammani ishontirganlar. Turli rasm-rusumlarni bajarish jarayonida shomon jazavaga tushib, holdan toyishgacha bajargan. Shomonizm o'tmish dinlar sarqiti sifatida ba'zi hollarda turli ko'rinishda uchrab turadi. Ortiqcha barmoq bilan tug'ulganlar, ya'ni shamanlarning oltinchi barmog'i bo'lishi lozim edi. Shomonlar qo'shiq, musiqa, rassomchilik, raqs, so'zamonlik va haykaltaroshlikni yaxshi bilishlari kerak edi. Ularning marosimlarda aytildigan qo'shiqlari davolash va jodulash xususiyatiga ega bo'lgan. Ular o'tib ketgan ajdodlari arvoxlariga sig'inishgan. Ulardan madad so'rashib qurbanlik marosimlarini o'tkazishgan. Ularning asosiy ish qurollari, buben nomli childirma, qamchi, changqovuz, morin xur bo'lgan. Maxsus kiyimlarida mistik ramzlar bo'lgan. Ularning raqslari tabiyat jonvorlari harakatini eslatardi, bunga sabab o'lgan ajdodlar arvoxlari hayvon qiyofasiga kirib, ular yoniga kelishiga ishonishardi. O'zbekiston xalqlari orasida ham shomonlar bor, ularni hamma, baxshi nomi bilan yaxshi biladi. Ular ham ajdodlariga atab qurbanliklar qilishadi, bashorat, jodu va davolash ishlarini bajarishadi. Ular ish quroilda ham doira, qamchi, changqovuz, xanjarlarni ko'rishimiz mumkin va bu ish qurollari doim qurbanlik qilingan jonzotlar qoni bilan qonlanib turgan.

Sibirdagi turkiy xalqlarda «shamon» so'zi «qam» deb yuritilgan. Shomon qabila ruhonisi bo'lib, ular ilohiy kuchga ega deb hisoblangan. Shomonlar urf-odatlarini bajarishni tomoshaga aylantirgan. Odatda, shomon o'yinlari kechqurun amalga oshirilgan. O'yin oxirida shomon behol bo'lib yiqiladi. Ularga ko'ra, shomonlar ruhlar bilan pichirlashib gaplashgan. Go'yo talvasaga tushib bemorlarni davolagan. Shomon qabila, urug' homiysi, qo'riqchisi, ruhi hisoblangan. Markaziy Osiyoda ham shomonizm unsurlari mavjud. Jumladan, Surxondaryoda go'yoki «qora bosdi», «qora bosibdi» kabi kasallikklardan bemorni xalos qilish uchun qo'shnochlar talvasaga tushib, o'zini u yoqdan bu yoqqa otib, bemor tanasidagi kasalni quvmoqchi bo'ladi. Ruhoniyalar bu holatda insondan kasallikkarni duo va qamchi bilan urib chiqarmoqchi bo'ladi, hatto ular shu jarayonda miltiqdan, uning ovozidan, kuchli shovqindan ham foydalanishga harakat qiladi. Bu jarayonda bir emas, bir necha qo'shnochlar qatnashishi ham mumkin. Shomonlar odamlar diqqatini o'ziga qaratish uchun turfa rasm-rusmlarga rioya qilishgan, turli buyumlar osilgan maxsus kiyimlarni kiyishgan, qo'ng'iroqli childirma va nog'oralardan foydalanganlar. Xulosa shuki, shomo-nizmning totemizm, fetishizm, animizmdan farqi bor. Bu dinlarda odamlar hayvonlar, o'simliklar, turli buyumlar va ruhlarga sig'ingan bo'lsa, shomonizmda odamlar odamga-shomonga ishongan va sig'ingan.

Animizm - (lotincha-animus-jon, ruh demakdir) qadimiy dinlardan bo'lib, kishi ruhining mavjudligiga ishonishdan iborat. Animizm tabiatdagi buyumlarni ilohiylashtiradi, har bir jismda ryh bor, tanadan tashqarida ham jon bor deb hisoblaydi.<sup>22</sup> Ingliz etnologi E.Teylor 1871 yilda animizmni ilk diniy tasavvurlarning dastlabki bosqichi sifatida e'tirof etgan.

<sup>22</sup> <https://yandex.ru/search/?clid=2422918-7&text=Animizm>

Animistik tasavvurlar qadimdan barcha xalqlar dinlarida jon va ruh haqidagi tushunchalarning shakllanishida muhim rol o'ynab kelgan. Animizm haqida o'rganar ekanmiz, har bir kishida hayot va ong manbai bo'lgan jon bor, deb talqin qilingan. Animistik tasavvurlar, dastlab Jonni soya yoki nafas bilan aynan bir narsa, deb bilar edi. Masalan, qadimgi arablarda Jon bilan qon, Shimoliy Amerika xalqlarida soya bilan Jon, Grenlandiyada esa nafas olish bilan Jon bitta nom bilan atalgan. Insonda olam haqidagi tasavvurlarning shakllanishi, tabiat va hodisalar xususiyatlariga qiziqish, Jon va ruhlarning tirik odamlar singari qobiliyatga ega degan fikrlar paydo bo'lishiga olib keldi va shu munosabat bilan animizmning tarkib topishiga sabab bo'ldi. Ibtidoiy odamlar Jonning go'yo o'lmasligiga qattiq ishonganlar. Chunki qadimgi odamlar o'z tanalarining tuzilishi to'g'risida bilim va ko'nikmaga ega emasligi, u haqda bir tushunchaning yo'qligi, hattoki uyquning va tushning sabablarini ham izohlay olmaganlari ma'lum.

Shu sababli ibtidoiy odamlarda inson tanasini boshqaradigan qandaydir alohida bir kuch, yani Jon mavjud, va bu kuch odam o'lgandan so'ng, o'sha kuch, ya'ni Jon tanadan chiqib ketadi degan tasavvur hosil bo'lgan. Natijada Jonning tanani tark etgandan keyingi faoliyati bilan bog'liq jarayon qanday kechishi haqida o'ylay boshlaganlar. Ibtidoiy odamlar o'zlarini tabiatning ajralmas qismi deb hisoblaganlar. Inson bilan bir qatorda hayvon, o'simlik, hatto mehnat qurollari, keyinchalik, suv, o'rmon, momaqaldoiroq va boshqalarda ham Jon bor, degan tasavvurlar shundan kelib chiqqan. Buni fanda gilozoizm deb ataydilar.

Jon va ruhlarga ishonish xatto xoizr mavjud dinlarga ham xosdir. Farishta, shayton kabilar haqidagi tasavvurlar o'z mohiyatiga ko'ra murakkablashtirilgan animizmdir. Odam vafotidan so'ng Jon tanadan chiqib ketadi, degan tasavvur chuqurlasha borgan. Natijada, odam o'lgandan keyin ham yashashda davom

etar ekan, ruh abadiy yashaydi degan tushuncha hosil bo'lgan. Shu tariqa ruhlarga ishonish arvochlarga ishonishni keltirib chiqargan. Animizm xar qanday dinning zaruriy unsuridir.

Ajdodlarning ruxlari, tiriklarning joni, tabiiy kuchlarning joni lan tilishi — animistik timsollardir. Animizmda ruxlar tabiiy xodisalarini boshqaruvchilar xisoblanadi. Bu ruxlar saxiy, yoki kishilar baxtiga tahdid soluvchi bo'lishi mumkin.

Ibtidoiy animistlar vafot etgan qarindosh-urug'larining ruxlarini abadiy, o'lmas deb xisoblaganlar va e'zozlaganlar. «Inson vafotidan so'ng qayerda yashaydi» degan savolga turli xalqlar turlicha javob berishgan. Ba'zilari ajdodlarning ruxlari tiriklar yashaydigan joyda yashashadi, biroq, ularni faqat tushda ko'rish va gaplashish mumkin, deb o'ylaganlar. Boshqalar marxumlarning ruxlari chaqaloq tanasiga o'tadi, deb faraz qilganlar. Uchinchilari esa, ajdodlarning ruxlari maxsus joylar — «o'liklar mamlakati»da yashaydi, bu mamlakat yer ostida joylashgan deb xisoblaganlar. Odamlar juda qadim zamonlardan buyon o'z tanalarining tuzilishi to'grisida aniq bir tushunchaga ega bo'lmay, uyqu va tush ko'rishning sababini bilmay, tafakkurimiz va sezgilarimiz tanamizning faoliyati emas, balki qandaydir atoxida bir kuchning, aynan tanada bo'lib, odam o'lgandan so'ng tanadan chiqib ketadigan jonning faoliyatidir, degan tasavvur xosil qilgan vaqtlardan beri shu jonning tashqi dunyoga munosabatlari xaqida o'ylay boshlaganlar.

Yuqorida aytildanidek, animizmga e'tiqod qilgan odam vafotidan keyin jon tanadan chiqib ketadi va o'lmaydi, balkim abadiy yashaydi, deb xisoblaganlar. Abadiy rux to'grisidagi tasavvur ana shu tariqa paydo bo'lgan. Ibtidoiy odamlarning fikricha, tabiatdagi xar bir muximroq, xodisaning o'z ruxi bor. Masalan, ayrim daraxtlarning ruxi o'rniga avval ayrim o'rmonlar va butazorlarning ruxlari mavjud, keyinchalik esa umuman o'rmon ruxi bor, deb xisoblaganlar.

Jon va ruxlar, ularning o'lmasligiga ishonish kishilarni quyidagi xulosaga olib kelgan: agar ruxlar kishilarga o'xshab ov qilsa, o'ynasa, kulsa, ularning ovqatlanishi xam tayin. Demak, vafot etgan kishining tirik arvoxi xususida gamxo'rlik qilish kerak. Ularga oziq-ovqat va boshqa xadyalar atab turish lozim. Ruxlar, payg'ambarlar xamda xudo yo'liga qurbanlik qilish, xudoyi kabi urf-odatlar zamirida ana shu maqsad yotadi. Kishilarning tabiatga butunlay qaramligi ruxlar osmonda yashaydi, degan tasavvurni keltirib chiqargan. «o'liklar mamlakati»ni xam xuddi shunga o'xshatib yerdan osmonga ko'chirib, o'lganlarning ruxi «Arshi a'lo»da yashaydi degan tasavvur o'sha kezlarda kelib chiqqan.

Markaziy Osiyoda marxumning jonini arvox deb atashadi. Arvoxning bir xususiyati shundaki, u jismni tashlab undan uzoqqa ketmaydi, lekin u qabrdan tashqariga chiqadi, deb o'ylashgan. Shuning uchun xam qadimgi zamonalarda arvox uchun qabrni teshib qo'yanlar yoki mozor oldida arvox uyi qurbanlar. Arvox hamma joyda — daraxtlarda, ariq va daryolarda, xovuz va xarobalarda yuradi. Shunga ko'ra, kishilar o'z bosqlariga bironbir mushkul ish tushsa, o'sha yerlarga borib sig'inganlar, pul tashlaganlar, arvoxlardan madad so'raganlar.

Ruh va jonning abadiyligi haqidagi qadimiy animistik tasavvurlarning ba'zi elementlari hozirgi dinlarda ham saqlanib qolmoqda. Masalan, odamlar tasavvurida vafot etganlarning ruhini yod etish, ularni tiriklar singari hamma voqeа-hodisadan habardor deb tushunish mavjud. Shu tufayli o'tganlarning ruhiga atab qurbanlik, hayr-xudoyi qilish, is chiqarish, sadaqa berish odatlari hamon uchrab turadi. Ba'zi xalqlarda murdani kiyimlari, ro'zg'or buyumlari, qurol-aslahasi bilan dafn etish, yoniga suv, ovqatlar qo'yish ham animistik e'tiqod tufaylidir. Markaziy Osiyo xalqlarida arvochlар haqidagi tasavvurlar hanuzgacha, vafot etgan

yaqinlarini eslab chiroq yoqish, qabristonga borib duolar qilish xolatlari mavjud. Bu kabi tushuncha va odatlar animizm elementlarining saqlanib, avlodlarda davom etib kelayotganidan dalolat beradi.

Fetishizm - fransuz tilidan olingan bo'lib, fetish-fetiko-yasalgan (tumor, but, sanam) degan ma'nolarni anglatadi. Fetishizm bu-moddiy buyumlarning g'ayritabiiy xususiyatlari borligiga ishonish natijasida jonsiz narsalarni ilohiylashtirib, ularga sig'inishdir. Ibtidoiy odam ongida turli xil moddiyot - tog', daraxt, qoya tosh, suyaklar, patlar, tumor, sanamlarning g'ayritabiiy kuchiga ishonch, ularni turli balo-qazolardan himoya qiladi degan tushuncha paydo bo'lgan. Shu tariqa ajdodlar o'zları o'ylab topgan bu kabi uydirma ilohiy kuchlarga o'zları bevosita sig'ina boshlaganlar. Qadimiy, urug'-qabila dinlaridan biri bo'lgan fetishizm barcha xalqlarda diniy tasavvurlar shakllanishiga turtki bo'lgan.



Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan mayit bilan ko'milgan fetish buyumlar

Etnografiyada fetishizmning tavsifi xilma-xildir. Dj.Lebbok fetishizmni ibtidoiy dinda inson xohishini Xudo bajara olish imkoniyati, deb asoslagan bo'lsa, Teylor, Spenser fetishizm animizmning bir shakli, deb qayd qilgan. Fetishizm jahon dinlari tarkibida ham saqlanib qolgan. Jumladan, xristianlikda ikona va chirimay saqlanib qolgan murdani muqaddaslashtirish, buddizmda «muqaddas xovoncha o'g'ir», islomda «muqaddas joylar», «qora tosh» ilohiyashtirilgan. Kishilik tarixi shuni ko'rsatadiki, har qanday predmet fetish bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, g'aroyib shakldagi tosh, yog'ochning bo'lagi, hayvonning tishi, yaxshilab ishlangan shakl, zargarlik buyumi. Bunday predmetlar davolash, dushmandan asrash va boshqa xususiyatlarga ega deb tushunilgan. Agar biron kishi shunday predmetga murojaat etib, keyin yutuqqa ega bo'lsa, bunga o'sha fetish yordam berdi, deb e'zozlangan, aksincha muvaffaqiyatsiz chiqsa, bunday fetish tashlab yuborilgan yoki boshqasi bilan almashtirilgan, deya talqin etilgan. Ibtidoiy odam tasavvurida fetishlarda buyuk kuch bor, buyumlar esa jonli, deb tushuniladi. Masalan, «shamol kelmoqda», «shamol uxlamoqda» va boshqa fetishlar davr o'tishi bilan murakkablashib, keyinchalik tumor, sanam (but) va boshqaga murojaat etishgan. Fetishizmning asl vatani G'arbiy Afrika bo'lsa-da, u boshqa yurtlarga ham tarqalgan. Fetishizm jamiyatda mehnat mahsulotlarini taqsimlash, ayniqsa, qiymat va boshqaning o'z-o'zidan rivojlanish jarayonida ham yuzaga keldi. Jamiyatda fetishizm predmetlarning tabiiy xususiyatlari, funksiyalari yoki inson faoliyatining mahsulini, shuningdek, individning tabiiy xususiyatlarini ilohiyashtirish bilan xarakterlanadi.

Fetishizm politeistik (ko'p xudolilik), hatto monoteistik (yakka xudolilik) dinlarida xozircha saqlanib turibdi. Masalan xristian dinida hochga sig'inish, islomga qadar politezm davrida

turli o'simlik turlarini, sedana, achchiq qalampir, isiriq, ko'ztikan, qalampirmunchoq, chilonjiyda, daraxtlardan archa, yong'oq, chinor va boshqalar muqaddas sanalib, boshqa buyumlarga, shu jumladan odamlarga ta'siri yoki yordami tegadi deb hisoblaganlar. Bunday xususiyatni tog'-toshlarga, turli buyumlarga ham xos deb o'ylaganlar.

Fetishizm diniy ibodatning ajralmas qismidir. Hozirgi davrda ba'zi soddadil, mutaassiblarning turli tumor, ko'zmunchoq va x.k.larni taqib yurishlari, «muqaddas» deb sanalmish ba'zi joylarni ziyyarat qilishlari, daraxtlarga ijobat bo'lishiga ishongan holda turli niyatlarini aytib latta-putta osish, is chiqarish, jismlarni ilohiyashtirish, ularning uydirma mo'jizaviy kuchiga ishonish fetishizmning diniy e'tiqoddagi eng xarakterli xususiyatlaridan biridir.

## 2.2. Milliy dinlar Yahudiylik

Yahudiylik (Iudaizm) – asosan yahudiylar o'rtasida tarqalgan eng qadimgi dinlardan biri. Miloddan avvalgi 2 ming yillik boshlarida vujudga kelgan. Yahudiylik, sintoizm, daosizm, konfutsizm, hinduizm kabi dinlar milliy dinlar sirasiga kiradi.

Arabiston ning shimolida ko'chib yurgan yahudiy qabilalari miloddan avvalgi XIII asrda Tankani bosib oldilar va miloddan avvalgi X asrda Rossiya –Ispaniya davlatini tuzdilar. Yahudiylik ana shu qabilalarning diniy urf-odatlari va Falastin xalqlarining ayrim e'tiqodlarini o'zida mujassamlashtirgan. Yahudiylik nomi Yahudo (Iuda) qabilasining nomidan olingan.

Yahudiylik dinida xilma-xil ibodatlar, duolar, urf-odatlari, ro'za tutish, xatna qilish, oziq-ovqat sohasidagi taqiqlar, shanba kuni hech qanday ish bilan shug'ullanmaslik, diniy soliqlar va yig'imlar kabi talablar juda qat'iy qilib qo'yilgan. Yahudiylikning

asosiy diniy kitoblari – Tavrot Yahudiylarning turmushi, axloqiy va huquqiy hayoti nazorat qilinadi.

### **Yahudiylilik quyidagi to'rt asosga tayanadi:**

1. Yahudiylilikda olamlarni yaratuvchi yagona xudo sanalmish Yahvega iymon keltirish. Yahve so'zi «rabb, parvardigor» ma'nolarini anglatadi. Ularning muqaddas manbasi Tavrotning «Chiqish» kitobida Xudoning Musoga aytgan ushbu so'zлari keltiriladi: «Yahve – ota-bobolaringiz Ibrohim, Ishoq, Ya'qublarining parvardigori, u meni sizga yubordi» (Chiqish: 3). Mil. av. VI asr oxirlarida yahudiy ruhoniylari oddiy xalq Yahvening hurmatini pasaytirib qo'ymasligi uchun uning ismini ishlatishni man etib, uning o'rниga murojaat uchun «Adonay» («Rabb, Xoja») so'zini qo'llashni buyurganlar. Faqat ruhoniylargina ibodati vaqtida Yahve nomini tilga olishlari mumkin bo'lgan. Yahudiylilik dinida, Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi, deyilgan. Shundan kelib chiqib yahudiy xalqiga ham shanba kuni dam olish buyurildi. Shu sabab yahudiylilik dinida shanba kuni ulug' kun hisoblanib, bir kun avval barcha dunyoviy yumushlarini bajarib, shanba kuni dunyo tashvishlariga qo'l urmay, faqat dam olinadi.

2. Yahudiylar o'zlarini yer yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi» va u «dunyoda berilajak in'omlarga o'zlarini eng haqli deb bilishlari» ekanligi. Ular o'zlarini Xudo tomonidan saylangan, yagona muqaddas xalq ekanini, yahudiyning ruhi Xudoning bir qismi deb hisoblanishini da'vo qiladilar va bunga qattiq ishonadilar.

3. Haloskorning kelishi, yani Messiya haqida. Unga ko'ra, oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan chiqgan xaloskor quyidagi vazifalarni bajarishi bashorat qilinadi: dunyoni isloh qilib uni qaytadan quradi; barcha tarqoq yahudiylarni jamlaydi; ularning barcha dushmanlarini jazolash uchun qaytadi.

4. Oxirat kunining kelishiga ishonish. Boshqa dinlarda uchraydigan ezgulikning mukofotlanishi, yovuzlikning jazosiz qolmasligi Yahudiylikda ham o'z aksini topgan. Oxirat haqidagi tasavvurlar, asosan Talmudda bayon etilgan. Unga ko'ra, Yahvega chin e'tiqod qilganlar oxiratda mukofotlanadilar. Aksincha, uning qonunlariga bo'y sunmaganlar shafqatsiz jazo olishlari muqarrar.

#### **Fanda yahudiylikning 4 bosqichi aniqlangan:**

**1 - eng qadimiy yahudiylik** (Bibliya davri): Eng qadimiy yahufiylik dini dastlab Falastindagi ikki davlat – Isroil va Yahudiya davlatlari (miloddan avvalgi X—XI asrlar)ning, keyinroq ular birlashgach, yagona yahudiy davlatining dini bo'lgan. Bu davr Tavrot (Tora)da aks etgan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, uning tarkibiga kirgan matnlar og'zaki tarzda miloddan avvalgi XI—VI asrlar o'rtaida shakllangan. Miloddan avvalgi V asrda yozib olingan. Bundan keyin yahudiylikning klassik davri boshlanadi

**2 - klassik yahudiylik** (miloddan avvalgi 536 va milodiy 70-yillar): Miloddan avvalgi 586-yilda yangi Bobil podshosi Navuxodonosor XI Yahudiyani yakson qildi, salkam 30 ming yahudiyni asirga oldi. 50 yil davom etgan «Bobil asirligi» va undan keyingi davrlarda minglab yahudiylar Falastinni tark etdilar. «Qadimgi ahd» matnlarining asosiy qismi ana shu davrda yozilgan.

**3 - ravvinlar davri va yangi davr yahudiyligi (modernistik yahudiylik).**

Milodiy 70-yil Quddus ibodatxonasining qulashi va Talmudning yozilishi orasidagi vaqt ravvinlar davridir. Yahudiy ruhoniylari Tavrotni talqin va tavsif qilish jarayonida vujudga kelgan Talmudning oxirgi tahriri ikki variantda: Quddus Talmudi IV asrda, Bobil Talmudi V asrda e'lon qilindi.

4 - VII—XVIII asrlarda yahudiy ruhoniylari (ravvinlar) diniy yozuvlar – Tavrot va Talmudni targ'ib qilishni davom ettirdilar. Bu davrni aks ettingan juda ko'p ravvin adabiyoti vujudga kelgan. XVIII asrdan diniy talablarni davrga moslashtirish, soddalash-tirish va yengillashtirish harakatlari avj oldi.

Iudaizmning diniy yozuvlari 2 qismidan: muqaddas sanalmish Tavrot va Talmuddan iborat. 5 ta kitobdan iborat Tavrot eramizdan avvalgi 1-ming yillik ichida shakllangan bo'lib, uni sharhlash natijasida avval Mishna, keyincalik Gemara paydo bo'lgan. Mishna og'zaki aytilgan Toraning yozma to'plamidir, Mishna 6 bolimdan iborat bolib, huquq, qishloq xo'jaligi, bayramlar, ayollar, iloh, tarix, falsafa kabi masalalarni o'z ichiga olgan. Gemara qismida esa Mishnaga izoh va sharh beriladi. Mishna va Gemara birikuvidan risolalar to'plami Talmud tarkib tobgan. Talmud yahudiy jamoalarida, oilaviy hayot, diniy taqiqlar fuqarolik munosabatlari, urf-odat, marosim me'yorlari, ijozatlar va boshqalarga oid ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Talmudning Ierusalim (Isroil) va Vavilon nushasi mavjud.

Yaxudiylik (iudaizm) dinining asoschisi Allohning payg'ambari xazrat Muso alayhissalomdir (miloddan avvalgi 1666-1546 yillar.). Iuda «shukur» degan ma'noni beradi. Yahudiylik (iudaizm) dinining nomi esa qabilaning ilk boshlig'i bo'lgan Yahudo fluda) nomidan kelib chiqqan degan qarash bor. Yaxudiylikning ta'lim berishicha, Xudo Yah va Isroil xalqi bilan ikki tomonlama shartnomaga «ahd» - orqali bog'langan bo'lib, shunga ko'ra yahudiylar o'zlarini «Xudo» tomonidan tanlab olingan mumtoz xalqmiz, bu ahd bo'yicha Xudo falastin va uning atrofidagi barcha yerlarni bizga berishga va'da qilgan, bu yerlar bizga «va'da qilingan erd ir» degan e'tiqodda yashab kelganlar va hozir ham ana shu aqidani mahkam tutib,tinmay kurash olib boradi. Yahudiylik dini Muso alayhissalomga 80 yosh paytlarida

(tahminan m.av. 1586 yilda) xudo Yahve tomonidan vahiy etilgan (Besh kitobi-tavrot)dir. Yahudiylikning barcha qonun-qoidalari Musoga nozil qilingan Tavrotda mufassal bayon qilingan. Bundan tashqari, Tavrotning tafsiri va yahudiylik dinining aqida va marosimlari yozilgan Talmud kitobi va Muqarras zabur (Pslatir) kitobi ham bu dinning muqaddas kitoblari hisoblanadi.


Yahudiylik ta'limotiga kora, Muso payg'ambar Tur tog'ida Yahve bilan uchrashadi va shu kuni Yagona Xudo tomonidan mazkur din asosini tashkil etgan 10 ta nasihatdan iborat 10 ta lavha tushiriladi. Ushbu nasihatlar Tavrot kitobidan o'rin olgan bo'lib, yahudiylarning ularga qat'iy rioya qilishlari shart qilib belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Yahveni yagona iloh deb bilish va undan boshqaga sig'inmaslik;
2. Turli but, sanam va rasmlar taqiqlangan dolib, ularga sig'inmaslik;
3. Behudaga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kuniga hurmat bilan qarash va uni Xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onaga hurmat bajo qilish;
6. Nohaq odam o'ldirishdan, qotillikdan tiyilish;
7. Oilaviy munosabatlarda halol bo'lismish, zino qilmamaslik;
8. O'zgalar molini o'g'irlamaslik;
9. Yolg'on gapirmaslik, yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga(mulkiga, ayoliga) ko'z olaytirmaslik.

Iudaizm monoteistik dinlardan bo'lib, asosiy aqidalari orasida eng muhim - yagona xudo bo'l mish Yaxvega e'tiqod qilishdir. Yahudiylikda qadim zamonlardan boshlab xilma-xil mazhablar va oqimlar vujudga kelgan, ular o'rtasida keskin kurash borgan. Miloddah avvalgi II asrdan milodning 23-yiligacha farisey, saddukey, yessey, qumronlar jamoasi kabi oqimlar vujudga

kelgan. Ortodoksal yahudiylilik bilan bu mazhablar o'rtasida kurash borgan. Milodiy I-II asrlardagi bu kabi kurashlar xristian dinining shakllanishiga yo'l ochib berdi.

- Mazkur amrlar yahudiylarning muqaddas manbasi hisoblangan Tavrot (Tora) kitobida keltirilgan. Avrot Musoga tegishli bo'lgan besh kitobni o'z ichiga oladi:



Talmud

«Yahudiylar falastindan Assuriya quvg'inlari paytida – mil. avv. VIII-VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Erondan O'rta Osiyoga esa taxminan mil.av. V-III asrlarida ko'chib kelgan. Samarqand va Buxoroda yahudiylilik diniga e'tiqod qiluvchi yahudiylar yashay boshlaganlar. Markaziy Osiyoda yashayotgan (hozirgi kunda kam qolgan) yahudiy dindorlari orasida asosan ortodoksal shakldagi iudaizm mavjud va ular shartli ravishda etnik ko'rinishlar tartibiga muvofiq to'rt xil: yevropalik, buxoro, gruzin, tog'li yoki tat yahudiylariga bo'linadi.

Yahudiylilik diniga e'tiqod qiluvchilar soni 100 million nafarga yaqinni tashkil etadi, ularning uchdan bir qismi AQSH dadir»<sup>23</sup>.

### 2.3. Vedalar va veda dinlari

**Vedalar va veda dinlari** — mil.av. 1-ming yillikda Hindistonda vujudga kelgan din. Hinduizm dini shakllanishining dastlabki bosqichi Veda dinlarida dastlab tabiat kuchlari va

<sup>23</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yahudiylilik>

hodisalari antropomorfik (inson qiyofasiga o'xshatib) **tasavvur etilgan**.<sup>24</sup> Veda dinlarida yaxshi va yomon xudolar, ruxlar haqidagi tasavvurlar asosiy o'rinni egalladi. Unda politeizm (ko'pxudolik) hukmron bo'lgan. Veda dinlarida sig'inish marosimlari asosan xudolarga qurbanlik qilish, ovqat, hayvonlar keltirish va turli urf-odatlarni bajarishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik kohinlarning alohida qatlami — brahmanlar ajralib chiqib, diniy marosimlar tizimi murakkablashdi. Veda dinlarining keyingi evolyutsiyasi natijasida brahmanizm vujudga keldi». <sup>25</sup> Vedalar «Mahobxarata» (ayniqsa uning»Bahagavadgita» va «Ramayana» qismlari) va boshqalar. Hinduizmda Xudo-Brahma, din payg'ambari- Krishna, Halokat farishtasi- Shiva hisoblanadi.

Veda tarkibiga turli davrlarda yozilganbir necha kitoblar kirgan bo'lib, vedalar 4 yirik toplamni tashkil etgan:

«**Rigveda** (madxiyalar vedasi)- U dastlab qadimgi Rigveda, ya'ni madhiyalar to'plami shaklida bo'lib, 10 ming she'rdan iborat, 1028 madhiyani o'zida jamlagan. Bu madhiyalarda diniy tasavvurlar, jumladan, politeistik – ko'pxudolikka oid qarashlar o'z ifodasini topgan. Ularda kuylangan Indra – momaqaldiroq va oriyarlari dushmanlardan himoya qiluvchi xudo, Surya – quyosh xudosi, Dyaus – falaklar xudosi sifatida gavdalanadi.

Vedalarning Rigvedadan keyin shakllangan manbalari **Samoveda, Axcharveda** va **Yachkurvedadir**. Vedalar olamning kelib chiqishi, birinchi javhar – substansiya, uning asosida turli jarayonlar, xudolar va butun olamning vujudga kelishi haqida sodda tasavvurlarni ifoda etadi»<sup>26</sup>.

Vedalarda yer xudolari, osmon xudolari, ayol xudolar, quyosh xudolari, havo xudolari kabi xudolarga atab turli qo'shiq va madhiyalar bayon etilgan.

<sup>24</sup> <https://milliycha.uz/ru/vedalar/>

<sup>25</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Veda\\_dini](https://uz.wikipedia.org/wiki/Veda_dini)

<sup>26</sup> <https://oyina.uz/uz/teahause/1460>

**Osmoн xudolari.** Ularga turli osmonlarni birlashtirib turuvchi xudolar -Lyaus, Varuna, Indra kabilar kiradi. Biroq Varuna keyinchalik suv va dengizlar xudosi sifatida ta'riflangan.

**Quyosh xydolari.** Rigvedada bayon etilishicha, quyosh energiyasining turlicha namoyon bolishidan besh xudo yuzaga kelgan, ya'ni: Mitra, Surya, Pushan, Vishnu, Savitri. Ularning eng qadimiysi Mitra (do'st degan ma'noni anglatadi)dir. Surya quyoshning eng yorqin ko'rinishidir. Savitri esa quyoshning quvvat beruvchi kuchi deb hisoblanadi. Pushan muruvvat timsoli bo'lib, mahsuldorlikni o'zida namoyon qiladi. Vishnu vedalarda avval zikr qilingan va keyinchalik unutilgan, xozirda faqat Hindistonda ulug'lanadi.

**Yer xudolari.** yerda quyoshning, havoda chaqmoqning, ulug'lanishi

**Hinduizm** - dunyoda keng tarqalgan dinlardan biri bo'lib, yer ustida olovning timsoli bo'l mish Agni haqidagi afsonalar Hindistondan tashqarida vujudga kelgan bo'lib, hinduizm dinida Yer xudolarining eng ulug'idir. Unga e'tiqod qiluvchilar soni 780 million kishini tashkil qiladi. Shulardan 83% i Hindistonda yashaydi, bundan tashqari, Pokiston, Bangladej Nepal, Shri Lanka, shuningdek janubiy Afrika, sharqiy Osiyoda ham uchraydi. Milodning 1-ming yilligida shakllangan hinduiylik dini Veda dini, braxmanizm rivojlanishi va unga keyinchalik xalq e'tiqodi, urf-odatlar, marosimlari singib ketishi jarayonida paydo bo'lgan. O'rta asrlarda hukmron mafkuraga aylangan. Hinduizm eramizning VI asrida Hindistonda vujudga kelgan edi. Hinduizm eramizdan oldin mavjud bo'lgan braxmanizm, vedizm, totemizm, animizm kabi dinlar evolyutsiyasi natijasida shakllandi. Hinduizm turli diniy qarashlar, mahalliy diniy e'tiqod, urf-odatlar va marosimlar hamda qarashlarning murakkab qorishuvidan paydo bo'lib, urug'-qabila dinlari elementlarini, buddizm,

sikhizm, jaynizmning asosiy g'oyalarini o'zlashtirib olgan. Hinduizm politeistik din bo'lib, unda ko'p xudolilik (politeizm) elementlari saqlanib qolgan. Dindorlar tasavvurida bosh xudo Braxman koinotning ijodkori va yaratuvchisidir. Bundan tashqari hindlar Vishnu va Shiva degan xudolarga ham e'tiqod qiladiar.

Hindistonda shivaga siginishning o'n uchta asosiy oqimlari mavjud. Shivachilar orasida asosiy oqim sifatida uch tayoqlilar, ya'ni tridandinalar va smartlar, ya'ni «haqqoniy rivoyatlar»ni misol qilib keltirishimiz mumkin. Tridandinalar tarkidunyochilikda hayot kechiradilar. Smartlarning bir qismi rohiblikda, yana bir qismi esa dunyoviylik holatida oddiy insonlar kabi yashaydilar. Braxmanlar ulardan ulug' sanalgan va ushbu oqimlarning har ikkalasi ham faqat braxmanlarnigina o'z saflariga qabul qilganlar. Yana bir oqim, dandilar, ya'ni zohidlar oriylargacha xos bo'limgan ba'zi marosimlari bilan qolganlaridan farq qiladilar. Masalan, oqimga kirish paytida oyoqlarining pastki qismidan qon chiqarganlar.



Mayitlarni yerga dafn qilganlar yoki muqaddas daryolardan biriga topshirganlar. Shivaizmning katta oqimlaridan yana biri

lingachilar bo'lib, ular bo'yinlariga linga (silindr shaklidagi tosh) osib yuradilar. Kimdir uni oltin, kumush qutida olib yuradi. Ibodat vaqtida uning qudratiga ishongan holda chap qo'llarida tutib turadilar. Lingachilar bir necha urug'lardan iborat, ammo ular o'zaro qudachilik qilmaydilar.

Har bir kasta o'z tuz'ilishiga ko'ra, muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga chaqirilgan. Brahmanlar og'izdan yaratilgan. Ular Vedalarni o'rganadilar va yosh brahmanlarga muqaddas matnlarni o'rgatadilar. Bundan tashqari, ularning vazifalariga o'zlari va boshqalar uchun qurbanlik qilish, sadaqa olish va tarqatish kiradi.

**Brahmanlar** - bu o'z qo'lida diniy va maxfiy bilim sohasini jamlagan ruhoniylar.

**Kshatriyalar** ularning qo'llaridan yasalgan. Ular o'z fuqarolarini himoya qilishlari, Vedalarni o'rganishlari, sadaqa va qurbanliklar tarqatishlari kerak. Kshatriyalar- jangchilar bo'lib, knyazlar va podshohlar shu tabaqadan chiqqan.

**Vaishyalar** sonlardan yaratilgan. Vedalarni o'rganish, sadaqa berish va qurbanlik qilishdan tashqari, ular savdo, sudxo'rlik va dehqonchilik bilan shug'ullanishlari kerak. Bular dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar - ya'ni erkin aholi.

Uchta zodagon kasta ham "ikki marta tug'ilgan" deb atalgan.

**Shudralar** Brahma oyoqlaridan yaratilgan. Ularning vazifasi har uchala varnaga shubhasiz xizmat qilishdir. Shudralar jamiyatning a'zosi xisoblanmas, ularning haq-huquqlari cheklangan edi.



Braxman



Kshatry

Hinduizmga boshqa din  
vakili yakka tartibda  
qabul qilinmaydi. Bunga  
kasta-varna tizimi  
to'sqinlik qildi



Vayshiy



Shudra

HINDUİZM  
İNSONLARNING  
TENGSIZLIGINI  
OQLAYDÍ VA  
ABADIYLASHTIRADI

Braxmanizm veda dinlarining bir shahobchasi hisoblanadi. Zamonlar osha veda qo'shiqlaridan oddiy xalq, hatto ruhoniylar ham uzoqlashib bordi. Chunki ular hali o'zgarishga uchramay, muqaddas til va matnlarning paydo bo'lishi bunga sabab bo'ldi . Hatto, bu tilni o'rganish uchun kishilar astoydil kirishdilar va guruhlar tuzib, buning uchun mahsus vaqt ajratdilar. Hayotini ibodat qilish, murakkab marosimlarni o'tkazish, ilohiyat ilmini o'rganish va xalq hayotini boshqarishga bag'ishlagan braxmanlar kastasi (tabaqasi) shu tariqa vujudga keldi. Ilohiy tilni o'zgartirib bo'lmaslik-dinga hos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biridir. Xuddi shunday vaziyat, ya'ni bir tilning eskirib, ishlatilmay qolishi uning muqaddas tilga aylanib, braxmanizmning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillardan biri bo'ldi

Vedalar (er.av. 2 minginchchi yillar o'rtasidan boshlab paydo bo'lgan). Vedalar - «bilimlar» demakdir. Vedalar:

- 1) gimn va duolar;
- 2) marosimlarda ijro etiladigan madhiya qo'shiqlari;
- 3) qurbanlikka oid qoidalar;

4) yovuz kuchlarga qarshi bo'lgan duolar va afsunlar.

Upanishadalarga - «sirli ta'limotlar» m.av. I minginchi yillar boshlarida paydo bo'lgan ahloqiy risolalar: «Mahabharata» va «Ramayana» dostonlari, turli hikmatli hadislar kiradi.

## 2.4. Konfutsizm

Konfutsiy (Kun Szi mil. av. 551- 479) . Konfutsiy bir necha yillar davomida turli podshohlar qo'l ostida ishlagandan keyin yoshlarga ta'lim bergan.

Konfutsiyning falsafiy qarashlari. Konfutsiy komil inson (szyuns-zi ya'ni yuksak ma'naviyatli inson ) haqidagi g'oyani yaratdi. Uning fikricha Szyun-szi, ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak: insoniylik va mas'uliyat. Ajdodlar oldidagi qarzni his qilish g'oyaning asl mazmunini tashkil etadi. Komil inson haqida Konfutsiy, eng avvalo, ishonchilik va fidoyilikni nazarda tutadi. Bu yo'lda u tinimsiz, o'zini ayamasdan mehnat qilish, hukmdori, o'z ota-onasi va barcha o'zidan katta insonlarga birday xizmat qilishi va doimo komillik sari intilishi zarur.Konfutsiyning falsafiy, axloqiy qarashlarini o'rganish katta ahamiyatga egadir. Konfutsiylik ta'limotida dunyoqarash masalalariga emas, balki ijtimoiy axloq muammolariga ko'proq o'rin berilgan. Unda «axloqli kishi» bo'lish, donishmandlardan ta'lim olish haqidagi g'oyalar ilgari suriladi. Bu ta'limotiga ko'ra jamiyatda hukm surgan «jen» insonparvarlikka rioya qilmog'i lozim. Axloq masalasi konfutsychilikning ilk ko'rinishida birinchi o'ringa qo'yilgan, diniy e'tiqod esa ikkinchi darajali hisoblangan. Diniy mavzularga, turli aqidalarga Konfutsiy ancha sovuqqon munosabatda bo'lgan, hatto ba'zi o'rirlarda ularni inkor qilgan. «O'lim asli nima?» - degan savolga, u: «Biz tiriklik nimaligini bilmaymizu, o'limni qayerdan bilamiz», - deb javob bergen.

Ammo, qadimdan davom etib kelayotgan diniy qadriyatlar, urf-odatlarga Konfutsiy hurmat bilan munosabatda bo'lganligi manbalardan ma'lum.

Konfutsiyning yana bir ta'limoti- «Sya» bo'lib, ota-onaga munosib bo'lismish, ukaning akaga, kichikning kattaga hurmati insoniylikning asosidir degan g'oyaga asoslangan. Kofutsiyning fikricha, inson uchun Syaodan muhimroq narsa yo'q va inson aqli, ota-onasini boqishga yaroqli bolishi karak. Odamlar uylarida itlar va otlarni ham boqadilar. Ammo, ota-onalariga ortiq ehtirom korsatmasalar, hayvon boqishlaridan farqi qolmaydi.

Keyinchalik bu ta'limotlar yaratilib, u hamma klassik qonunlari 13 kitobda, sharhi esa 40 jidda bayon qilingan. Bularning eng ahamiyatli qismi 9 ta kitobdan iborat. Bular: «Snshu» (To'rt kitob) va «Utszin» (Besh kitob)dir. Bu qonunlar ham diniy «muqaddas», ham dunyoviy donishmandlik manbai hisoblanadi.

**Oila va nikoh tushunchasi.** Konfutsiychilik Xitoyda birinchi o'rinda oila masalalariga katta ta'sir korsatdi va xozirda ham o'z aktualligini yo'qotmagan. Mazkur qadimiyligi ta'limot g'oyasiga kora, oila nikohdan, yoshlarning kelishuv bilangina boshlanmay, balki hayotiy ehtiyojlar uchun nikoh amalga oshiriladi. Konfutsiychilar urf-odatlariga ko'ra ota-onaga ehtirom ular vafotidan keyin ham davom etishi shart. Farzand ajdodlari ruhi oldida qilishlari kerak bo'lgan barcha marosimlarni o'z o'rniда, muntazam ravishda bajarishlari lozim deb hisoblanadi.

**Konfutsiychilikning Xitoyda tarqalishi.** Garchi konfutsiychilar o'z ta'limotlarini qadimgi Chjou aqidalari asosiga qurgan bo'lsalarda, mazkur aqidalarga o'z munosabatlari, o'z fikri, qarashlari bo'lib, har bir masala yuzasidan o'z xulosalarini ham berib bayon qilar edilar. Aynan shu narsa konfutsiychilikning

muvaffaqiyatga erishishiga va zamonlar osha o'z kuchini saqlab qolganiga sabab bo'ldi. Muvaffaqiyatlarning yana bir sababi-o'zları foydalangan qadimgi kitoblar, she'rlar, risolalarni yig'ib shogirdlarga o'rgatgan va qoldirganliklaridir. Bu ishning asosiy qismini Konfutsiyning shaxsan o'zi bajargani edi. U turli podshohliklarda mavjud bo'lgan uch mingdan ortiq qadimiy qo'shiqlar, rivoyatlar, she'rlar, yozuvlarni jamlab, o'rganib chiqqan va qayta tahrir qilgan edi. Konfutsiy va uning shogirdlari tomonidan tahrir qilingan asarlar keyinchalik Konfutsiychilikning asosiy manbalariga aylandi.

Konfutsiy ta'limoti mil.av. IV-III asrlarga kelib Xitoyda ancha keng tarqaldi va katta ta'sir doirasiga ega bo'ldi. Mil.av. III-II asrlar (Xan sulolasi davri)ga kelib Konfutsiychilik hatto davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Xan podsholari Konfutsiy ta'limotini to'liq qabul qilmagan bo'lsalarda, uning qudratini, jamiyatdagi obro'si va mavqeini tan olgan holda undan davlat boshqaruvida foydalanganlar.

### **Daosizm,**

Xitoyda konfutsiychilik bilan deyarli bir vaqtda, mil. av. birinchi ming yillikning o'rtalarida daosizm falsafiy ta'limoti ham paydo bo'ldi. Bu ta'limot dastlab mavhum xarakterdagi, din bilan hech qanday aloqadorligi bo'limgan oqim sifatida kirib kelgan.

Daosizm tarafdorlari ham konfutsiychilar kabi o'z zamonalaridagi ba'zi harakatlarga qarshi bolganlar. Ular tinclik tarafdori bo'libham hukmdorlar orasidagi tinimsiz urushlarni qoralar edilar. Mil.av. IV-V asrlarga kelib Daosizm targ'ibotchilarining nazariy asarlari paydo bo'la boshladи. Bunday asarlarda ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalar daosizm uchun konfutsiychilikdagi kabi muhim sanalmadi. Biroq daosizm vakillari ilk bor koinot, borliq, tabiat haqidagi dunyoviy tushunchalarni ishlab chiqa boshladilar. Xitoydagи o'z davrining ilmiy markazlaridan

Szis falsafa akademiyasida daosizm nazariyotchilari: Shen Dao, Tyan Pen, Xuan Yuan Sun Szyan, In Ven va boshqalar to'plangan bo'lib, ular inson va uni o'rab turgan olam, borliq, koinot haqida doimiy bahs-munozaralar olib borganlar va risolalar yozganlar. Bunday risolalar xozirgi kungacha saqlanmagan, biroq ba'zi manbalar orqali daosizmning asosiy g'oyalari haqida ma'lumotlar yetib kelgan. «Daotetsizm» risolasi fikrimizning dalili bo'la ojadi. Mazkur risola muallifi Lao-Szi bo'lib, uning hayoti haqidagi ma'lumotlar juda kam, borlari ham noaniq. Afsonalarga qaraganda, Lao-Szi onasining qornida bir necha o'n yil yashab, keksa donishmand holida dunyoga kelganligi uchun uni Lao-Szi- («Keksa donishmand», »Qari bola») deb atadilar. Lao-Szi mil.av.VII asrda tug'ilgan, Konfutsiyning zamondoshi hisoblanadi. Qadimgi Xitoy yodgorliklarida Konfutsiyning Lao-Szi bilan uchrashganligi, uning donoligidan hayratga tushgani va uni ajdaho(xitoyliklar uchun muqaddas sanaladi) deb atagani haqida rivoyatlar keltirilgan.



Lao-Szi uchun «Ulug' Dao» tabiat, jamiyat va borliqning asosi «hisoblanadi. Dao (dao, tao, yo'l, haqiqat demakdir) haqidagi ta'limot Konfutsiychilikda bo'lgan. Chunki Dao to'g'risidagi fikrlar konfutsiychilik va daochilik shakllanishidan ancha oldin mavjud bo'lib, har ikkala ta'limotning umumiy jihatlari ko'p. Konfutsiy Daoni jamiyatda muayyan tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlarni mujassam etgan shaxs deb hisoblagan.

Dao- konfutsiychilik kabi ijtimoiy me'yorlar, tartib-intizom va axloq-odobning yig'indisidir. Daosizmga ko'ra ibtido intihoning o'zagidir. Daoni hech kim yaratmagan, barcha narsalar daodan kelib chiqqan va unga qaytadi degan ustuvor g'oya mavjud. Dao hech kimga ko'rinxmaydi, sezgi a'zolari uni ilg'ay olmaydi degan fikr ilgari suriladi. Ta'limotga asosan, nimani ko'rish, sezish, anglash eshitish, mumkin bo'lsa, u Dao emas deyilgan.

Umumiy ma'noda dao- butun borliq demakdir. Milodiy ikkinchi asrga kelib, daosizm dinida yangi g'oyaviy jihatdan bir-biriga o'xshash sektalar paydo bo'ldi. Ular: «Taypindao» («Buyuk tenglik ta'limoti»)-asoschisi Cjan Szue va «Udoumidao» («Besh dao guruch ta'limoti») - asoschisi mashhur daochi Cjan Dao Lin bo'lib, u butun daosizm ibodatxonasining ham asoschisi hisoblanadi. Ular qadimgi Xitoy jamiyatida katta ta'sir doirasiga ega bo'lgan. Ushbu sektalar tarixda adolatli jamiyat tarafдорлари sifatida hukmron tabaqalarning adolatsizligiga qarshi ko'plab siyosiy kurashlarga, qo'zg'olonlarga boshchilik qilganlar.

XX asrning boshlarida, Xitoydagи siyosiy vaziyatida turli daosizm sektalariga qarshi kurash boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmida daosizm tarafдорлари juda ozchilikni tashkil qilardi. Ushbu kichik guruuhlar ruhoniylar, targ'ibotchilar va bashoratchilarni o'z ichiga olgan.

**Sikxizm** - (sikx-o'quvchi demakdir) XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Shimoli-G'arbiy Hindistonda hinduizmga qarshi yo'nalish sifatida paydo bo'lgan. U mayda hunarmand va savdogarlarning feodal zulm va jamiyatning tabaqalanishiga qarshiligidini o'zida aks ettirgan.

XVI asrga kelib sikxlar jamoasiga dehqonlar ham qo'shila boshlaganlar va bu antifeodal harakatni quvvatlaganlar. Sikxizm monoteistik din hisoblanib, jamoa bo'lib birgalikda ibodat qilishni inkor etadi, ruhoniylilikni tan olmaydi. Moddiy olamdag'i barcha hodisalar sikxizm ta'limoticha, yagona xudo - oliv kuchning ijodi, insonlar esa xudo oldida teng, deb hisoblanadi. Bu din ta'limoti «Grantx Sohib» (Janob kitob) nomli kitobda izohlangan. Sikxizm ta'limotiga e'tiqod qiladiganlar hozirgi kunda kam uchraydi.

**Sintoizm**- (sinto-xudolar yo'li demakdir). Yaponiyada keng tarqalgan, an'anaviy milliy xarakterdagi dinlardan biri. Bu din ilk feodalizm davrida (VI-VII asrlar) rivojlangan va urug'chilik, qabilachilikka xos animistik va shomonlik marosimlari yig'indisidan iborat holda vujudga kelgan. Sintoizm ta'limotida Yaponiyada joriy etilgan ijtimoiy-siyosiy tartibning mustah-kamligi va O'zgarmasligiga, quyosh tangrisi-Amaterasuning naslidan deb hisoblangan yapon imperatori-Mikado hokimiyatining ilohiyligiga ishonish, imperator ajdodlarini muqaddas deb tan olish, ajdodlar sharafiga tayinlangan oila-urug' marosimlarini bajarish kabilar asosiy o'r'in egallaydi. Sintoizmning puxta ishlangan aqidalari yo'q. Diniy marosimlarni kannushlar deb ataladigan alohida kohinlar ijro etadi. Kannushlik vazifasi nasldan naslga o'tadi. Hozirgi vaqtida yaponlarning yarmidan ko'pi sintoizm bilan buddizmni teng ko'rib, har ikkalasiga e'tiqod qiladilar; hayotiy marosimlar-tug'ilish, nikoh kabilar sintoizm

ibodatxonalarida bajarilsa, dafn etish va marhumni xotirlash marosimlari budda ibodatxonalarida o'tkaziladi.

Sintoizm bilan buddaviylikning bir-biriga ta'siri kuchli. Sintoistlar buddaviylik dini uchun ibodatxonalar qurish bilan cheklanmadilar, balki o'rta asrlarga kelib sinto-budda qo'shma ibodatxonalari vujudga kela boshlagan. Sintoizmning o'ziga xos xususiyati o'zi targ'ib qilgan xudoga sig'inish, boshqa millat kishilarining bu dinga sig'inishini man etishdan iborat.

Sintoistlarning muqaddas kitobi bo'limgan, ammo ibodatxonalarda yozilgan diniy afsonalar uchrab turadi. VIII asrga kelib og'zaki diniy afsonalar asosida «Kodziki» (Qadimgi ishlar to'g'risida yozuvlar) nomli diniy kitob paydo bo'l. Unda asosan imperatorlar sulolasining kelib chiqishi ilohiylashtirilgan. VIII-X asrlarda sig'inish qoidalari ishlab chiqilgan va xudolar nomi ro'yxatga olingan edi.

**Zardushtiylik dinining vujudga kelishi.** Zardushtiylik Yer yuzidagi eng qadimiy dinlardan biridir. Zardushtiylik paydo bo'lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya'ni quzdorlik davri endi paydo bo'layotgan davr edi. U urug'-qabilachilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quzdorlarga, zolim va mazlumlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng avval O'rta Osiyo, so'ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi.

Zardusht Spitama urug'ining raisi Purushasp xonadonida tug'ilgan. Onasining ismi Dug'dova. 15 yoshgacha bo'lgan davri tengdoshlari qatorida o'zin-kulgu bilan emas, balki mashxur donishmand Barzin Kuras qo'lida tahsil oldi. Ustozidan diniy qonunlar, tabiatshunoslik, voizlik fanlaridan bilim oladi, harbiy hunar egallaydi.<sup>16</sup> yoshida Turon-Eron janggida ishtiroy etadi. <sup>19</sup> yoshida esa yakka tangrini kashf etish umidida Sablon tog'iga chiqib ketadi. Zardusht 20 yil g'orda yashaydi.

Rivoyatlarga ko'ra, Zardusht (bu vaqtda u 40 toshga to'lган edi) Navruz kunlarining birida kohinlar bilan birga bayram uchun muqaddas ichimlik-»Hum» tayyorlashga kirishishadi. Erta tongda u suv olish uchun daryoga boradi va qirg'oqqa tushadi. Suv olib bo'lgach ko'ziga qirg'oqda turgan porloq hilqat-»Vohumana»ni ko'radi. Vohumana uni sehrli nuriga ergashtirib, ezgu va ulug' xudo Axuramazda xuzuriga olib boradi.

Axuramazda o'zining butun borliqni yaratgan xudo ekanı xaqidgi habarni bildirish uchun odamlar orasidan uni tanlaganini aytadi. Shu vaqtdan boshlab u Zardushtiylik dinining payg'ambariga aylanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda birinchi bor muqaddas olov-»Ozarhurra»(Airyanem-Vaeja)da yoqilgani haqida habar berilgan.

Avestoning haqiqiy vatani qayer? -degan savolga olimlar turlicha dalillarni keltirishgan. Avestoning qadimiy pahlaviy tilidagi yozuvlari, uning vatani Eron bo'lishi mumkin degan fikrlarni ham paydo qilgani rost. Qadimiy pahlaviy tilida «Zardusht» so'zi «Magupta» deb atalgan. Pahlaviy tilidagi yodgor-liklarni arab tiliga tarjima qilgan olimlar uni «ma'jus» shaklida qollagan. Natijada o'rta asrlardan beri Zardusht-Ma'jus, Zardush-tiylik - Ma'jusiylik sifatida tanilgan. Avestoda Zardushtiylikning vatani Xorazm ekanligiga ishora beruvchi bir qancha dalillar mavjud bo'lib, unda qayd etilgan «Airyanem - Vaeja»ning geo-grafik va iqlimiyl tasnifi Xorazmnikiga o'xshashligi, Axura Mazda tomonidan yaratilgan «Barakot va najot» sohibi bo'lgan bir qator qadimiy mamlakatlarning nomlari yozilgani va ularning eng birinchisi, «odamlar va chorva mollariga mo'l «Sug'd»(So'g'd), keyin «qudratli va muqaddas Mauru»(Marv), yana biri «baland kotarilgan bayroqlar mamlakati» «Baxdi» (Baqtriya) haqida bataf-sil bayon etilganlidir. So'nggi tadqiqot xulosalariga qaraganda, O'rta

Osiyo, xususan Xorazm zardushtiylik vatani bo'lib, u O'rta Osiyo, Eron, , Ozarbayjon, Afg'oniston hamda Yaqin va O'rta Sharqning bir necha mamlakatlarida tarqalgan edi. Avestoda ko'chmanchilik va dehqonchilik hayot tarziga nisbatan qarashlarda qarama-qarshilik ko'zga tashlanadi: ko'chmanchilikka barcha yovuzliklarning ibtidosi deb qaraladi va u qoralanadi. Dehqonchilik esaezgulik, toqchilik ramzi sifatida rag'batlantiriladi. Zardushtiylikda dastlab to'rt unsur (tuproq, suv, havo va olov) muqaddas sanalgan. Keyinchalik zardustiylar hayot tarzida ulardan faqat olov muqaddasligi saqlanib qolgan. Olovga gunohlardan tozalovchi sehrli kuch sifatida sig'inilgan. Shu sabab zardushtiyarlarni olovparast, otashparastlar deb hisoblashadi. Ularda murdani tuproqqa ko'mish yoki kuydirish taqiqlangan.

Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosida qurilgani yotadi: ya'ni, ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim ortasida abadiy kurash davom etadi. Yaxshilik xudosi-Axura Mazda va yovuzlik xudosi Aximan timsolida ifodalanadi. Axura Mazda insonlarni ezgu ishlarga chaqirib, ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishni buyuradi.

Amesha Spenta-Abadiy ruhlar, yeru osmonni yaratgan deyiladi ta'limotda.

Xshatra Vairya- osmonni yaratgan

Armati-yerni yaratgan.

Xaurva Tat- suvni yaratgan

Amere Tat-O'simlik dunyosini yaratgan

Bohu Mana-ilohiy sigirni yaratgan

Asha Vahishta-olovni yaratgan

Zardushtiylik dinida iymon asoslari: **Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal.**

VII asrda islom dinining paydo bo'lishi va VIII asrda O'rta Osiyoga kirib kelishiga qadar bu yerda politeizm hukmron bolgan. Islom tarixida bu davr johiliya davri deb ataladi. Shu bilan birga mahalliy xalq zardushtiylik diniga, ya'ni olovga sig'inib kelishgan. Buni jumladan arxeologik tadqiqotlar natijasidan ham korish mumkin. Hozirgi kunda qator mamlakatlarda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud. Ular Hindistonning Mumbay, Pokiston, Shri lanka, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Eronning ba'zi viloyatlarida saqlanib qolgan. Eron Islom Respublikaida zardushtiylik diniga e'tiqod qilish qonunan ruxsat berilgan. Mumbayda zardushtiylarning madaniy markazi - Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi. 1960 yilda Eron poytaxti Tehronda zardushtiylarning I umumjahon Kongressi o'tkazildi. Keyingi Kongress Mumbayda o'tkazildi.

**Avesto va uning tarkibiy qismlari.** Avesto zardushtiylarning muqaddas kitobi va asosiy manbasi hisoblanadi. Ba'zi manbalarda uning Apastak, Ovusto, Abisto, Avasto kabi shakllari ham ishlatilgan. Avesto O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarning islomgacha davrdagi diniy qarashlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, olam to'g'risidagi tasavvurlar, urf-odatlar, ma'naviy mada-niyatini o'rganishda muhim va yagona manba bolib hisoblanadi. Uning tarkibidagi ma'lumotlar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda yetkazib kelingan. Zardushtiylik dini rasmiy tan olinguniga qadar Avestoning bo'laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida og'zaki aytib yurilgan. Ushbu, Axura Mazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy habarlari deb hisoblangan bo'laklari turli duolar, madhiyalar sifatida asta-sekin yig'ilal boshlangan. Bular Zardushtning o'limidan keyin kitob holida jamlangan va «Avesto» deb nom olgan. Avesto- «o'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar» degan ma'noni anglatadi.

Bu qadimiy yozma manbaning to'liq matni bizgacha yetib kelmagan. Avesto haqida buyuk bobakalonimiz Abu Rayhon Beruniy shunday yozgan:»Yilnama kitoblarda yozilishicha: podshoh Doro ibn Doro xazinasida Avestoning 12 ming qoramol terisiga zarhal (tillo) harflar bilan bitilgan bir nushasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron etib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi».

Avesto-Videvdat, Yasna, Yasht, Kichik Avesto (Xo'rdak Avesto) deb nomlangan qismlaridan iborat. Avesto Zardushtiylikning muqaddas kitoblarining majmui bo'lib, tarkibida 4 ta kitobni jamlagan murakkab to'plam hisoblanadi. Ular orasida «Videvdat» (Devlarga qarshi qonun) boshqa qismlarga nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. Ushbu kitob Avestoning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi. U 22 bob bo'lib, boblari fragard deb nomlangan. Fragardlarning ma'nosi, vazifasi, uslubiy tuzilishi turlicha: birinchi fragard- odamlar yashaydigan barcha yurtlarni Axura Mazda qanday yaratgani to'g'risida bo'lib, ular orasida Xorazm, So'g'd, Marg'iyona, Balx va boshqalar bor. ikkinchi fragarnda Jamshid podsholigi- kasallik, o'lim, azob- uqubatlar bo'limgan zamon haqida, ya'ni insoniyatning oltin asri haqida gap boradi; Uchinchi fragard dehqonchilikning savobli sharofatlari haqida. Shuningdek, Videvdatning boshqa fragardlardan Zardusht bilan Axura Mazdaning savol-javobi va muloqlari ham o'r'in olgan.

### Nazorat savollari

1. Qanday dinlar milliy din hisblanadi?
2. Eng qadimiq milliy dinlar haqida nimalarni bilsiz?
3. Yahudiylikning muqaddas kitobi haqida gapirib bering
4. Konfutsiychilik ta'limotining asoschisi kim?

5. Veda dinlari va hinduiylik qachon paydo bo'lgan va ularning mohiyati nimada?

6. Zardushtiylik dini haqida ma'lumot bering

### III BOB. BUDDAVIYLIK DINI TARIXI VA ASOSIY G'OYALARI

#### REJA

1. Buddaviylikning vujjudga kelishi. Buddaviylik ta'limotida to'rt oliy haqiqat nazariysi

2. Buddaviylik ta'limotida axloq masalalari.

3. Buddizmning tarqalishi va mintaqaviy shakllari: xitoy buddizmi, lamaizm, yapon buddizmi.

4. Buddaviylikning muqaddas manbasi- Tripitakaning yaralishi tarixi

**Tayanch tushunchalar:** *din, ta'limot, maxayana, nirvana, dxarma, shakya, kosmologiya, mifologiya, falsafa, rohiblik, Tripitaka, meditatsiya,*

#### 3.1. Buddaviylikning vujjudga kelishi

Buddaviylik miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalarida Hindiston hududida shramanalar -jahongashta zohidlar orasida paydo bo'lgan. YUNESKO ning qaroriga ko'ra 1956 yilda buddizmning 2500 yilligini nishonlandi. Buddizm paydo bo'lishining shartli sanasi Buddha parinirvanaga kirgan vaqt-miloddan avvalgi 543 yil deb qabul qilingan. Uning vafot etgan yili miloddan avvalgi 430-350 yillarga to'g'ri keladi.

Buddanining hayoti va faoliyatini o'rganayotgan zamonaviy tadqiqotchilar orasida Buddanining miloddan avvalgi 486 yilda vafot etgani to'g'risidagi fikrlarni bildirishadi.

Buddaviylik dinining paydo bolishi Shahzoda Siddxartxa Gautama nomi bilan boglanadi. Otasi uni hayot qiyichiliklaridan, yomonlik-lardan asrash maqsadida tashqi olamdan uzib voyaga yetkazadi



O'g'il muxtasham hayot keciradi, go'zal sevgilisiga uylanadi, o'g'il farzand ko'rishadi. Ammo, buddaviylikning «Paliy qonunlari», «Buddacharita» bitiklarida yozib qoldirilgan «4 uchrashuv», uning hayotida qalbidagi katta ozgarishga sabab bo'ladi. Eng avvalo u juda qari cholni, keyin moxov kasaliga chalingan bemorni ko'radi. Shu tariqa u har bir insonnig intihosi bolgan qarilik va bemorlik bilan ilk bor yuzlashdi. Keyinroq, qashshoq, dunyoga qiziqishi yo'qolgan jahogashtani ko'rdi va bu ko'rganlari uni qattiq larzaga soldi. Shu ondan e'tiboran Gautama 29 yoshida insonlar taqdiriga haqida o'yga toladi va hayotning mazmunini topishga ahd qilib saroyni, oilasini, muxtasham hayotni tashlab chiqib ketadi. 35 yoshida chuqur fikrlashlari natijasida uning qalbida uyg'onish, nur, ma'rifat paydo bo'ladi va Budda, yani nurli degan nom oladi. 45 yoshigacha Buddha o'z «To'rt oliy haqiqat» to'g'risidagi ta'limotini targ'ib etish bilan mashg'ul boladi.

Budda, uning ta'limoti ilohiy vahiy emas, balki meditatsiya hamda shaxs ruhiyatini va barcha moddiylikni anglash orqali

vujudga kelganini ta'kidlardi. Ta'limot dogmat emas, balki uning natijasi insonning o'ziga bog'liq deydi. Buddha uning ta'limotini faqat o'z tajribasidan o'tkazib, ma'qul kelsagina qabul qilish kerakligini uqtirardi.

«Mening ta'limotimni shunchaki imon yoki hurmatim tufayli qabul qilmang. Bozordagi savdogar oltin olayotganda uning haqiqiyligiga ishonch hosil qilish uchun tekshirganidek (uni qizdiradi, eritadi, kesadi), mening ta'limotimni ham tekshirib ko'ring va uning haqiqatiga ishonch hosil qilgandan keyingina uni qabul qiling!».

2,5 yillik taraqqiyoti davomida buddavilik ta'limoti koplab e'tiqodlar va diniy marosimlarni oziga singdirib oldi. Buddaviylikka e'tiqod qiluvchilarning ayrimlari meditatsiya orqali olamni va o'zlikni anglashga intilsalar, boshqalari ezgu amallarga, yana birlari Buddaga sig'inishga ro'ju qo'yanlar. Ammo ular turlicha sig'insalarda, quyidagi yagona ta'limotga mansub edilar:

#### To'rt oliy xaqiqat:

1. Birinchi xaqiqat -dukkxa: azob-uqubat mavjud;
2. Ikkinci xaqiqat- samudaya: azob-uqubatning sababi mavjud;
3. Uchinchi xaqiqat- nirodxa: azob-uqubatdan qutilishning mavjudligi;
4. To'rtinchi xaqiqat- marga: azob-uqubatdan ozod bo'lish yo'lining mavjudligi.

### 3.2.Buddizm ta'limotida axloq masalalari.

Budda Shakyamuni o'zining ongida va xayotiy jarayonlarda bir necha yillik kuzatuvlari natijasida hayotida sodir bo'layotgan barcha azob-uqubatlarga insonning o'zi, uning hayotga, moddiy

boyliklarga bog'lanib qolganligi sababchi ekan, degan xulosaga keldi. Azob-uqubatlarga barham berish (nirvanaga kirish) va hayot aslida «qanday bo'lsa shundaligicha ko'rindigan» uyg'onish xolatiga kelish uchun har qanday bog'liqlik va illyuziyalardan voz kechish yani o'zini cheklash, «besh ilohiy amr» ga amal qilish va meditatsiya yordamida inson hayotiga salbiy ta'sir qiluvchi ishlardan tiyilish orqali erishish mumkin.

«Besh ilohiy amr» buddaviylar oldiga quyidagi taqiqlarni qo'yadi:

- Odam o'ldirish;
- O'g'irlik qilish;
- Faxsh ishlarini qilish;
- Yolg'on gapistish;
- Mast qiluvchi ichimliklar iste'mol qilish;

Budda «**xaloskorlikning ajoyib sakkiz yo'li**»ga amal qilish orqali azob-uqubatlardan qutulish mumkinligini ta'kidlagan. Budda ularni quyidagicha talqinetadi:

- **to'g'ri maslak** (dunyoqarash). «To'rt oliv haqiqat»ni bilish, idrok etish va unga ishonish;

- **to'g'ri maqsad**. Insonni halokatga olib boradigan salbiy hislar: ta'magirlik, nafs, hirs, badxulqlik, bag'ritoshlik hislardan xoli bo'lish, dunyoviy huzur-halovatdan xalos bo'lish, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar yetkazib qo'yishdan o'zini saqlashga intilish;

- **to'g'ri so'z**. Yolg'on, tuhmat, haqorat, manmanlikdan xoli bo'lish, befoyda gaplardan saqlanish;

- **to'g'ri sa'y-harakat** O'lim (qon to'kish), o'g'irlik, zinodan saqlanish, o'ziniki bo'limgan narsaga ko'z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik, o'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuygular va harakatlarni rivojlantirish;

- **to'g'ri turmush tarzi**. Noma'qul hayot tarzidan saqlanish, g'ayri ixtiyoriy harakatlarsiz, birovlarga ziyon yetkazmay yashash;

- **to'g'ri intilish**. Erishilgan muvaffaqiyatlarni rivojlantirish, xalos-korlik yo'lida yig'ilgan tajribani asrashga erishish yo'lida tinmay harakat qilish;

- **to'g'ri fikrlash** (diqqat-e'tibor). Tanaga, hissiyotga, ong va ruhiy holatlarga diqqat-e'tibor qaratish, ularning mohiyatini aniq belgilash, ehtiros va iztiroblarga chek qo'yish;

- **to'g'ri mulohaza** (o'z fikr-hayollariga cho'mish). Hissiy holatlarni tark etish, ko'tarinki, yuksak bilim va mantiqiy tafakkurga ega bo'lgan birinchi «bilish bosqichiga» qadam qo'yish, kundalik hayot tashvishlaridan qutulib, hayrat, zavq-shavq va quvonch olamida kezish». <sup>27</sup>

Buddizm ta'limoti asosan Meditatsiya ,Ahloq, Donolik kabi uch qismdan iborat:

**Meditatsiya-** bu to'g'ri tushunish; to'g'ri niyat qilish; to'g'ri o'zini tutish; to'g'ri anglash; to'g'ri harakat; to'g'ri muomala; to'g'ri fikrlash; to'g'ri gapirish demakdir.

**Ahloq normalari-** Buddha "Pancha Shila",ya'ni sankskritcha «5 tamoyil»dan iborat nasihatlar:

- Qotillikdan o'zini saqlash;
- O'g'irlikdan saqlanish;
- Gumrohlikdan saqlanish;
- Yolg'on gapirish, qalbaki narsalardan saqlanish;
- Mast qiluvchi vositalardan saqlanish;
- Tushdan keyin taomlanishdan saqlanish;
- O'yin - kulgudan o'zini tiyish;
- Zebu-ziynat, atir-upalardan tiyilish;<sup>28</sup>

<sup>27</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Buddaning\\_%E2%80%9Cto%E2%80%99rt\\_haqiqati%E2%80%9D](https://uz.wikipedia.org/wiki/Buddaning_%E2%80%9Cto%E2%80%99rt_haqiqati%E2%80%9D)

<sup>28</sup> <https://gigabaza.ru/doc/169592-p20.html>

**Donishmandlik:** bu buddaviylikning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunish.

Gautama vafotidan keyin buddaviylik ikki oqimga bo'l ninib ketdi, ular:

«Xinayana» (kichik g'ildirak); «Maxayana» (katta g'ildirak).

Ilk buddizmning **Xinayana** shaklidagi axloqi, asosan individual, hatto ma'lum ma'noda egoistik xarakterga ega: ya'ni har bir odam jamiyatda o'zini yaxshi tutishi uning o'zi uchun zarur, o'z karmasini yaxshi tomonlarini ko'payishi va oxirida nirvanaga erishish. Bu masalaga nisbatan munosabatning o'zgarishi shimoliy Hindistonda ta'limotning yangi yo'nalishi – maxayana buddizmi ni shakllanishi bilan o'zgardi.

**Maxayana** («Najotga erishishning keng yo'li») buddizmi o'z-o'zidan paydo bo'l magan. Ba'zi mutaxassislarining ta'kidlashicha, dastlabki, maxayana sutralari xinayananikidan qadimiylilikda, qolishmagan. Biroq asosiysi ularning qanchalik qadimiyligida emas, balki maxayana mustaqil ta'limot sifatida to'la shakllangan vaqtida qanday yangiliklar kiritilganligidadir. Ta'limotning yangiligi – bu uning dunyoviy hayotga yaqinlashishi va uni odamlarga yaqin va tushunarli dinga aylanishidir. Bunda kam sonli asosiy dindorlar uchun bo'lgan najotga erishish haqidagi ta'limot emas, balki aynan dinni dunyoviylikka yaqinlashtirish va bu bilan dindan uzoq bo'lgan odamlarni dinga yaqinlashishiga rag'batlantiradi. Masalan, dunyoviy kishining din yo'lidagi qilgan sadaqasi rohibning xizmatlari bilan tenglashtirilgan va karmaga qaramasdan najot qirg'og'iga uni yaqinlashtiradi, deyilgan. Maxayananing o'ziga xosligi keyinchalik buddizmda kuchaygan axloq-odob me'yorlariga asosiy e'tiborni qaratishda emas, balki shu me'yorlarning xarakteridagi tub o'zgarishlarda.

### **3.3. Buddizmning tarqalishi va mintaqaviy shakllari: yapon buddizmi, xitoy buddizmi, lamaizm.**

«Buddaviylik o'zining tarixiy vatani bolgan Hindistonda 1700 yil hukm suradi. Bu davr mobaynida bir necha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tadi:

- miloddan avvalgi III asrda imperator Ashoka davri
- milodiy II-III asrlarda Kushon imperiyasida
- V asrda Guptalar imperiyasi
- VII asrda Xarshi imperiyasi
- VIII-IX asrlarda Pallar imperiyasi davri

Nihoyat VIII asrda islomning kirib kelishi bilan amalda o'z o'rnnini bo'shatib berdi.

- Bu davr mobaynida Buddha ta'limoti Hindiston sarhadlaridan tashqariga, Osiyoning bir qancha davlatlariga yoyildi. Imperator Ashoka (m.av.III asr) hamda Kushon imperiyasi qo'shni davlatlarga o'z missiyasini yuborishi natijasida bu jarayon ayniqsa avj oldi. Dharma Buyuk Ipak yo'lidagi karvon yo'llari orqali ham kengayib bordi. VII asrga kelib Buddaviylik xozirgi Afg'oniston, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari- Myanmadan to Indoneziyagacha, O'rta Osiyo mamlakatlari, Xitoy va Koreya yarim oroligacha, Yaponiya, Tibetga ham yetib bordi.

VIII asrdan boshlab islom qo'shinlari tomonidan xozirgi Afg'oniston Pokiston, O'rta Osiyo, XII asrdan boshlab esa Hindistonda ham buddaviylikni yo'q qilish boshlandi. XVI asrning 1-yarmida Tibet buddizmi Mongoliyaning davlat dini bo'ldi.

Bugungi kunda buddizm Janubiy, Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyoda tarqalgan va yuz millionlab e'tiqod qiluvchilari bor. Butan, Kombodja, Laos, Myanma va Tailandning davlat dini

hisoblanadi. Shri-Lankada davlat dini maqomida bo'lmasada, Konstitutsiyasida unga alohida imtiyozli maqom berilgan.

Buddanining ta'limoti Qadimgi Hindistonda paydo bo'lgan, u uzoq yo'lni bosib o'tib, Himoloy tog'lari, Xitoyning katta tekisliklari, Koreyaning tog'lari va vodiylarini kesib o'tgan. Buddizmning Yaponiya orollariga kelishi uchun ming yil kerak bo'ldi. Ularga qilgan uzoq safarida u yerlarida yurgan xalqlarning e'tiqodlarini o'ziga singdirdi, ularning xudolari va avliyolarini o'z panteoniga kiritdi, hind va xitoy donishmandlarining ta dqiqotlari bilan boyidi

Buddaviylikning dunyo bo'ylab yoyilisi natijasida uning eng yirik oqimlari: **yapon buddizmi, xitoy buddizmi va lamaizm** shakllandi.

Bu cheksiz tafakkur boyligining barchasi yuzlab, minglab sutra-larda, risolalarda, tafsirlarda o'z ifodasini topgan.

**Yapon buddizmi.** Buddizm Yaponiyaga VI asrda kelgan deb isho-niladi. Darhaqiqat, u yerga ancha oldin kirgan; yapon yilnomalarida u 4-asr va 5-asr boshlarida xitoy va koreys ko'chmanchilari bilan birga paydo bo'lganligini ta'kidlaydi.

Biroq, o'sha paytda yangi ta'limot muvaffaqiyat qozonmadni va odamlar o'zlarining sobiq sintoizm e'tiqodlari (tabiat xudolari va ajdodlariga sig'inish) bilan qoldilar. Ammo VI asrda shtat poytaxti Asuka shahrida Buddanining ta'limoti o'rnatildi.

Yaponiyada 6-asrning ikkinchi yarmida ikkita kuchli klanlar - Soga va Minonobe o'rtasida kurash bo'lgan. Sogalar buddizmning dindor tarafdlari, minonoblar esa o'zlarining sobiq xudolarining himoya-chilaridir. Kurashning sababi yangi paydo bo'lgan davlatdagi hoki-miyat uchun kurashda bo'lib, u So'g'ning g'alabasi bilan yakunlandi. Ko'rib turganimizdek, buddizm o'z tarixining ushbu bosqichida dindan ko'ra ko'proq siyosatga tegishli edi. Bu aqidaning chuqr ildiz otishi, mahalliy

sharoitga moslashishi va asrlar davomida gullab-yashnashi uchun vaqt va fidoyilar kerak edi.

Dastlab yaponlar Buddani "kami" - Shinto xudosi sifatida qabul qilishgan, ammo begona deb qarashgan. Unga sig'inadi-ganlarning fikriga ko'ra, u cheksiz kuchga ega edi va shuning uchun universal homiy va shafoatchi roliga mos edi. Biroq, ko'p vaqt o'tishi kerak edi, buddistlar ibodatxonasi tashkiloti paydo bo'lishi kerak edi, chet eldan olib kelingan sutralarni (qoidalarni) muntazam o'rghanishni boshlaydigan va shu asosda o'zlarining najot tushunchalarini ishlab chiqadigan bilimdon rohiblar qatlami shakllanishi kerak edi. Ammo buddizmning ochilishi uchun yapon jamiyatining ma'lumotli qatlaming madaniy darajasi ham ko'tarilishi kerak edi

Yapon yilnomalariga ko'ra, 552 yilda (boshqa manbalarga ko'ra, 538 yilda) Yamato qirollari saroyiga Koreyaning Baekje davlatidan elchilar kelgan. Elchilar sutralar, Buddha tasvirlari va Baekje qirolining xabarini olib kelishdi. Buddanining ta'limoti Yaponiya orollariga shunday kelgan. Shotoku-Taishi nomi bilan mashhur bo'lgan shahzoda Umayado - "Muqaddas fazilatlar" shahzodasi (574-622) uning g'ayratli muxlisi, homysi va faol tarqatuvchisiga aylandi. Uni yapon buddizmining asoschisi deb hisoblashlari bejiz emas.

**Xitoy buddizmi.** Buddizm Xitoya Hindistondan II asrda Markaziy Osiyo orqali Maxayananing shimoliy shakli sifatida kirib kelgan. Uning Xitoyda mustahkamlanishi va rivojlanishi jarayoni uzoq va murakkabdir. Hind-budda tushuncha va atamalarning yangi Xitoy sharoitiga moslashishi uchun ancha vaqt o'tdi. Buddizmdagi hayotni azob-uqubat va yovuzlikdan iborat degan g'oya Xitoyda keng tarqalgan konfutsiylikni axloq normalari va hatti-harakat tamoyillariga zid kelar edi. O'z ta'limoti bilan buddizmga yaqin bo'lgan daosizm Xitoyda uning o'rnashib

qolishi uchun imkon yaratdi. SHu sababli Xitoyda birinchi budda jamoalari daosizmning bir sektasi sifatida qabul qilingan. Janubiy inqiroz va o'zaro urushlar buddizmni o'z maqeini kuchaytirish uchun imkon yaratdi. Bu sharoitda buddizmni yerdagi hayotdan uzoqlashib, baland devor bilan o'ralgan monastrlarga yashirinish to'g'risidagi g'oyasi kishilarni o'ziga jalb qildi. III-IV asrlarda poytaxt-markazlar atrofida 180 ga yaqin monastir va ibodatxonalar bo'lgan. Soliq va hukumat tazyiqidan xoli bo'lgan budda monastrlari o'z yerlaridan ko'chmanchilar tomonidan haydalgan dehqonlar va qochoq shaharliklarni hamda tinchlik va yolg'izlikni izlagan boy zodagonlarni o'ziga jalb qildi. Buning natijasida buddizm katta kuchga aylandi hamda janubiy va shimoliy sulola imperatorlari uni qo'llab quvvatlashga intildi va hatto ayrimlari uni rasmiy davlat mafkurasi deb e'lон qilishdi. Xitoy tuprog'iga buddizm kirib kelishi bilan uning ijtimoiy tizimi, jamiyatning normalari va an'anaviy talablariga moslashdi. Boshqa diniy ta'limotlar kabi buddizm ham ma'lumotli yuqori tabaqa vakillari va quyi tabaqa vakillari bo'lgan dehqonlarga nisbatan munosabatda turli hil talablarni joriy qildi. Qo'yи tabaqa vakillari uchun buddizm Xitoy daosizmini o'ziga xos turli ko'rinishlaridan bo'ldi.

**Lamaizm** - Ma'lumki buddaviylik o'zining ilk shakli Xinayana (txeravada) orqali avvalo Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng tarqaldi. Buddizmning maxayana oqimi Xitoy va Yaponiyaga kirib borgan. So'nggi o'rta asrlarda (X-XV asrlar) xinayana va ko'p darajada maxayana buddizmi asosida Tibetda uning o'ziga xos shakli – Lamaizm vujudga keldi.

Lamaizm buddizmning o'ziga xos so'nggi, taraqqiy etgan shakli bo'lganligi sababli o'zining tugallangan qiyofasiga erishdi. Shu sababli hozirgi kungacha ushbu e'tiqodning asosi bo'lgan. Tibet Dalay-lamalari nafaqat lamaistlar uchun balki Xinayana va

Maxayanaga e'tiqod qiluvchilar uchun ham o'ziga xos ramz hisoblanadi.

Lamaizmning g'oyaviy asosi buddizm bo'lsada tibetliklarning ungacha bo'lgan mahalliy dini bon (bon-po) ham o'zining animistik tasavvurlari bilan uning ilk manbasi hisoblanadi. Buni Lamaizmni xudolari va e'tiqod marosumlari bilan tanishishda qadimgi tibetliklar va mug'ullarning tomonlik tasavvurlarini saqlanganligida ham ko'rish mumkin. So'nggi o'rta asrlarda (VIII-XV asr) shakllangan lamaizm xinayana va maxayananing maktabsektalari bilan birga tantrizm vajrayanasining o'ziga xos sintezi asosida vujudga keldi. Tantrizmning ildizi qadimgi xosildorlik e'tiqodi va uning marosimlariga borib taqaladi. Qadimgi Xindlarning najot izlash, moksha(sansaradan ozod bo'lish, azoblardan qutilish) va nirvana( hayot tashvishlaridan qutilish, ruhiy kotarinki xolat) haqidagi ta'limotlari hamda qadimgi marosimlari braxmanizm va ilk buddizm ta'siri ostida yangicha qiyofaga ega bo'ldi. Vajrayana haqidagi ta'limot-tantrizmning vujudga kelishi Hinduizm bilan Lamaizmni shakllanishida muhim rol o'ynadi. Mustaqil oqim sifatida I ming yillik o'rtalarida shakllangan buddizm tantrizmi o'zining nisbatan mukammal falsafiy asosiga ega ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Dastlab lamaizm faqat Tibetda tarqalgan bo'lsa, XVI asrga kelib Mug'ulistonga, XVII-XVIII asrlarda buryatlar, qolmiqlar, tuvinlar o'rtasida keng tarqaldi. Ular Dalay-lama mavqeni tan olishlari bilan birga o'z xubilganlariga ham ega edilar. Mangoliyada u xutuxta bo'lib xatto 1921 yildagi inqilobdan avval u mamlakatning amaldagi diniy va siyosiy rahbari bo'lган.

lamalarning qat'iy pog'onasi mavjud edi. Bu pog'onaga yirik monastirlarning kamsonli murabbiylar guruhi hamda Dalay-lama va Panchen-lamaning ular boshchiligidagi yordamchilari kirgan. Bu oliy lamalar guruhi boshqa lamalarda u yoki bu budda, bodisattva va avliyoning xubilganlari bo'lishi bilan ajralib turgan. Qolgan lamalar qatoridan gelunlar («to'liq lamalar») yuqorida

turgan, ulardan so'ng birinchi daraja lamalari – gesullar turgan. Lamalar pog'onasining eng quyi qismida afsungar va tabiblar turgan. Bundan tashqari yirik monastirlarda o'zining ichki qat'iy lamalar pog'onasi ham bo'lgan. Bu yirik monastirlar lamalarni o'qitish va tayyorlash markazi, o'ziga xos lamaistlar universitetlari ham bo'lgan.

Hamma buddistlar kabi lamalar oyning ikki kuni - 15 va 30-sanalarida ro'za tutib, tavba-tazarru qilishadi.

Lamaizm Osiyo xalqlari tarixida katta rol o'ynagan. XVI-XVII asrlarda Mongoliyaga ham kirib keldi. Lamaizm ta'limoti Dalay-lamani ulug'lab, Tibetni buddizmning muqaddas markaziga aylantirdi. Tibet oxirgi bir necha asrlar davomida XXR tarkibiga kiritilishiga qaramasdan o'zining milliy, diniy va siyosiy avtonomiyasini saqlab kelmoqda. Biroq XXR tashkil topishidan so'ng siyosiy qarashlar va talablar o'zgardi. 14-Dalay-Lama bir qancha lamalar va dunyoviy kishilar bilan (yuz mingga yaqin) Tibetni tark etishga majbur bo'ldi. U Hindistonning Himolay oldi hududlariga o'rashib, unga ergashuvchilar bilan yangi ibodatxonalar qurib, lamaizmning yangi diniy markaziga asos soldi.

### **3.4. Buddaviylikning muqaddas manbasi:**

Buddaviylikning muqaddas kitobi - «Tripitaka» quyidagi kitoblar-dan iborat: Sutta- pitaka – budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari; Vinaya-pitaka- rahboniylik axloqi xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari; Abxidxarma -pitaka- buddaviylikning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlaridan iborat.<sup>29</sup>

Buddizmda dxarmalarning norealligi yoki shunyot (bo'shliq) haqidagi ta'limot Nagarjuna (II asr) tomonidan asoslangan.

<sup>29</sup> <https://www.studysmarter.co.uk/explanations/religious-studies/sacred-texts/trip>

Nagarjuna risolalari barcha maxayana suralaridan mantiqiy isbot qilinishi va izchilligi bilan farq qiladi. Nagarjuna ratsionalizmi Budda mantig'i rivojida muhim o'r'in tutgan. Uning tafakkurning norealligi va mutlaq intuitiv bilim to'g'risidagi ta'limoti keyinroq paydo bo'lган maktablar (madxyamika, vijnyavanada), ayniqsa, dzen-buddizm ta'limotiga asos sifatida xizmat qilgan. Dzen-buddizm ta'limoti VI asrda Xitoyda paydo bo'lib, ayniqsa, Yaponiyada keng tarqalgan. Buddaning va barcha vujudlarning yagona mohiyati haqidagi tabiiy yo'l bilan barcha nazariy usullardan yuqori turadigan dao (yo'l, tariqat) to'g'risidagi tasavvur dzen-buddizmning asosini tashkil etadi. Boshqa maktablardan farqli o'laroq, dzen-buddizm «yilt etib ko'rinish» tamoyilini targ'ib qiladi. Buddaning muhim ta'limotlaridan yana biri Kalachara («Vaqt g'ildiragi») hisoblanadi. Uning mohiyati inson va koinotning o'zaro aloqadorligida namoyon bo'ladi. Dastlab diniy marosimlarni rad etgan buddizm o'z tarixiy taraqqiyoti mobaynida ularni tan olishiga to'g'ri kelgan. Oqibatda sangxa (rohiblarning mehnat jamoalari) asosida monastirlar, cherkovlar, ruhoniylar iyerarxiyasi shakllangan. Buddizm oila, turmush, bayramlarni ham qamrab olib, buddizm tarqalgan mamlakatlar xalqlari turmush tarziga hozirgacha ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Buddizmning jahon madaniyati taraqqiyotiga ta'siri ham beqiyosdir. Buddizmga asoslangan madaniyat o'z falsafasi, me'morchiligi, tasviriy san'ati, adabiyoti, tafakkur shakli bilan o'ziga xos ruhiyat dunyosini vujudga keltirgan. 1950 yilda Umumjahon Buddistlar birodarligi tashkil topgan. Buddaviylik ta'limoti qadimiy Hind diniy - falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan bo'lib, amaliyot va nazariyotdan iboratni diniy tizimdir. Uning «Hayot - bu azob, uqubatdir» va «najot yo'li mavjud» degan g'oyalari Buddaning ilk da'vati bo'lmish 4 oliy haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Monastir devorlariga rohiblar qadimgi xind tili – pali va sanskritda birinchi sutra, muqaddas matnlarni yozib qoldirgan va shular asosida milodimiz boshlarida buddaviylikning asosiy manbasi Tripitaka tuzilgan. Shu yerda yangi kelgan tinglovchilar yozish va uqishni, muqaddas matnlarni o'rganib o'z davri uchun yetarli bo'lган ta'limga olishgan. Abhidharma uchinchi pitaka yoki "savat"dir va mil.av. 250 yilda Buddistlar kengashida qo'shilgani aytildi. Abhidharma an'anaviy tarixiy Buddaga taalluqli bo'lsa-da, ehtimol noma'lum muallif tomonidan o'limidan kamida bir asr keyin tuzilgan». <sup>30</sup>

### Nazorat savollari

1. Buddaviylikning vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy sabablar
2. Buddaviylik ta'lilotida to'rt oliy haqiqat nazariyasining mazmun-mohiyati.
3. Azob-uqubatlardan qutilish uchun Buddha tomonidan ishlab chiqilgan «Sakkiz bosqichli yo'l» xaqida nimalarни bilasiz?
4. Nirvana nima? Nirvananing mohiyatini tushuntirib bering.

---

<sup>30</sup> <https://uz.eferrit.com/buddist-davri-tarifi-tripitaka/>

## IV BOB. XRISTIANLIK DINI TARIXI VA ASOSIY G'YOYALARI

### REJA

1. Xristianlik dinining paydo bo'lishi va muqaddas manbalari
2. Iso Masih – xristianlik ta'limotining asoschisi
3. Xristian dinining Katolik va Pravoslav cherkovlariga bo'lilib ketishi
4. Protestantizmning vujudga kelishida siyosiy vaziyatning roli.(Martin Lyuter faoliyati)


**Tayanch tushunchalar:** *ruhoniy, Masih, reformatsiya, papa, kalvinizm, pravoslav, cherkov, sobor, nazhab, Rim imperiyasi, katolik, protestantizm, muqaddas ruh, imon, abadiy hayot.*

#### 4.1. Xristianlik dinining paydo bo'lishi va tarqalishi.

«Xristian dini milodiy I asrda Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastinda vujudga kelgan; Asoschisi Iso Masih 747 yili Falastinning Nazaret qishlog'ida Xudoning amri bilan bokira qiz Maryamdan dunyoga keldi; Yangi eraning boshlanishi Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq. Xristianlik ta'limoti Ota-Xudo, O'g'il-Xudo va Muqaddas ruh -Uch qiyofali Xudo (Troitsa - Trinity) ko'rinishga ega xudo to'g'risidagi ta'limotni, jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

Xristian dini buddizm va islom dinlari qatorida jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri hisoblanadi. Ularning miqdori boshqa dinlarga nisbatan eng ko'p bolib, bu ko'rsatkich dunyo aholisining deyarli uchdan birini (28%) tashkil qiladi. Xristianlik, asosan, Yevropa, Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda Afrika va Osiyo qit'alarida qisman tarqalgan.<sup>31</sup>

<sup>31</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xristianlik>



«E'tiqod timsoli» quyidagi 12 qismdan iborat:

1. Olamni yaratgan yagona Xudo;
  2. Nasroniylikda Xudoning o'g'li hisoblangan Iso Mosihga imon keltirish;
  3. Illohiy mujassamlashuv;
  4. Isoning azob-uqubatlari va o'limi;
  5. Isoning xochga mixlanganidan so'ng uch kun o'tib qayta tirilganligi;
  6. Isoning meroji;
  7. Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba yerga qaytishi);
  8. Muqaddas Ruhga imon keltirish;
  9. Cherkovga munosabat;
  10. Cho'qintirishning gunohlardan forig' qilishi;
  11. O'lganlarning ommaviy tirilishi;
  12. Abadiy hayot «E'tiqod timsoli» 12 qismida ifodalandi.»<sup>12</sup>
- Xristianlikning muqaddas kitobi- Bibliya bo'lib, u Qadimiy Ahd va Yangi Ahd dan iborat. Bibliya-Xristianlik diniy ta'llimotiga ko'ra Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqidaya axliq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir. Bibliya tarkibiga kirgan: Yahudiy diniga taalluqli kitoblar

<sup>12</sup> <https://staff.tiiame.uz/storage/users/>

«Qadimiy Ahd», Xristian ta’limotiga tegishli kitoblar «Yangi Ahd» deb nomланади.

Bibliya so’zi (biblia grekchadan olingen) kitob degan ma’noni bildiradi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarda 72 ta kitobdan iborat, protestant nashrlarida 66 kitobdan iborat. Yahudiylarning yana bir diniy manbasi Talmudning habar berishicha, Qadimiy Ahdda 24 ta kitob; Qadimiy yahudiy tarixchisi Iosif Flaviyning aytishicha 22 ta kitobdan iborat. Protestantlar va yahudiylar, Trident Soboridan keyin (1545-1563), katoliklar ham qadimiy ahd tarkibiga 45 ta kitob kiritadilar.

«Ahd» so’zi xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini ifodalaydi. Qadimgi ahd yahudiylikda ham, xristianlikda ham muqaddas sanaladigan va eng qadimgi davrlarda yaratilgan diniy adabiyotlardan, Yangi ahd esa faqat xristianlar muqaddas deb biladigan, ular dini shakllanishiga aloqador diniy asarlardan iborat. Mazkur dinlarning aqidalariga binoan, Bibliya—xudoning kalomi, barcha insonlarga yo’llangan, dunyo va odamzodning paydo bo’lishi va oxirat sirini ochib beruvchi muqaddas kitobidir. Uning asosiy mavzusi – yagona Haqning fazilatlari va insoniyat bilan munosabati haqidadir. Bibliya miloddan avvalgi VIII asr va milodiy II asrlar oralig’ida oromiy hamda yunon tillarida yozilgan. Bibliya matnlari tadqiq etilganda shu narsa tasdiqlandiki, ular qariyb ming yil davomida xilma-xil joylarda yaratilgan. Bibliya eng qadimgi adabiy yodgorliklardan biri bo’lib, diniy pandrasihatlar, aqidalar, bashoratlar, duolar, solnomalar, masallar, ishqiy va falsafiy dostonlar, hikoyat, rivoyat va maktublardan iborat. «Bibliyada, bir yoqdan, odamzodning gunohkor bo’lib xudo tomonidan rad etilishi, abadiy halokatga mahkum qilinishi to’g’risida gap ketsa, ikkinchi yoqdan, xudo insonni qutqarish uchun qanday rejalar tuzgani haqida hikoya qilinadi.

**Injil.** «Injil» so'zi yunoncha «Yevangelion» so'zidan olingan bo'lib, hushhabar ma'nosini anglatadi. Unda odamzotni qutqaruvchi yagona najotkor hisoblanmish Iso Masihning Yer yuziga yuborilgani haqida hikoya qilinadi. Injil milodiy birinchi asrda yozilgan. 27 bo'lidan iborat.



Bibliya- xrisyian dinining muqaddas kitobi.

Ayniqsa, odamlarga najot yo'lini ochgan Iso Masih to'g'risida to'laqonli xabar beriladi. Jami 70 kitob (bo'lim)ni o'z ichiga olgan Bibliya XIII asrda Kardinal Stefan Lengton tomonidan hozirgi ko'rinishga keltirilgan, kitoblarni sherkarta bo'lish va raqamlash-tirishni parijlik matbaachi Rober Stefan (XVI asr) amalga oshir-gan. Bibliya jahon bo'yicha keng tarqalgan, asrlar mobaynida ko'pgina xalqlarning axloqi, ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti, musiqa va rangtasvir san'atiga barakali ta'sir ko'rsatgan. U XIX asrgacha 400 dan ziyod, XX asr mobaynida esa yana 1400 (jami 1978) tilga to'liq yoki qisman o'girilgan. O'zbek tilida ayrim qismlari 1891, 1913-yillarda Leypsig shahrida arab imlosida, 1981, 1983, 1986, 1990-yillarda Bibliyani tarjima qilish instituti (Stokholm) tomonidan Kirill yozuvida chop etilgan. 1992-yilda mazkur institut Injil va Zaburni to'liq holda va Tavrotdan

«Ibtido» qismini bir kitobga jamlab, so'zboshi, lug'at, jadvallar, fixrist, haritalar hamda rangli fotosuratlar bilan birga chop etgan».<sup>33</sup>

#### 4.2. Iso Masih-xristianlik ta'limotining asoschisi


**Iso Masih** — Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri. Islomda Muhammad (sav)dan oldingi payg'ambar sifatida aloha-da e'zozlanadi. Qur'onda, shuningdek, «al-Masih («xudo yarlaqagan»), Ibn Maryam («Maryamning o'g'li»), Abdulloh («Allohning quli»), Rasululloh («Allohning elchisi»), Allohning muqarrabi (yaqini), «Haqni so'zlovchi», deb ta'riflanadi. Isoga Injil nozil qilingan. Qur'onga ko'ra, Iso — Allohning o'gli emas, Xudo ham emas. Iso - Allohning bandasi va bokira qiz Maryamdan mo"jiza bilan tug'ilgan. Alloh unga «Bani Isroil» qavmini hidoyatga boshlash uchun payg'ambarlik darajasini iroda etdi. Iso odamlarni o'z ta'limotiga ergashishlariga da'vat qildi. Yahudiylarni noto'g'ri yo'llardan qaytarib, ularga halol va haromni tushuntira boshladи. O'zidan keyin Ahmad (ya'ni Muhammad) nomida bir payg'ambar bo'lishini bashorat qildi.<sup>34</sup> Isoning tarixi xususida diniy va diniy bo'limgan manbalar orasida ixtilof mavjud: xristian manbalarida Isoning o'zi xudo bo'la turib, insoniyatning gunohlarini o'ziga olish uchun odam qiyofasida tug'ilgani, uning hayot tarzi, insonlar bilan muloqoti haqidagi ma'lumotlar qayd etilsa-da, diniy bo'limgan manbalarda Iso nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxs deb hisoblovchilar ham bor.

Iso nomiga qo'shiluvchi «Masih» so'zi qadimiy yahudiy tili – ivritdagи *meshiah* so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki

<sup>33</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bibliya>

<sup>34</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Iso\\_Masih](https://uz.wikipedia.org/wiki/Iso_Masih)

«siylangan» ma'nolarini beradi. Yunon tilida bu so'z «xristos» shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlikni Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i – «Nazaret» bilan bog'lab, nazroniya deb ham ataganlar. Keyinchalik bu nom nasroniya shaklini olgan.<sup>35</sup> Iso Masih o'z ta'limotini o'zining 12 o'quvchisi apostollar – havoriylarga o'rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta'limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning «Yangi Ahd» qismini tashkil etadi. «U zotning tug'ilgan yili aniq emas. Eng ishonarli manbalarga ko'ra, Iso alayhissalom taxminan milodning boshlanishidan 4 yil avval hukmronlik qilgan shoh Avgust zamonida, Vifleem shahrida dunyoga kelgan.



<sup>35</sup> <https://www.collegesidekick.com/study-docs/23621888>

Xristianlik dinining asoschisi Iso Masih: Xalq kutayotgan haloskor; Yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqqan; Yahudiyilar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qilganlar; Iso 33 yoshida fitnachilikda ayblanib, qatl etishga hukm qilingan.<sup>36</sup>

Isoning tug'ilishi qator samoviy hodisalar bilan bir vaqtga to'g'ri kelganligi tufayli uni Masih va yahudiyilar mamlakatining yangi shohi deb hisoblashgan. Iso alayhissalom o'z ta'limotini ko'proq masallar orqali bayon etgan. Uning chuqur, ma'nodor va o'ta mukammal tarzda ifodalangan fikrlari, har bir iborasi, so'zlari hammani hayratga solib, maftun etgan. Masalan:

- Odamlarni ayblamang, shunda siz ham ayblanmaysiz, aks holda ularni qanday ayblagan bo'lsangiz, siz ham shunday ayblanasiz. O'zgalarning aybini qaysi qarichda o'lchasangiz, sizni ham o'sha mezonda o'lchanadi.

- Siz so'rang — olarsiz, izlang — toparsiz, eshikni qoqing va u ochilgusidir. Har bir so'rovchi oladi, izlovchi topadi va keluvchiga eshik ochiladi.

- Kim o'zini osmon tutsa, yer bo'lajak, o'zni yer bilganlar esa osmon bo'lajak.

- Qo'lga shamshir tutganlar uning tig'idan halok bo'lg'aylar.

- Kim senga g'anim bo'lsa, ketingda turgay.

Barcha buyuk zotlar kabi Iso alayhissalomning ham g'animgani bo'lgan. Ana shu g'animgani orasidan o'rin olgan yaqin shogirdining sotqinligi tufayli Iso xalqni g'alayonga da'vat qilganlikda ayblangan».<sup>37</sup>

Xristianlikda Iso Iisus Xristos nomi bilan yuritilib, xrispgi-anlik asoschisi hisoblanadi («Xristos» so'zi yunoncha bo'lib, o'zbek tilida «xaloskor» ma'nosini anglatadi). Xristian cherkov-

<sup>36</sup> <https://www.collegesidekick.com/study-docs/23621888>

<sup>37</sup> <https://nziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/iso-alayhissalom>

larining aksariyati uni Xudo-odam sifatida ulug'laydi. Injilga ko'ra, Iso xudoning o'g'li bo'lgan, Vifleyem (hoz. Beyt Laxm sh.)da duradgor Iosifning xotini Mariyadan tug'ilgan. Iosif va Mariya go'dagi bilan podshoh Irod I ta'qibidan qochib, Misrga boradilar, keyin Galileya (Falastin)ga qaytadilar. Iso targ'ibotchilik faoliyatini boshlab yuboradi. Uni Ioann Krestitel cho'qintiradi. Iso atrofiga 12 shogird (apostol — havoriy)larni to'playdi.

Xavoriylardan biri Iso targ'ibot qilayotgan yangi ta'limotni oshkor etib qo'ygach, yahudiylar sudi — sinedrion Isoni o'lim jazosiga hukm qiladi. Rim noibi Pontiy Pilat hukmni tasdiqlaydi, Iso chormix qilinib qatl etiladi. Lekin u tirilib o'z shogirdlari oldiga keladi. Xristianlar Isoning tirilib kelishi («voskresenye»)ga ishonadilar<sup>38</sup>. Fanda Isoning tarixiyligi e'tirof etiladi. U 1-asrning 1-yarmida Falastinning Galileya mintaqasida Iisus (Iyeshua) ismi bilan sayyor da'veatchi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Isoning targ'iboti fariseylar va esseylar ta'limoti kabi maxdud emas, balki falas-tin jamiyatining barcha tabaqalariga qaratilgandi. Shu boisdan ham keyingi asrlarda grek rim zaminida Iso ta'limotining tarafдорлари mahalliy tusdagi bu harakatni O'rta dengiz havzasini to'lig'icha qamrab olgan olamshumul dinga aylantirishga erishdilar.

#### **4.3. Xristian dinining Katolik va Pravoslav cherkovlariga bo'linib ketishi.**

##### **Xristianlikdagi oqimlar:**

**Pravoslav oqimi** (240 million kishi) asosan: Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq, Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarda uchraydi. Pravoslav

<sup>38</sup> [https://uzpedia.uz/pedia/iisus\\_xristos](https://uzpedia.uz/pedia/iisus_xristos)

oqimi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shohobchasi sifatida shakllandi. Pravoslaviyaning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo'nalish u yerdagi hukmron din edi.<sup>39</sup>

Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'gitlar IV-VIII asrlardagi yetti butxona soborlarining qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan.

Xristianlikning Sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCH, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo'lib, unga 19 ming cherkov va 127 yeparxiya birlashgan. Bulardan 150 dan ortiq cherkov va 5 yeparxiya chet elda faoliyat olib boradi. Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o'rinn egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladi.

**Cho'qintirish sirli hodisasi (*tainstvo*).** Bunda dindor o'z tanasini uch marta suvgaga botirishi, Xudo-Otani, o'g'ilni va Muqaddas ruhni chaqirishi bilan ruhiy tug'ilishni kasb etadi.

**Badanga miro surkash** ham sirli bo'lib, bunda dindorga Muqaddas ruhning ruhiy hayotga qaytaruvchi va chiniqtiruvchi ehsonlari ulashiladi.

**Poklanishning sirliligi.** Unda dindor non va vino ko'rinishida o'z badanida Iso qonini abadiy hayotga tayyorlaydi.

<sup>39</sup> <https://ppt-online.org/1576905>

**Nadomatning sirliligi** shundaki, dindor o'z gunohlarini din peshvosi oldida tan oladi, din peshvosi esa uning gunohlarini Iso nomidan kechiradi.

**Ruhoniylikning sirliligi** u yoki bu shaxsni ruhoni darajasiga ko'tarish uchun yepiskopning qo'lini o'sha shaxs badaniga tegizishi (yoki qo'yishi) orqali amalgalashga oshiriladi.

**Nikohning sirliligi.** Bunda kelin-kuyov turmush qurish, farzand ko'rish va uni tarbiyalashga oq fotiha oladilar.

**Badanni yeley bilan ishqalash sirida** Xudoning ruhiy va jismoniy zaifliklarni tuzatuvchi lutfu marhamatidan umid qilinadi.<sup>40</sup>

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Pasxadan so'ng pravoslav dinining o'n ikki kunlik o'n ikki muhim bayrami boshlanadi. Ular:

1. Bibi Maryamning tug'ilishi (*Rojdestvo Bojev materi*);
2. Isoning xochini tiklash (*Vozdvijenie kresta Gospodnya*);
3. Bibi Maryamning ibodatxonaga kirishi (*Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogoroditsy*);
4. Isoning tug'ilishi (*Rojdestvo Xristovo*);
5. Isoni cho'qintirish (*Kreshenie Gospodnya*);
6. Olqishlash (*Sretenie*);
7. Xushxabarning nozil bo'lishi (*Blagoveщanie*);
8. Isoning Quddusga kirishi (*Vxod Gospodnya v Ierusalim*) – pasxa postidan 6 haftadan keyingi yakshanba;
9. Isoning qayta tirilishi (*Voskresenye Xristovo*) – Pasxa, bahorgi kecha va kunduz tengligi va oy to'lishgan birinchi yakshanba;
10. Isoning osmonga ko'tarilishi (*Voznesenie Iisusa*) – Pasxadan 39 kun keyin;

<sup>40</sup> <https://gigabaza.ru/doc/169592-p21.html>

11. Muqaddas Ruhning tushishi (Soshestvie svyatogo duxa-Troitsin Denъ);

12. Iso qiyofasining o'zgarishi (Preobrajenie) – 6 avgustda.<sup>41</sup>

**Katolik oqimi** (taxminan 800 mln. Kishi) asosan Yevropa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan. Katolitsizm umumiy, dunyoviy degan ma'nolarni ifodalaydi.

Uning manbai – uncha katta bo'limgan Rim Xristian jamoasi bo'lib, rivoyatlarga ko'ra uning birinchi Yepiskopi apostol Petr bo'lgan. Katolik diniy ta'limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq pravoslav cherkovidan farqli o'laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqat avvalgi yetti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha bo'lib o'tgan barcha Soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi.<sup>42</sup>

Katolitsizmda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniy-larga beriladi, chunki ular uylanmaslik – tselibat haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va soxtalash-tirilgan ko'rinishga ega, diniy o'qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviyadagi kabi katolitsizmda ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlariga sig'inish odatlari mavjuddir.

Katolitsizm xristianlikning yo'nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta'limot, sig'inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat'iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig'i bo'lib, u diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati dunyoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi.

<sup>41</sup> <https://muhaz.org/mavzu-mahmud-koshgariyning-odob-as-sol>

<sup>42</sup> [https://arm-admin.xiuedu.uz/media/books/Muratov\\_D.\\_Alimova\\_](https://arm-admin.xiuedu.uz/media/books/Muratov_D._Alimova_)

Katolik cherkovining markazlashuvi, jumladan, diniy ta'limotni noan'anaviy tahlil qilish (sharhlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi.

#### **4.4. Protestantizmning vujudga kelishida siyosiy vaziyatning roli.**

Protestantizm (lotincha: «protestatio» norozi bo'lish, kelishmaslik) — xristianlikdagi 3 asosiy oqimdan biri (katolitsizm va pravoslaviye bilan birgalikda). Reformatsiya davri (16-asr)da katolitsizmdan ajralib chiqqan. «Protestantizm asoschilarini bo'lmish M. Lyuter, J. Kalvin, U.Svin-glilar Yevropada o'rta aslarda mavjud bo'lgan siyosiy vaziyatda tarix maydoniga chiqadilar. Katolik cherkovining zulmlari va nohaqliklari chegara bilmas edi. Protestantizm cherkov, sektalarni, kalvinchilik, lyuteranlik, anglikan cherkovlari, metodistlar, baptistlar, adventistlarni, shuningdek, ko'pgina mustaqil oqimlarni birlashtiradi. Protestantizm ruxoniylarning inson bilan xudo o'rtasidagi vositachilik rolini inkor etadi. Protestantizmda ruxoniylar bilan oddiy dindorlar farqlanmaydi. Murakkab cherkov iyerarxiyasi yo'q, toat-ibodat soddalashtirilgan, monaxlar bo'lmaydi, ruhoniyarning oila qurishi man etilmaydi. Protestantizm, asosan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Skandinaviya mamlakatlarida, Niderlandiya, Shveysariya, Avstraliya, Kanada, Boltiqbo'yimamlakatlari (Estoniya, Latviya)da tarqalgan. Protestantlarning umumiy soni 750 mln. ga yaqin». <sup>43</sup>

Protestantizmning ilk shakllari:

- lyuteranlik;
- Svinglichilik;
- Kalvinizm;
- Unitarizm va sotsinchilik;

---

<sup>43</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Protestantizm>

- Anabaptizm;
- Mennonitlik;
- Anglikanchilik

Lyuteranlik oqimi asoschisi Martin Lyuter XVI asrda Yevropa Reformatsiyasi davrida tarix maydoniga chiqdi.

«Germaniyadagi Reformatsiya arbobi, lyuterchilik\_asoschisi. 1505-yilda Erfurt universitetini tugatgan. 1508-yildan Vittenberg universitetida dars bergen. Germaniyada katolik cherkoviga qarshi ijtimoiy harakat kuchaygan sharoitda Lyuter 95 tezisi bilan indulgensiyaga qarshi chiqdi. Katolik cherkovining asosiy aqidalarini inkor etuvchi bu tezislар uning yangi diniy ta'lilotining mohiyatini tashkil qildi. Lyuter o'zining yangi qoidalari bilan cherkov va ruhoniylarning jamiyatdagi hukmon mavqeini inkor etib, "ruhni xalos etish"ning yagona yo'li bevosita xudo ato etgan xristian diniga e'tiqod qilishdir, deb uqtirgan.

Bibliyani nemis tiliga tarjima qilgan. va shu bilan umum nemis adabiy tili normalarini qaror toptirgan. Lyuter asarlarining to'la nashri nemis tilida (67 jildda), lotin tilida (38 jildda) chop etilgan».<sup>44</sup>

---

<sup>44</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Martin\\_Luther](https://uz.wikipedia.org/wiki/Martin_Luther)



**Martin Lyuter** (1483.10.11-1546.18.2)

**Kalvinizm** — protestantizmdagi yo'nalishlardan biri. Asoschisi J. Kalvin. »Reformatsiya natijasida 16-asrda Jenevada vujudga kelib, Fransiya, Niderlandiya, Shotlandiya, Angliya va b. mamlakatlarga tarqalgan. Kalvinizm ta'lomitiga faqat Muqaddas yozuvni tan olish, ilohiy qismatga ishonish, odamlarning najot topishida ruhoniylarning yordami zarurligini inkor etish, xoch va ikonaga sajda qilishni rad etish, cherkov marosimlarini soddalashdirish (ibodat paytida diniy musiqa chalmaslik, sham yoqmaslik, cherkov devorlarida tasvirlar bo'lmasligi) xos. Kalvinizm bir necha tarmoqlarga bo'linib ketgan. Kalvinizmning hozirgi zamon tarafдорлари — kalvinistlar, reformatlar, presbyterianlar, kongregatsionalistlar».<sup>45</sup>

**Jan Kalvin ta'lomitiga ko'ra:**

1. Inson taqdiri Xudo tomonidan belgilangan;
2. Barcha muvaffaqiyatlar –xudoning tanlovi;
3. Inson tanlanganligini isbotlashi uchun tinimsiz va qat'iyat bilan muvaffaqiyatlarga erishishga harakat qilishi va mehnat qilishi kerak.
4. Boyish, Boylik to'plash va tadbirkorlik qilish xudoga yo-qadigan ishlardir.

<sup>45</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kalvinizm>



Hozirgi vaqtida protestantizm dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan. Uning jahon markazi AQSHda bo'lib, bu yerda baptist, adventist, iyegova shohidlariva boshqalarning qarorgohlari joylashgan.

### **Nazorat savollari**

1. Xristian dini qaysi din asosida paydo bo'ldi?
2. Xristian dinining asoschisi xaqida gapirib bering.
3. Xristianlarning diniy bayramlari xaqida gapirib bering?
4. Protestantizm mazhabining assoschisi kim? Bu oqim vujudga kelishi shart-sharoitlari xaqida nimalarni bilasiz?
5. Xristian dinining muqaddas kitobi Bibliyaning «Qadimgi Ahd» va «Yangi Ahdi» to'g'risida ma'lumot bering.

## V BOB. ISLOM DINI TARIXI VA MOHIYATI

### REJA

1. Islom dinining paydo bolishidagi ijtimoiy shroit. Muhammad s.a.v hayoti va faoliyati.
2. Islomda yo'nalishlar va mazhablarning paydo bo'lishi
3. Moturudiy va Ash'ariy ta'limoti
4. Islom dinining O'rta Osiyoga yoyilishi.

**Tayanch tushunchalar:** *Qur'oni karim, Sunnat, Qiyos, Ijmo, firqa, Hanafiy; Shofe'iy; Molikiy; Hanbaliy, sunniylik, shialik, payg'ambar, halifa, mazhab, qur'on, hadis.*

#### 5.1. Islom dinining paydo bolishidagi ijtimoiy shroit.

Muhammad s.a.v hayoti va faoliyati.

Islom tarixida bu din kelmasidan avvalgi davr johiliya yoki johiliyat davri deb yuritiladi. «Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik», ya'ni «yagona xudo-Alloho tanimaslik» ma'nolarini beradi.

Islom (arabcha bo'y sunish, itoat etish, o'zini Allah irodasiga topshirish) – dunyoda eng keng tarqalgan dinlardan biri. Islom diniga jahonda qariyb 1,5 milliard kishi e'tiqod qiladi. Muqaddas islam manbalari Qur'oni Karim va hadisi shariflarda aytlishicha, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Allah tomonidan yuborilgan oxirgi ilohiy dindir. Qur'oni Karimga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim alayhissalom Allahga birinchi bo'lib iymon keltirgan. Demak, islam batamom yangi e'tiqod emas, balki Muhammad alayhissalom davrida qayta tiklangan dindir. Islom dinining kelib chiqish, qayta tiklanish tarixi (genezisi)ni o'rganishda uning ijtimoiy, iqtisodiy, diniy va

madaniy hayotda muhim rol o'ynaganini hisobga olish kerak. Islom dini qayta tiklangan VI asr oxiri va VII asr boshida Arabistonni birlashtirib, shu asosda xalqaro savdoni barqaror qiladigan, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qodir harbiy kuchga ega bo'lган yagona markazlashgan davlat tuzish tarixiy zaruratga aylangan edi. Ayni paytda, Arabiston yarim orolidagi qabilalarning etnik va madaniy jihatdan birlashuvi, yagona arab tili, og'zaki va yozma adabiyoti, umumiylar tafakkuri shakllanib, diniy qarashlarida o'zgarish jarayonlari kechayotgan edi. Boshqacha aytganda, Arabistonda o'ziga xos Uyg'onish davri boshlandi

Islomning asosiy aqidasi – "Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli". Islom dini 5 asos yoki ustun (arkon addin al-isломиј) ga ega:

- 1) iymon keltirish;
- 2) namoz o'qish;
- 3) ro'za tutish;
- 4) zakot berish;
- 5) imkoniyat topilsa haj qilish.

«Shulardan birinchisi iymon va qolganlari ibodat deb e'tirof etilgan. Imon 7 aqidani – Allohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, taqdir (yaxshilik va yomonlik Allohning irodasi bilan bo'lishi)ga va o'lgandan keyin tirilishiga ishonishni o'z ichiga oldi. Islomda o'ziga xos diniy marosimlar mavjud. Bundan tashqari, ko'pgina hollarda mahalliy xalqlarda islomgacha bo'lган urf-odatlar ham islom marosimlariga uyg'unlashib ketgan. Ilk islomda diniylik va dunyoviylik bir-biridan ayri bo'limgani bois g'oyaviy bahslar diniy-siyosiy tus oladi. Dastlab sunniylik va shialik yo'naliishlari vujudga keladi. Keyinchalik islom olamida "xorijiyalar" deb atalgan uchinchi yo'naliish ham paydo bo'ladi. Ammo islom tarixi uzra "sunna"

asosiy yo'nalish bo'lib kelgan. Hozirgi kunda ham sunniylar musulmonlarning mutlaq ko'pchiliginini (90 foizidan ortig'ini) tashkil etadi».<sup>46</sup>

Makka shahrida bo'ladigan katta bozorlarga savdo-sotiq uchun nafaqat ko'p xudolikka ishonuvchilar, shu bilan birga xristian va yahudiy dinlaridagi yakkaxudoga sig'inuvchilar ham kelishar edi. Bozor paytlarida 4 oy badalida bosqinchilik va dushmanlik vaqtincha to'xtatilardi. Bu yerga badaviylar ham kelishar, bozorlarda qizg'in she'riy tortishuvilar, musohabalar bo'lib, bunda odob-axloq, yashashdan maqsad-muddao, iymone'tiqod masalalariga keng o'rinn berilardi. Makka va Toif bozorlaridagi babs-munozaralar Baytullohga sig'inishning ahamiyati bilan bog'lanib ketardi. Bahslashuvchilar orasida albatta haniflar (haqiqat izlovchi taqvodorlar) ham bo'lardi. Islom dini shakllangunga qadar ular arablar orasida yakka xudoga sig'inishning (vahdoniyat) afzalligini targ'ib qilishardi. O'sha paytda arablar orasida keng tarqalgan ichkilikbozlik, qimorbozlik va boshqa shu kabi qusurlar ham haniflar tanqidiga uchrar edi. Xaniflik g'oyasi arab qabilalarini yagona dinga birlashtirish istagidan iborat bo'lsa-da, ammo Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v.)ning diniy islohotiga qadar ular muvaffaqiyat qozona olmadi. Muhammad (s.a.v.)ga Musaylima ta'limotining ta'siri kuchli bo'lganiga islomshunoslar e'tiborni qaratadi. Haniflar g'oyalari ma'lum darajada Qur'oni Karimda ham o'z ifodasini topgan. Savdogarchilik Makka qurayshiyalarining asosiy kasbi edi. Ayni chog'da xristian va yahudiy jamoalari ham savdo-sotiq bilan jiddiy shug'ullanar edi. Xristian jamoalariga nisbatan yahudiy jamoalari ancha uyushqoq, birlashgan edi. Yahudiylar Makka chetida yashar, Yasribda ko'p mablag'lari bo'lardi. Savdo-sotiq, pul va boylik talvasasi arablarning noaniq xayoliy diniy

<sup>46</sup> <https://oyina.uz/uz/teahause/1719>

ishonchiga putur yetkaza olmadi. Hoshimning o'g'li Abdulmutallibdan Abdulloh dunyoga keladi. Islomning paydo bo'lishi, arablar orasida vahdoniyatga asoslangan dinning qaror topishi, arab qabilalarining yakkaxudo – Alloh g'oyasi atrofida birlashishi Abdullohning o'g'li Muhammad (s.a.v.) nomi bilan chambarchas bog'liq. Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, VI asring oxiri va VII asrning boshlarida, ayniqsa, Hijoz arablari yakkaxudolikka o'tishga ma'lum ma'noda ruhan tayyor edi. Biroq, bir qadriyatning qadrsizlanishi, hali odamlar ongiga to'liq singmagan g'oyaning qadriyatga aylanib, ularning qalbidan o'rinni olishi uchun hayotini shunday ezgu ishga bag'ishlagan jasoratli va tashkilotchi bir shaxs kerak edi. «Islom ummatining payg'ambari Muhammad alayhissalomga 610 y., ya'ni 40 yoshida vahiy kelgani ilohiy manbalarda qayd etilgan. Ammo bir necha nufuzli kishilar va Muhammad alayhissalomning yaqin qarindoshlarini hisobga olmaganda, Makkaning ko'pchilik aholisi, ayniqsa, quraysh qabilasi zodagonlari dastlabki paytlarda islomiy targ'ibotlarga ochiqdan-ochiq qarshi chiqadi.

Muhammad alayhissalom o'zga yerlarda tarafdarlar izlashga majbur bo'ladi. Avvaliga bir guruh musulmonlar Habashistonga ko'chadi, so'ng Makka zodagonlari bilan ma'lum davrdan buyon raqobatlashib kelayotgan Yasribdagi Avs va Xazraj qabilalarining vakillari 622 y. musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, Muhammad alayhissalomni payg'ambar sifatida tan olishga rozi bo'ladi. Madina va Makka o'rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etadi. 630 yili musulmonlar Makkani egallaydi. Makka aholisi yoppasiga islom dinini qabul qiladi va Muhammad (s.a.v.)ni Allohning elchisi (rasuli) deb e'tirof etadi. Ana shundan boshlab Makka islom dinining markaziga, qadimgi Ka'ba ibodatxonasi esa musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylanadi. Muhammad (s.a.v.) vafotidan so'ng Abu Bakr, Umar ibn

Hattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib payg'ambarning o'rribosari (xalifa) sifatida hukmronlik qiladilar va islom dinini yoyadilar».<sup>47</sup>

**Muhammad alayhissalom** (570–632) ana shunday shaxs sifatida nafaqat arablar dunyosida, balki butun musulmon olamida yangi sivilizasiyaga asos soldiki, minnatdor bashariyat bu olijanob, fidoyi insonning nomini har doim zo'r hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. Ul zotning jasorati, insoniyatni olyi bir g'oya atrofida birlashtirib, chinakam ma'naviy go'zal, axloqiy pok hayot kechirishga qilgan da'vati, mushriklarning ta'qiblaridan qo'rqlar, buyuk diniy islohotni amalga oshira olgani avlodlar uchun ulkan jasorat maktabi bo'lib qoladi. Ota-onasidan juda erta judo bo'lgan Muhammad ibn Abdulloh avval bobosi Abdulmutallib, so'ng amakisi Abu Tolibning qaramog'ida tarbiya ko'radi. 12 yoshida amakisi bilan Suriyaga qilgan safari beiz qolmaydi. 21 yoshga yetganda badavlat ayol Xadichanining savdo karvonini boshqarib Damashq va Halab shaharlarida bo'ladi. Halol-pokdomon, xalq orasida Alamin (ishonchli) laqabini olgan Muhammad (s.a.v.) Hadichanining e'tiborini jalb etadi. Shu bilan birga 25 yoshli yigit Muhammad Hadichaga nisbatan ulug' bir muhabbat hislarini sezadi va 595 yilda qarindoshlarining roziligi asosida 40 yoshli Xadichayi kiboroga uylanadi. Undan Qosim, Abdulloh ismli o'g'llar, Zaynab, Fuqayya, Ummu-Kulsum va Fotima ismli farzandlar ko'radi. Kunlardan birida Muhammad alayhissalomning qulog'iga qandaydir ovoz keladi. Bundan qo'rqb ketadi va xotini Xadichani bu sirdan voqif etadi. G'orga borganida ovoz yana takrorlanadi. Rivoyatlarda aytilishicha, Maloika Jabroil alayhissalom Allohdan vahiy keltiradi. Bu esa Rasululloh (s.a.v.)ning vahdaniyatni targ'ib qilish faoliyatining boshlanishi edi. 40 yoshidan boshlab u Allohdan kelgan

<sup>47</sup> <https://oyina.uz/uz/teahause/1719>

vahiylarni o'z qabiladoshlariga yetkazadi. Birinchi bo'lib Bibi Hadicha, keyin amakivachchasining o'g'li Ali, Zayd ibn Xorisa islomga kiradi. Abu Bakr, Zubayr, Talha, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf, Usmon ibn Affon kabi Makka zodagonlari ning islomga o'tib, Allohga iymon keltirishi katta ahamiyatga molik bo'ladi. Biroq, Makkadagi boshqa qabiladoshlari islomiy targ'ibotlarga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqadi. Muhammad (s.a.v.) dastavval madinaliklarni birlashtirish choralarini izlaydi va topadi. Madinadagi ikkita asosiy qabila – Avs va Hazraj doimo o'zaro olishib kelar edi. Bunday ziddiyatning davom etishi aslo mumkin emas edi. Muhammad (s.a.v.)ning xuddi diniy ruhi kabi tiniq bo'lgan siyosiy ongi natijasida musulmon jamoasining nizomi yuzaga keldi. Unga ko'ra, ansor (madinaliklar) va muhojir (makkalik)lar yagona bir jamoa (ummah) bo'lib, unga o'z e'tiqodida qolgan holda yahudiy va mushriklar ham kirar edi.

Muhammad (s.a.v.) islom ummatining ham diniy, ham dunyoviy rahbari bo'ladi. Natijada qarama-qarshilik barham topib, barcha ziddiyatli masalalarni hal etish Alloh va uning rasuli (elchisi) Muhammad (s.a.v.) ixtiyoriga o'tdi. Etnik ziddiyatlarni hal etish yo'li topilgach, Muhammad (s.a.v.) Allohnинг vahiylari orqali yangi dinning rasm-rusumlarini shakllantira boshladi. Avvalo, Ka'baga haj qilish, tahorat olish, namoz o'qish, ro'za tutish rasm-rusumlari ishlab chiqiladi. Birinchi masjid qurilib, unda musulmonlar namozni Quddusi sharifga qarab o'qiy boshlaydi. Oradan bir yarim yil o'tgach, musulmonlar qiblasi ilohiy vahiy orqali Makkaga o'zgartiriladi. Vahdoniyatga o'tish arab qabilalari o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish va ularning Alloh va uning qudratli g'oyasi atrofida birlashishi, jamiyatda ma'naviyatni qaror toptirish, qudratli islom davlatini barpo etish mumkinligini Muhammad (s.a.v.) va uning tarafdorlari ravshan tasavvur etsalar-da, ammo arab jamoatchiligini bunga ishontirish uchun

keng tashviqot-targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish bilan birga, ayni chog'da moddiy va harbiy qudrat ham kerak edi. Madinaliklar ham musulmonchilikni asta-sekin qabul etadi. Makkaliklar uchun kuch ishlatmasdan bunga erishish amrimahol edi. 624 yilda Badrda, 625 yilda Uhud tog'i etagida bo'lgan janglar makkaliklarni bo'ysundirish u yoqda tursin, aksincha, ularning g'azablarini oshirib yuboradi. 626 yilda makkaliklar madinalik-larga qarshi katta kuch bilan harbiy yurish boshlab, Madinani qamal qiladi. Biroq, makkaliklar o'z niyatlariga erisha olmay, orqaga qaytadi. Shundan so'ng diniy ta'limotning obro'yi oshib, badaviylar ham islomga kira boshlaydi. Makka mushriklari esa Muhammad (s.a.v.) boshliq musulmonlar bilan tenglik asosida muzokara olib borishga majbur bo'ldilar. Xudaybiya bitimiga ko'ra, makkaliklar madinaliklarning Ka'ba ziyoratiga kelishlariga to'sqinlik qilmaslikka rozi bo'ladi. Madinaliklar esa Makka savdo karvonlariga hujum qilmaydigan bo'ladi. Tez orada Hijozdag'i arablarning asosiy qismi islomni qabul qilib, Allah va uning rasuli Muhammad (s.a.v.)ga imon keltirdilar. 632 yil Muhammad (s.a.v.) oila a'zolari bilan birga Ka'baga birinchi marta haj ziyoratiga keldi va bu hol Makkaning musulmon olamining diniy markazi sifatidagi mavqeini uzil-kesil mustahkamlaydi. Muhammad (s.a.v.)ning bu ziyorati o'ziga xos xayrlashuv marosimiga o'xshaydi.

Tarixiy manbalarda bu ziyorat "Hajjul vado", ya'ni vidolashuv haji deb nomlanadi. Hajdan qaytgach, oradan uch oy o'tib Muhammad (s.a.v.) 632 yil 8 iyunda vafot etadi. Rasullulloh (s.a.v.) qazo qilgach, Makka va Madina ulamolari ijmo' (kelishuv) yo'li bilan mamlakat boshlig'i – halifa (Rasulullohning o'rinsari)ni belgilash tamoyiliga amal qilib, Muhammad alayhis-salomning eng yaqin safdoshi, do'sti va qaynotasi Abu Bakr (r.a.)ga hokimiyatni topshiradilar. Undan so'ng hazrati Umar

(r.a.), hazrati Usmon (r.a.) va nihoyat payg'ambarning qarindoshi, kuyovi Ali (r.a.) dastlabki islom davlatini boshqaradilar. To'rt choriyorning faqat bittasi – Abu Bakr (r.a.) o'z ajali bilan o'ldi, qolganlari o'ldiriladi. Muhammad (s.a.v.) davrida boshlangan xalqlarni musulmonchilikka kiritish jarayoni halifalar davrida, keyinchalik ummaviylar, abbosiylar hukmronligi zamonida boshqa xalqlarga ham islomni yoyish shiorlari ostida davom etadi.

**Abu Bakr Siddiq** (573-634) — Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) payg'ambar da'vati bilan islomni birinchilardan bo'lib qabul qilganlar, dastlabki to'rt xalifadan birinchisi (632—634). Tirikligida jannat bashorati berilgan sahobalarning birinchisi sanaladilar. Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) payg'ambarning eng yaqin safdoshi, qaynotasi (mo'minlarning onasi Oysha (r.a) ning otasi). Yirik savdogar. Makkaning quraysh qabilasidan. Islomga kirishdan oldin ismi Abdulka'ba edi. Abdullo ismini Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) qo'y-ganlar. Siddiq deb atalishiga sabab shuki, isro va me'roj hodisa-sini eng birinchi bo'lib tasdiqlaganlar. Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) unga Siddiq, ya'ni iyemoni kuchli deb laqab berdilar. Makkadan Madinaga hijrat qilishda Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) ga hamroh, g'orda birga bo'ldilar. Badr, Uhud, Handaq, Xudaybiya va boshqa joylardagi janglarda ishtirok etdilar. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu obro'li va badavlat kishi bo'lgani uchun ko'p odamlarga yordam qildilar, chunonchi, Bilol Habashiyni qullikdan sotib olib, ozod etdilar. Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) payg'ambar vafotidan keyin birinchi xalifa bo'lib saylandilar (632). Arab qabilalarining Madina hokimiyatiga qarshi ko'targan qo'zgolonlarini bostirdi-lar. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu xalifaligi davrida arab-lar Iraq va Suriyani fath qildilar. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu

Madinada vafot etdilar va Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) payg'ambar yoniga dafn qilindilar».<sup>48</sup>

**Hazrati Umar (r.a.)** odil va dono xalifa bo'libgina qolmadi. U kishi davrlarida Islom futuhoti ancha tezlashdi, Qur'on va hadisni o'rganish va targ'ib qilish kuchaydi. Umar ibn Xattobning (r.a.) xalifalik yillarida ko'plab madaniy-maishiy islohotlar amalgalashirildi. «Hazrati Umar (r.a.) idoraviy va moliyaviy ishlarni takomillashtirishga katta e'tibor berdi, Islom davlatida ilk bor pochta xizmati, taftish idorasi, bolalar uylari, hibsxona tashkil ettirgan ham Hazrati Umar (r.a.) bo'ldi. U kishining davrida pul islohotida katta o'zgarishlar bo'ldi, beqiyos obodonchilik, qurilish ishlari olib borildi. Xalifa Umar (r.a.) Basra, Kufa, Misrdagi Fistat shaharlarini barpo qildi, Nil bilan Qizil dengizni tutashtiruvchi kanal qazitdi, ko'plab ariq va ko'priklar qurdirdi. Makka va Madina, Shom va Hijoz o'rtasidagi qatnov yo'liga musofirxonalar, Islom yetib borgan joylarga ko'plab masjidlar tiklatdi. Makkadagi Masjidul-Haromni va Madinadagi Masjidul-Nabaviyni kengaytirdi».<sup>49</sup>

**Usmon ibn Affon** (taxm. 575— 656) — dastlabki to'rt xalifadan uchinchisi (hukmronlik yillari 644—656). Umaviylar qabilasiga mansub. Makkalik boy savdogar. Muhammad (sav)ning dastlabki izdoshlaridan biri. Musulmonlar guruhi bilan Habashistonga ko'chgan, 623-y. da Madinaga kelgan. Usmon avval Payg'ambar (as)ning qizi Ruqiyaga uylangan (taxm. 610), u vafot etgach, Rasululloh ikkinchi qizi Ummu Kulsumni ham Usmonga nikoxlab bergen (623), shuning uchun «Zun-Nurayn» — ikki nur egasi, degan nom olgan. Usmon yangi xalifani saylashi lozim bo'lgan sho'ro tomonidan xalifa qilib tayinlangan. Usmon hukmronligi davrida soseniylar davlatini fath etish tugallandi,

<sup>48</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu\\_Bakr\\_Siddiq](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Bakr_Siddiq)


<sup>49</sup> [https://vk.com/topic-41496195\\_28834086](https://vk.com/topic-41496195_28834086)

musulmonlarning Tunis va Kavkazorti o'lkalari dagi mavqeい mustahkamlandi. Usmonning buyrug'i bilan Qur'oni karim matni to'planib, bir butun (mus'haf) kitob shakliga keltirildi va turli o'lkalarga tarqatildi, Masjidi Nabaviy kengaytirilib, qayta ta'mirlandi. Rumo arig'i qazildi. Umrining oxirgi yillarda bиринчи bor xalifaga muxolifat yuzaga keldi, qo'shin va viloyatlardagi zodagonlar o'rtasida Usmon siyosatiga qarshi norozilik kuchaydi. U. Madinada, Qur'on o'qib turgan chog'ida dushmanlari tomonidan o'ldirilgan.

**Xalifa Ali ibn Abu Tolib** (599-661) Rasulullohу sallallohu alayhi vasallamning amakilari Abu Tolib xonadonida tavallud topdi. Bu paytda Rasulullohning yoshlari o'ttiz ikkida edi. Hazrati Alining otasi Abu Tolib Qurayshning ulug' va atoqli shaxslaridan bo'lib, Nabiy sallallohu alayhi vasallamga Quraysh mushriklari aziyat yetkazganda himoya qilgan, Islomni qabul qilmagan bo'lsada dinga juda katta foydasi tekkan fozil kishi edi. Abu Tolib jiyani Nabiy alayhissalomni eng qiyin va og'ir vaqtarda, ahvollari tang bo'lib qolganda himoya qilardi. Abu Tolib serfarzand kishi edi. Rasuli Akramga payg'ambarlik yuborilmasdan ilgari amakisi Hamza ibn Abdulmuttolib bilan kelishgan holda uning farzandini o'z qaramog'iga olishgan edi. Abbas Hamzaning, Ali esa Muhammad sallallohu alayhi vasallamning hujralarida ulg'aya boshladi.

«Hazrati Alining ranglari bug'doy rang, tepakal va faqat boshining orqa qismidagina sochlari bo'lgan. Soch va soqollari oq tus bo'lgan. Ko'zlari qop-qora, yelkalari keng, kaftlari dag'al, qorindor, to'lalikka yaqin, o'rta bo'yli, tishlari ko'rinish turadigan va chiroyli yuzli, agar yursa, gavdalarini ko'tarib yuradigan kishi bo'lgan. Ota-onasining hamma ishlarida yordam berardi.

Bolalardan birinchi bo'lib Payg'ambarimiz (s.a.v.) keltirgan dinni qabul qiladi».<sup>50</sup>



**Musulmonlarning muqaddas  
Makka shahridagi Ka'ba ziyorati**

Islom dini tarafdarlari jahon aholisining 20 foizga yaqin qismini tashkil etadi. Eng katta musulmon jamoalari Indoneziya (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh (120 mln.), Hindiston (93 mln.), eron (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigeriyada (43 mln.) mavjuddir. Arablar barcha musulmonlarning 20 foizini tashkil etadilar.<sup>51</sup>

## **5.2. Islomda yo'nalishlar va mazhablarning paydo bo'lishi**

Islom dastlabki davrda hech qanday yo'nalish, mazhab va oqimlarga bo'linmagan. 7-asrning o'rtalarida turli siyosiy

<sup>50</sup> <https://www.google.com/search?q=xalifa+all&sca>

<sup>51</sup> <https://azkurs.org/islom-dini ва talimoti-reja-islom-shakllanis>

sabablarga ko'ra, musulmonlar safida bo'linish paydo bo'ldi. Avval shialar, keyin xorijiyalar musulmonlar ommasidan ajrab chiqdilar. Ular o'zining haqligini isbot qilish uchun o'z fikrini, yo'nalishini himoya qila boshladi, shu tariqa har guruhning o'ziga xos aqidasi shakllana bordi.

### **Islomdagi yo'nalishlar:**

**Sunniylik (sunna so'zidan)** - islom dinidagi 2 asosiy yo'nalishdan biri va eng keng tarqalgani. Jahondagi barcha musulmonlarning taxminan 93% i Sunniylikka (qolgan 7% i shialikka) mansub (2004). Sunniylik tarafdarlari, asosan, Osiyo va Afrikada (Pokiston, Bangladesh, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Xitoy, O'rta Osiyo mamlakatlari, Afg'oniston, Turkiya, Arabiston yarim orol va Fors ko'rfazi atrofidagi arab mamlakatlarida, Suriya, Livan, Iordaniya, Shim.Sharqiy va G'arbiy Afrika mamlakatlarida), Bolqon mamlakatlari, Kipr va AQShda yashaydi.

Sunniylik bo'yicha Abu Hanifa (Imomi A'zam) ning "Al-Fiqhul Akbar" asari eng nodir ilmiy meros sanaladi. Bu ishda Abul Hasan Ash'ariy bilan Abu Mansur Moturidiylarning xizmatlari beqiyosdir. Sunniylik yo'nalishida shu ikki alloma asos solgan aqidaviy maktablar barcha sunniy ulamolar tomonidan e'tirof etilgan.

«Sunniylik tamoyillari, asosan, quyidagilardan iborat:

1. Mavjudotlarning haqiqat va mohiyati bor narsa bo'llib, ularni bilish mumkin. Bilish vositalari — beshta sezgi a'zolari, ilohiy manbalar va aql.

2. Olam qadim emas, balki qachondir Alloh tarafidan yaratilgan.

3. Butun borliqni yaratgan Allohnинг zoti bitta, u o'ziga xos azaliy va abadiy ko'pgina sifatlarga ega.

4. Zotiy sifatlari sanalmish ilm, qudrat, hayot, iroda, eshitish, ko'rish, gapirish Allohnинг azaliy va abadiy sifatlaridir. Uning zoti

ham, sifatlari ham o'zi yaratgan maxluqot va mavjudotlarning sifatlariga aslo o'xshamaydi. Uning sifatlari nuqsonisz, barkamoldir.

5. Allohning ismlari ko'p. Hadisda 99 ta go'zal ismlari zikr etilgan.

6. Allohningadolatli ekani. Hidoyat va zalolat yo'llarini ko'rsatib qo'ygach, adashgan va kufr yo'lini tanlaganlarni jazolashiadolat hisoblanadi. Bordiyu, zalolat yo'lidan asrab qolsa — bu Uning fazli, marhamati. Asramasaadolati hisoblanadi.

7. Payg'ambarlarning hammasini barhaq deb tasdiq etish. Ularning adadi garchi ba'zi hadis va rivoyatlarda ko'rsatilgan bo'lsada, muayyan bir adad qatiy deb hisoblanmagani ma'qul. Payg'ambarlarning birinchisi — Odam, oxirgisi — Muhammad.

8. Payg'ambarlarning mo"jizalarini haq deb e'tiqod qilish. Shuningdek, avliyolarning karomatlari ham haq va rostdir. Hech bir avliyo payg'ambar darajasiga yeta olmaydi.

9. Islomning besh rukni — iymon kalimasi, namoz, ro'za, zakot, haj har bir musulmon zimmasiga farzi ayn ekani. Farzlardan birortasini beuzr tark etsa yoki shar'an taqiqlangan ishlarga qo'l ursa qattiq gunohkor bo'lishi, lekin kofir bo'lmasligini tasdiq etish.

10. Ilymon — Muhammad Alloh Taolo tomonidan keltirgan barcha xabar va ma'lumotlarni haq va rost ekaniga til bilan igror etib, dil bilan tasdiqlash deb bilish. Solih amallarni ko'p qilganda iymonnuri ko'payib, gunoh ishlarni ko'p qilganda iymonnuri ozayib turishini tasdiqlash va h.k.

Sunniylikda 4 ta diniy, huquqiy mazhab (hanafiylik, molikiylik, shofi'iylik, hanbaliylik) mavjud. Sunniylik islomda an'anaviy e'tiqod yo'li deb e'tirof etilib kelgan.

Sunniylik bilan shialik o'rtasida hokimiyat masalasida, ayrim diniy marosim va an'analarda birmuncha tafovutlar bor. O'zbekistonda, asosan, Sunniylikka e'tiqod qilishadi.

**Shialik (arabcha guruh, tarafdarlar)** islomdagi asosiyo yo'naliishlardan biridir. O'zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan sunniylikdan keyingi o'rinda turadi. Hozirda jahondagi musulmonlarning qariyib 10 foizi Shialikka mansub hisoblanadi. Shialik VII asr o'rtalarida xalifa Ali hokimiyati tarafdarlaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan. VII asr oxirlariga kelib Iraq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo'naliishga aylangan.

Shialar tarafdarları sunniylar kabi Qur'onni ilohiy deb e'tirof etadilar, lekin xalifalar davrida uning ayrim qismlari qoldirilgan deb hisoblaydilar. Shia ilohiyotchilari Qur'onning mazmunini majoziy talqin qilish yo'li bilan o'z ta'limotlarini asoslaydilar. Sunnada esa ular faqat Ali va uning tarafdarları nomi bilan bog'liq bo'lgan hadislarni tan olganlar va shunday hadislardan iborat mustaqil to'plamlar tuzganlar. Bu to'plamlar ahbor deb atalgan. Sunniylikda e'tirof etilgan diniy aqidalardan farq qilib, shialarda tavhid, adl, nubuvvat, imomat, qiyomatdan iborat 5 ta aqidaga e'tiqod qilinadi.

Bulardan 4 aqida:

- tavhid (Ollohnning yagonaligini e'tirof etish),
- adl (adolat, Ollohnning odilligi, ya'ni taqdir aqidasi)
- nubuvvat (payg'ambarlik) qiyomat yoki ma'od (oxirat kunining kelishi
- o'lganlarning tirilishi) asosan sunniylik ta'limoti bilan mos tushadi.

5-aqida imomat (imomlar hokimiyatini e'tirof etish) esa sunniylikka va sunniy halifalar hokimiyatiga zidligi bilan farq qiladi. Shiyalar Ali va uning avlodlaridan iborat o'n ikki imom

hokimiyatini tan oladi. Shu munosabat bilan barcha xalifalarni xususan dastlabki halifalardan Abu Bakr, Umar va Usmonni hokimiyatni zo'ravonlik bilan egallab olgan shaxslar sifatida qoralaydi. 874-878 yillar orasida 7-9 yoshida bedarak yo'qolgan (tarixiy nuqtai nazardan o'ldirilgan bo'lishi kerak) 12-imom Muhammad al-Mahdiyni ular «yashiringan» hisoblaydilar, zamon-a oxir bo'lganda uning qaytib kelishini vaadolat o'rnatishini kutadilar (imomi Mahdiy, imomi oxir zamon). Bu tasavvur ma'lum darajada sunniylikda ham tarqalgan. Ba'zi urf-odat va marosimlarda, shariat normalarida ham Shiya bilan sunniylik o'rtasida ma'lum tafovutlar bor. Shialar sunniylar kabi Makka va Madinani «muqaddas» hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf shaharlariда joylashgan ibodatxonalarga ham sig'inadilar.

### 5.3. Islomdagi mazhablar

Hanafiylilik.



Nug'mon ibn Sobit ibn Zuta (Abu Hanifa)

Imomi A'zam, Abu Hanifa No'mon ibn Sobit al-Ko'fiy (699, Ko'fa — 767, Bag'dod) — hanafiylik mazhabi asoschisi. Ilohiyotchi, faqih, muhaddis. "Abu Hanifa" uning kunyasi, "Imomi A'zam" ("Ulug' imom") ulug'ligining e'tirofi o'laroq berilgan unvon. Asli fors bo'lib, o'ziga to'q, zodagon oiladan. Olim va fazil insonlar orasida voyaga yetdi. Otasidan qolgan katta boylikni ilm yo'lida sarf etdi. Yoshlikdan Qur'onni yod oldi. Kalom ilmi va mantiqni o'rgandi. 22 yoshida iroqlik ilohiyotchi Hammud ibn Abu Sulaymonga shogird tushib uning ta'limini oldi. Keyin Kufa va Basraning eng obro'li faqiji bo'lib yetishdi va o'zi shogirdlar tarbiyaladi. Kamtar, mehribon, taqvodor inson sifatida hurmat qozondi. Uning 55 marta haj qilganligi haqida rivoyat bor.

Abu Hanifa davrida Iroqda diniy oqimlar soni tobora ko'payib bordi. Bu sektalar orasida ayniqsa ekstremal ta'limotga ega bo'lgan mafkuraviy guruhlar paydo bo'ldi. Shu bilan birga, hukmron Umaviylar sulolasi tomonidan Muhammad payg'ambar (s.a.v) avlodlariga nisbatan siyosiy qatag'onlar to'xtamadi. Mantiqiy tafakkuri kuchli bo'lgan Nug'mon ibn Sobit (r.a) Iroqda o'sha davrda faoliyat yuritayotgan birorta guruh yoki oqimlarga qo'shilmaslikni afzal ko'rghan, aksincha, ilm olish yo'lini, ilm olish usulini va kalomni tanlagan.

Yoshligini ilmga bag'ishlagan bo'lajak ulug' imom ustozи huzurida qunt bilan tahsil oldi va Imom Hammud (r.a) vafotlaridan so'ng uning maktabiga rahbarlik qilib, faoliyatini davom ettirdi. Abu Hanifa (r.a) islom ilmlaridan dars bera boshladi. Imom A'zam (r.a) yoshlarga saboq berar ekan, savdo olami bilan aloqalarini uzmagan. Savdo-sotiq bilan shug'ullanib, shariat nuqtai nazaridan joiz bo'lgan ma'lum daromadga ega edi. Daromad manbasiga ega bo'lib, u mustaqil ta'lim faoliyatini olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Abu Hanifa (r.a.) hech kimga faqat uning fikri eng to'g'ri ekanini aytmagan. Agar kimdir ishonchli dalillarga asoslanib, to'g'riroq fikr bildira olgan bo'lsa, olim o'z fikrini qoldirib, raqibining fikrini qabul qilgan. U ko'pincha shogirdlariga uning barcha so'zlarini yozmaslikni maslahat berib: "Men aytgan har bir so'zni yozmang, chunki ertaga fikrimni o'zgartirishim mumkin". Abu Hanifa (r.a) hech qachon tarafdarlarini aqidaparastlikka chaqirmagan.

Ulug' Imom Nug'mon ibn Sobit Abu Hanifa (r.a) o'z izdoshlariga shunday ko'rsatma qoldirganlar: «Bizning nomimizdan qaysi dalilga asoslanganligini bilmay turib, hech kim fatvo berishi joiz emas».

Abu Hanifa (r.a) islomni faqat bir kishining fikri yoki bir mazhab ta'limoti bilan cheklab bo'lmasligini tushundi. Abu Hanifa ham, boshqa imomlar ham Islom olamida mafkuraviy monopoliyaga erishishga intilmaganlar. Ular sho-girdlari va izdoshlarini Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlarini asos qilib, u zotning yo'lidan borishga chaqirdilar.

Hanafiylikdagi mashhur kitoblar: Muhammad bin al-Xasan ash-SHayboniyning (vafoti 805 yil) "Kutub Zaxirurrivoya" nomli kitobi. Keyinroq uning muhim qismlarini Abul Fodi al-Marvazi "Al-Kofiy" asarida yanada tartibga soldi. Unga SHamsuddin as-Saraxsi (vafoti 1090 yil) "Al-Mabsut" nomli Sharh yozdi.

**Molikiy mazhabi**, Bu mazhab Arabiston yarim orolida rivoj topib, dastlab Hijoz yoki Madina mazhabi sifatida nomlangan va uning aqoidi ko'pinchalik Umar ibn Xattob, Abdulloh ibn Umar, Zayd ibn Sobit, Payg'ambarimiz (s.a.v.) amakilari Abbos va umr yo'l doshlari Oisha faoliyatlari bilan bog'lanadi. Mashhur namoyondalar orasida Ja'far as-Sodiq (vaf. 765 y.) ham bo'lib, keyinchalik u shialikning ja'fariya mazhabiga nom bergan.<sup>52</sup>

<sup>52</sup> <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/manaviyat-asoslari/islom>

**Shofe'iy mazhabi.** Bu mazhab jug'rofiy mintaqasi mahsuli bo'lmasdan, ikki o'zga mazhab bilan yaqindan tanish, Payg'ambar ajdodi Hoshimning akasi Al-Muttalib avlodidan bo'lgan Muhammad ibn Idris ibn al-Abbos ibn Usmon ibn Shofe'iy uning asoschisi bo'ldi. Shofe'iy 767 yili Falastin (G'azza)da tug'ilib, 820 yili Misrda vafot etdi. Shofe'iy "Al-Umm" nomli kitobni yozib (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, kitobni uning shogirdi Ar-Rabiy ibn Sulaymon (884 y.) yozgan), unda nafaqat shofe'iy mazhabini nazariyasini ifodalagan, balki o'zga mazhablar orasidagi ko'plab farqlarni ham izohlab bergan. Mazkur yetti jildlik kitobda turli huquqiy masalalar, Ali va Ibn Mas'ud orasidagi ixtilof, Shofe'iy va Molik qarashlari orasidagi farq Ash-Shayboniy tomonidan Madinaga xos ayrim nazariyalarining rad etilishi o'z aksini toptan.<sup>53</sup>

**Hanbaliy mazhabi.** Bu shaxsiy mazhab, chunki asosan bir shaxs — Ahmad ibn Hanbalning huquqiy qarashlari, qavl va fatvolarini namoyon etadi. Ibn Hanbal 780 yili Bag'dodda tug'ilib, shu yerda 855 yili vafot etgan. Hadis to'plash niyatida Suriya, Hijoz, Yaman, Kufa va Basraga ko'p sayohat qilgan va 40 000 dan ortiq hadisni jam etgan olti jildlik "Musnad al-Imom Ahmad" asarini yaratgan.<sup>54</sup>

Bu mazhabning o'zgalarga nisbatan ko'proq hadislarga tayanishi qonun asoslari jihatidan farq qiladi. Ular hadislar mohiyatini Qur'on oyatlari martabasigacha ko'tarishgan. Hadislarga "qanday?" deb savol bermasdan (bilo kayfa) to'g'ridan-to'g'ri ishonish zarur, deganlar. Hanbaliylarga binoan (Ibn Qayyim al-Javziya - 1350 y.) fiqh asoslari beshta:

1. Qur'on va sunnat matnlari;
2. Sahobalarning fatvolari;

<sup>53</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mazhab>

<sup>54</sup> <https://azkurs.org/islom-oqimlari-va-yonalishlarining-paydo-b>

3. Qur'on va sunnatga muvofiq bo'lgan ayrim sahobalarning qavllari;

4. Isnodi zaif yoki xabar beruvchilar soni kam bo'lgan hadislar;


5. Mutlaqo ilojsiz qolganda, qiyos bo'yicha hukm chiqarish.<sup>55</sup>

Ibn Abd ul-Vahhab keyingi asrlar ulamolari emas, balki Qur'on va sunnatga tayangan boshlang'ich Islomning sarchashmalariga qaytishga da'vat etadi. Vahobiylarning muvaffaqiyati va XX asr Sa'id oilasining hukumat tepasiga qaytishi Saudiya Arabistonida hanbaliy mazhabini rasmiy mazhab sifatida ta'sis etilishiga olib keldi. Shuningdek, hanbaliylik Qatarda rasmiy mazhab va Falastin, Suriya, Iraq va yana boshqa joylarda o'z izdoshlariga ega. Hanbaliylikda Ahmad ibn Hanbalning «Al-Musnad» asari bosh manba sifatida qaraladi

Xorijiylar o'zlaridan boshqalarni "dindan qaytgan" deb e'lon qilgan. Siyosiy va g'oyaviy qarshi chiqganlarga nisbatan ayovsiz kurash olib borgan toifadir. Xorijiylar ta'limotiga ko'ra, xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo'ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto qul yoki qora tanli bo'lsa ham) xalifa bo'lib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl etiladi. Xorijiylar fikricha, e'tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi lozim. Keyinchalik Xorijiylar bir necha mayda guruhlarga bo'linib ketgan. Ummaviy va Abbosiylar 7—9-asrlarda Xorijiylarga qarshi keskin kurash olib bordi. Buning natijasida Xorijiylarning aksar qismi halok bo'ldi. Qolganlari esa Shimoliy Afrikada o'z davlatini vujudga keltirdi. Xorijiylar xalifalikdagi ko'pgina qo'zg'olonlar (Zanjilar qo'zg'oloni, Abu Muslim qo'zg'oloni va boshqa qo'zg'olonor)da qatnashgan. Hozirgi davrda Xorijiylarning "Ibodiylar"firqasi mag'rib

<sup>55</sup> <https://fikr-uz.narod.ru/13.html>

mamlakatlarida (Jazoir, Tunis va boshqa mamlakatlarda), jumladan Ummon va Tanzaniyada uchraydi.



**Davlatlar aholisi tarkibi islom dinida e'tiqod qiluvchi 10% Yashil: sunniy mintaqalar, Qizil: shiiy mintaqalar, Ko'k: Ibodiylar (Ummon)**

#### **5.4. Moturidiya va Ash'ariya ta'liloti.**

**Moturudiya.** Mazkur ta'lilotga movarounnahrlik olim, buyuk ajdodimiz Abu Mansur Moturidiy (870–944) asos solgan. Moturidiy sof diniy aqida doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Moturidiya ko'ra, inson hayotiy imtihonlar uchun yaratilgan. Shu bilan bir vaqtida unga ushbu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish va to'g'ri yo'lni topish uchun keng imkoniyatlar ham berilgan. Inson o'z xatti-harakatlarini tanlashda ixtiyorlidir. Buyuk alloma o'z qarashlari bilan hanafiylik ta'lilotining Markaziy Osiyo xalqlari an'analari, urf-odatlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berdi. Eng Donishmand — baqqolning do'koniga o'xshaydi: borini indamaygina ko'rsatadi-qo'yadi, nodon esa lashkar nog'orasining o'zi: ovozi baland-u, ichi

bo'm-bo'sh va g'arib. Sa'diy Sheroziy Moturidiya ta'limoti XI-XII asrlarda keng miqyosda rivojlangan. Ushbu davrlarda ta'limot nafaqat Movarounnahrda, barki Xuroson, Iroq, Misr va Shom o'lkalariiga ham tarqala boshlagan.<sup>56</sup>

**Ash'ariya ta'limoti.** Ushbu ta'limotga basralik Abul Hasan Ash'ariy (873-936) asos solgan. Imom Ash'ariy umrining yarmini adashgan oqimlarga qarshi kurashga bag'ishlagan. Ash'ariy Muhammad ibn Jarir Tabariy, Ibrohim ibn Ahmad Marvaziy, Mahmud ibn Dovud Isbahoniy, Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal, Abu Mansur Moturidiy kabi olimlar bilan bir davrda yashagan. Ash'ariya ta'limoti ham sunniylik aqidasiga muvofiq ta'limot hisoblanadi. Ushbu ta'limot ham, asosan, mo'taziliya, qadariya, jabariya kabi adashgan guruhlarning aqidaviy g'oyalariga qarshi turgan. Ash'ariya ta'limoti, asosan, Iroqda, so'ngra saljuqiylar hukmronligi davrida Xurosonda rivojlangan.<sup>57</sup>

Tarixdan ma'lumki, islam dini kirib kelishidan oldin xalqlarimiz turli dinlarga e'tiqod qilib kelardi. Arablar istilosи O'rta Osiyo xalqlarining asriy e'tiqodi bo'lmish poligamiya (ko'p xudolilik) dan voz kechishiga olib keldi. O'rta Osiyoga arab Yurishlari 643-644 yillarda boshlangan bo'lsa ham, o'lkani uzilkesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so'ng faqat arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo'lishi oqibatida O'rta Osiyo ikki qismga bo'lindi:

1) Movarounnahr («Daryoning narigi tarafi»)

2) Arodi at-turk («Turklar yerlari», ya'ni arablarga bo'y sunmagan hukmdorlar yerlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladи<sup>58</sup>.

<sup>56</sup> <https://www.ziyouz.com/books/darsliklar/>

<sup>57</sup> Dunyo dinlari tarixi. 10-sinf (2017, Z.Islomov, D.Rahimjonov)

<sup>58</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Arablarning\\_O%CA%8Brta\\_Osiyoga\\_istilos](https://uz.wikipedia.org/wiki/Arablarning_O%CA%8Brta_Osiyoga_istilos)

Yangi Sharoitda ulamolarning boshqa bir toifasining ahamiyati osha bordi. Ular avvaliga xarizmatik (karomatli) Shayxlar, ovloq yerlik (chekka hududlik) Shayxlar nomlari bilan ma'lum bo'ldilar.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun Islomdan avvalgi davrni «Johiliya» davri deyilgan?
2. Islom dinining kelib chiqishi va shakllanish jarayoni haqida nimalarni bilasiz?
3. Islom dinining yo'nalishlari haqida so'zlab bering
4. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi haqida nimlarni bilasiz

## VI BOB. ISLOM DININING AQIDAVIY YO'NALISHLARI VA MAKTABLARI

### REJA

1. Islom dinining muqaddas manbalari
2. Sahobalar davrida shakllangan fiqh markazlari
3. Tasavvuf ilmi-inson haqidagi ilmdir. Najmiddin Kubro
4. Islomdagি oqim va yo'nalishlarning hozirgi kundagi ko'rinishlari va ularning islom birligiga tahdidi.

**Tayanch tushunchalar:** *Qur'oni karim, Sunnat, Qiyoq, Ijmo, firqa, sahabalar, Makka, Madina, Kufa, ma'rifat, ekstremizm. Terrorizm.*

### 6.1. Islomning muqaddas manbalari. Qur'oni Karim va Hadislar xaqida ma'lumot.

**Qur'on islom dining muqaddas kitobi.** «Qur'on (arabcha: o'qimoq, qiroat qilmoq) — musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Islom e'tiqodiga ko'ra, Qur'on vahiy orqali Muhammad payg'ambarga 610—632 yillar davomida nozil qilingan

Islom diniy ta'llimotining asoslari — Qur'on va hadis to'plamlarida, Shuningdek, VIII-XII asrlar davomida vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan. Qur'oni Karim ilohiy kitob bo'lib, u farishta Jabroil alayhissalom tomonidan Muhammadga nozil etilgan. Bu muqaddas kitob yer yuzi musulmonlarning dasturulamali, diniy ahkomlar manbaidir. Qur'oni Karim sahifalarini bir kitobga jamlash xalifa Abu Bakr davrida boshlanib xalifa hazrati Usmon davrida yakunlangan va to'rt nusxada ko'chirilgan. Ana Shu ko'chirilgan dastlabki nusxalardan biri Mavarounnahr musulmonlari diniy idorasida saqlab

kelingan, hozirda esa buYuk bobokalonimiz nomi bilan bog'liq Toshkentdag'i Temuriylar davri muzeyida saqlanmoqda. Bunday muqaddas kitobning yurtimizda bo'lishi Ollohning bizning yurtimizga bo'lgan inoyati deb bilmox lozim. Qur'oni Karimda 114 sura, 6236 ta oyat bor. <sup>59</sup>Muhammad Qur'on oyatlarini Jabroildan qabul qilar, boshqa musulmonlar u kishidan eshitib, yodlab olardilar. Yozishni biladigan odamlar, jumladan, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka'b xurmoning po'stlog'i, yapaloq tosh, katta suyak, teri va shunga o'xhash narsalarga Qur'onni yozib borganlar. Payg'ambar hayotlik chog'ida yana vahiy tushib qolar, degan umidda Qur'on jamlab kitob shakliga keltirilmagan. Payg'ambarning vafotidan keyin Qur'on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida qoldi.



**Qur'onning jamlanishi.** Payg'ambarimiz Muhammad soiialohu alayhi vasallam hayotlik chog'larida «yana vahiy tushib qolar», degan umidda Qur'on jamlanib, kitob shakliga keltirilmagan edi. U zotning vafotlaridan keyin Qur'on kishilarning qalbida va yozgan narsalarida qoldi. Abu Bakr roziyallohu anhu davrida dindan qaytgan murtadlar bilan musulmonlar orasida bo'lib

<sup>59</sup><https://pdfbox.uz/doc/dinshunoslik/14626-islom-va-manaviyat>

o'tgan qattiq janglarda Qur'oni to'liq yod olgan ko'plab qorilar shahid bo'ldilar. Birgina Yamomada Musaylima Kazzobga qarshi bo'lib o'tgan jangda 70 sahabai kirom shahid bo'ldi. Shunda hazrat Umar hazrat Abu Bakrga: «Alloh u zotlardan rozi bo'lsin. Qorilar o'lib ketaversa, Qur'onga zarar yetishi mumkin. Shuning uchun uni kitob shakliga keltirib, jamlab qo'yish kerak», degan maslahatni berdilar. Avvaliga hazrat Abu Bakr roziyallohu anhu ikkilanib turdilar, chunki bu ish Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning hayotlik vaqtlarida qilinmagan edi. U kishi Umar ibn Xattob roziyallohu anhuga: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qilmagan ishni men qanday qilib qilaman?!» – deb turib oldilar.

Umar ibn Xattob roziyallohu anhu ham qat'iy turib: «Alloha qasamki, bu xayrli ish», – deya Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning ortidan qolmay yuraverdilar. Keyinroq, Abu Bakr ham Qur'oni kitob shakliga keltirib qo'yish zarur ekanini anglab yetdilar va Zayd ibn Sobitni chaqirib, bu ishni unga topshirdilar, chunki Zayd ibn Sobit Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam bilan juda ko'p birga bo'lgan, Qur'oni eng yaxshi yod olgan va uni Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning huzurlarida yozib borgan, Payg'ambarimiz oxirgi Ramazon oyida Jabroil farishtaga Qur'oni boshidan to oxirigacha o'qib bergenlarida ham u zotning yonlarida birga bo'lgan edilar.

Zayd ibn Sobit, Umar ibn Xattob roziyallohu anhular va boshqalar Qur'oni karimni puxta yod bilishlariga qaramay, bu buyuk ishning mustahkam, ishonchli bo'lishini ko'zlab, Masjidi Nabaviyda: «Kimning qo'lida yozilgan Kur'on bo'lsa va uning Payg'ambarimiz huzurlarida yozilganiga ikkita guvohi bo'lsa, bizga olib kelsin. Qur'oni jam qilishga xalifaning buyrug'i bo'ldi», deb e'lon qilishdi. Ikkovlari masjidda o'tirib, guvohlarni tekshirib, nihoyatda aniqlik bilan bir yildan ortiq vaqt davomida Qur'oni

jamlab berishdi. Shunday qilib, Zayd va Umar roziyallohu anhu mashaqqatli mehnatlardan so'ng Qur'onni kiyik terisidan ishlangan sahifalarga yozib tugatishdi. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu o'sha sahifalarni «Mus'haf» deb nomladilar. Mus'hafni belidan bog'lab, Abu Bakrning uylariga qo'yib qo'yishdi. Bu Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning xalifalik davrlarida amalga oshirgan eng ulug' ishlardan biri bo'ldi.


**Usmon mus'hafi.** Qur'onning har bir nusxasi musulmonlar tomonidan e'zozlanadi. Ammo ularning ichida Usmon Qur'onlari ning alohida o'rni bor. Toshkentda O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasining maxsus hujrasida saqlanayotgan Usmon Qur'oni bevosita xalifa Usmon davrida (644—656) yozilgan muqaddas qo'lyozma deb hisoblanadi. Hozirgi kunda jahonda «Usmon Qur'oni» degan nom bilan ataladigan 4 qo'lyozma mavjud. Ulardan biri Madinada saqlanayotgan asl nusxa bo'lib, islam manbalarida u «Imom» deb ataladi. Ikkinci nusxa Ka'bada, uchinchi nusxa Qohira (Misr milliy kutubxonasi)da saqlanmoqda. To'rtinchisi Toshkentda, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanib kelinmoqda.

**Hadis** – Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, taqrirlari (ko'rib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o'zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. «Hadis» so'zining lug'aviy ma'nosi – «so'z, xabar, hikoya; yangi». Hadislar islam dini ta'limoti va qonunlari uchun, ba'zi mazhablar nazdida, Qur'onдан keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Hadislar tarkib jihatidan ikki qismdan: aynan xabar beruvchi matn va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – isnoddan iborat.

Hadislar o'zidagi ma'lumot xarakteriga qarab, xilma-xildir: - al-hadis al-qudsiy (bu kabi hadisda ma'no – Allohdan, lafz – Payg'ambardan deb hisoblanadi); - al-hadis an-nabaviy (bunda ma'no ham, lafz ham Payg'ambarniki deb hisoblanadi) va

boshqalar. Hadislar ilk davrda faqat og'zaki ravishda avloddan-avlodga uzatilar edi. Yozma ravishda hadislarni to'plamaslik haqidagi Payg'ambar va xalifalarning ko'rsatmalari, asosan, ilk islam davriga taalluqli edi. Keyingi davrda paydo bo'lgan muhaddislarning fikricha, Payg'ambar o'z so'zlarini yozib olishdan odamlarni qaytarishlariga sabab – hadislarning Qur'on oyatlari aralashtirib yubormaslik lozim edi.

Hadis ko'pincha sunna so'zi bilan ham yonma-yon keladi. Sunna so'zining lug'aviy ma'nosi – «odat», «tariqa», «yo'l» bo'lib, istilohda Payg'ambar odatlari, tutgan yo'li, taqrir (ko'rib qaytarmagan) va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatalidi. Boshqacha qilib aytganda, bu istiloh Payg'ambar turmush tarzini anglatadi.<sup>60</sup>



Hadislar Islom dinida Qur'onidan keyingi muqaddas manba. Hadislar to'plami sunnat deb ataladi. Hadisi Shariflarda Muhammad alayhissalomning so'zлari, qilgan ish faoliyatları va sahabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon ettirilgan.

<sup>60</sup> <https://azkurs.org/reja-islam-shakllanishidagi-tarixiy-sharoit-isl>

**«Imom al-Buxoriy.** (810.-870) islom olamining yirik mutafakkiri. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultonide deb ham yuritiladi. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo'lgani "Al-jome' as-Sahih"dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo'lgan ilmlarga oid bir qator o'ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo'lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: «Al-jome' as-sahih», »Al-adab al-mufrad» «At-tarix al-kabir», «At-tarix as-sag'ir», «At-tarix al-avsat», «At-tafsir al-kabir» «Birrul validayn», «Asmo as-sahoba», «Kunyalar» va boshqalar. Ular orasidagi «Al-jome' as-sahih» asari islom olamida Qur'onidan keying eng muhim manba sifatida e'zozlanuvchi manba hisoblanadi. Imom Buxoriyning hadislar to'plash borasidagi qo'ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlari dan ko'ra aniqroq bo'lgani sababli «Al-jome' as-sahih» asari «Eng ishonchli hadislar to'plagan» nomiga sazovor bo'lgan. Muhaddislar hadislarning roviylarini o'zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo'lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarning roviylari o'zaro uchrashganini alohida ko'rgan guvohning e'tirofini ham shart qilib qo'ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al-Asqaloniying hisobiga ko'ra «Al-jome' as-sahih»dagi hadislarning soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qo'shilsa, kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi.

Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko'plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi.

Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa'yu ko'chishlari bu vaqtda Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan «Kitob al-favoid» («Foydali ashylar haqida kitob»), «Al-Jome' al-kabiyr» («Katta tayanch»), «Xalq af'ol alibod», («Alloh bandalari ishlarining tabiati»), «Al-Musnad al-kabiyr» («Katta tayanch»), «At-tafsir al-kabiyr» («Katta tafsir»), «Kitob al-xiba» («Xayr-ehson haqida kitob») va boshqa asarlar-ning ba'zilari bizgacha yetib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor».<sup>61</sup>

## 6.2. Sahobalar davrida shakllangan fiqh markazlari.

O'rta asrlarda islom olami ilm-fan va ma'rifatning, shu bilan birga san'at, madaniyat va me'morchilikning ham markazi bo'lgan Bog'dod, Damashq, Kufa, Basra, Samarqand va Buxoro kabi shaharlar o'sha davrda ilm-fan va madaniyat o'chog'i bo'lgan.

Sahobalar davrida quyidagi fiqh markazlari shakllandı :

- A) Madina maktabi;
- B) Makka maktabi;
- V) Kufa maktabi;
- G) Misr maktabi;
- D) Shom maktabi;

Hanafiylig asoschisi Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobit Kufa maktabi faollaridan bo'lgan. U hijriy 80-150/milodiy 699-767 yillarda hayot kechirgan. Ko'fa shahrida voyaga yetgan. Xayruddin Zirikliy «Al-A'lam» kitobida Imom A'zamning otasi Sobit haqida quyidagilarni qayd etgan: «Sobitning

---

<sup>61</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom\\_al-Buxoriy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy)

otasi Zutiy Ali (r.a.)ning oldiga boradi va unga hadya berib, o'g'li Sobitning haqiga duo so'raydi. Ali ibn Abi Tolib uning va avlodlarining haqiga baraka tilab duo qiladi».<sup>62</sup>

Sobit solih, xudojo'y inson bo'lib voyaga yetdi. Naql qilinishicha, Sobit Ko'fa shahrida birovning olmasidan bir tishlamni ruxsatsiz yegani uchun egasidan halollik so'raganida, uning imoni pok ekanini ko'rgan olma sohibi qizini nikohlab beradi va keyinchalik bu nikoh sabab Imom A'zam dunyoga keldi.

No'mon ibn Sobit Ko'fa shahrida ilm ahllari orasida voyaga yetdi. Bilimi chuqur inson sifatida tanildi. O'z kasbi orqasidan kun kechirar edi. Chunki otasidan unga katta boylik meros qolgan edi va uni tijoratga sarf etib, daromadini ilmu ma'rifat yo'lida sarf etardi.<sup>63</sup>

### Kufa fiqh maktabi

Abu Ja'far ibn Mas'ud Abu Hanifadan kimdan ta'lim olgansan, degan savoliga Abu Hanifa: «Alining izdoshlari orqali Alidan...» deb javob berdilar. Ali roziyallohu anhu Umar roziyallohu anhu davrida Kufa fiqhiy maktabida ta'lim bergenlar va ular bilan bir davrda mashhur sahobalardan Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu Islom ta'limoti va fiqh ilmlari bilan shug'ullanib kelishgan. Ularning fiqh ilmi borasidagi ilmlari esa izdoshlari orqali Abu Hanifa rohimatullohga yetib borgan. Ali va Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhularning Kufa fiqh maktabidagi foaliyatları haqida tarixiy manbaalarda ma'lumotlar ko'p. Keyinchalik bu madrasadan Shurayh ibn Horis Kindiy, Ibrohim ibn Yazid Naxa'iy, Sa'iyd ibn Jubayr kabi mashhur faqihlar yetishib chiqdi. Imom Abu Hanifa esa bevosita mazkur shaxslarning o'zidan yoki shogirdlaridan ta'lim olganliklari ularning faqih sifatida yetuk olim bo'lislari katta hissa qo'shgan.

<sup>62</sup> <https://savollar.muslimaatuz/maqola/37631>  
<sup>63</sup> <https://savollar.muslimaatuz/maqola/37631>

## **Basra fiqh maktabi**

Abu Ja'far ibn Mas'ud Abu Hanifadan kimdan ta'lif olgansan, degan savoliga Abu Hanifa: «Umarning izdoshlari orqali Umardan...» deb javob berdi. Tarixdan ma'lumki Basra fiqh maktabi asoschisi Umar ibn Xattob roziyallohu anhu hisoblanadi. Umar roziyallohu anhu Basra shahriga ilm tarqatish, insonlarga Qur'onidan, Sunnatdan shariatdan ta'lif berishligi uchun kuchli sahabalarni u yerga yuborganlar. Abu Muso Ash'ariy, Anas ibn Molik, Imom Hasan Basriy, Muhammad ibn Siyrin kabi faqihlar shular jumlasidandir. Mazkur sahabalar Basra fiqh maktabining rivojiga o'z hissalarini qo'shishgan bo'lib keyinchalik ularning ilm bulog'idan Abu Hanifa rahimatullohi alayhi kabi buyuk allomalar yetishib chiqdi.<sup>64</sup>

### **6.3. Tasavvuf tushunchasining mazmun-mohiyati va g'oyalari. Tasavvuf ilmi-inson haqidagi ilmdir.**

**Tasavvuf so'zi** «So'fiy» so'zidan, «So'fiy» so'zi esa arabcha «So'f» so'zidan yasalgan. So'f deb arablar jundan bo'lgan matoni aytadilar. Dastlabki davrlarda so'fiylik yo'lini tutgan kishilar, boshqa oddiy kishilardan ajralib turish uchun jundan tikilgan chakmon (u hirqa deb ham aytilgan) yoki po'stin kiyib Yurishni odat qilganlar. Shuning uchun ularni jun chakmon kiyib Yuruvchilar, ya'ni so'fiylar deb ataganlar. So'fiy boshqa odamlardan o'zini pok va g'aribona turmuSh kechirishi, qo'yishi bilan tubdan farq qiladi. YAgona istak bu Ollohning diydoriga etishishdan doimiy toat-ibodatda bo'lishi va faqat ilohiy ruhga qo'shilishni maqsad qiladi. <sup>65</sup>Faqirlilik tuyg'usiga ega inson na birovga banda-Yu, na birovga xoja, u yolg'iz Ollohga banda, u

<sup>64</sup> <https://xadicha.uz/oz/news/479>

<sup>65</sup> <https://muslim.uz/uz/e/post/21471-tasavvuf-haqida-tasavvur-tasavv>

yolg'iz Ollohg'a ehtiyoj sezadi. Hamma narsadan voz kechish, oxir oqibatda o'zlikdan kechish – so'fiylik ta'limotining ma'nisi mana Shu. Tasavvufda insondagi jamiki xudbinlklar, illatlar, razolat dunyosiga hirs qo'yish jism ehtiyoji va nafs ta'masidan kelib chiqadi, deb o'rgatiladi. Komil inson bo'lisl uchun avvalo, jism va nafs ehtiyoji va ta'masini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish kishini nafsiq qul qilib qo'yadi. DarveSh, so'fiy nafsn rad etadi. Nafs barcha falokatlar sababchisi, insonni tubanlashtiruvchi narsa. Insonni falokat botqog'idan, tubanlik jaridan qutqarib, uni poklashning birdan-bir yo'li nafsning ehtiyojini yengishdir. Buning uchun dunyo muhabbatidan voz kechish va Olloh muhabbatiga ko'ngil bog'lash darkor. So'fiylikda buni dunyo mohiyatini va o'zligini, insoniylikni anglash yo'li deb qaralgan. O'zligini anglagan kishi esa dunyo va uning boyliklari o'tkinchi ekanligini anglaydi. Xoja Bahouddin aytadilar: «o'z nafsining yomonligini tanish o'zligini tanishdir». «Shuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki, tasavvuf ta'limoti taraqqiyotida Turkiston farzandlarining xizmati beqiyos bo'lgan. Xoja hakim at-Termizi, Shayx Abu Mansur al-Maturidiy as-Samarqandiy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Shayx Najmuddin Kubro, Xoja Ali Romitaniy, Abu Ali al-Farmadiy, Yusuf Hamadoniy, Bahouddin NaqShband kabi siymolar ilohiy ma'rifat yo'lining rahnamolari bo'ldilar.

**Kubroviya.** Shayh Najmuddin Kubro (Nadjm-id-din Abu-l-Jonib Ahmad ibn Umar alh-Xivaki alh-Xorazmiy, 1145-1221) — XII asr so'fichiligining taniqli namoyondasi, fan sohasida o'zidan so'ng boy meros qoldirgan olim. «Kubraviya», ya'ni «Zaxabiya» - oltin nomini olgan uning ta'limoti nafaqat Xorazmshohlar sultanati, balki butun islom olami ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Najmiddin Kubro 1145 yil Xorazmda tug'ilgan va umrining birinchi yarmini sayohatlarda o'tkazgan (Nishapur, Xamadon, Isfaxon, Makka, Iskandariya). U ona diyoriga 1184 yil qaytib kelib, Urganchda xonaqoh va Kubraviya tariqatiga asos soladi.

Shu davrdan e'tiboran, uning faoliyati Markaziy Osiyoda o'tib, ko'plab shogirdlar chiqaradi. Ular orasida tasavvuf ilmining mashhur nazariyotchilari va so'fichilikka doir ilmiy mehnatlar mualliflari bor. Xususan, tasavvufchi-shoir Najmiddin Dayya Roziy (1256 yil vafot etgan), Sa'd id-din Xammuya (1252 yil vafot etgan), Sayf id-din Bahorziy (1261 yil vafot etgan) va boshqalar.

Chingizxonning shaharni tark etish iltimosiga qaramay, Najmiddin shaharda qolib, o'quvchilar bilan birga qo'lida quroq ko'tarib, Urganchni himoya qiladi. Uning qabri Kunya Urganch shaharchasidagi xonaqoh oldida joylashgan.<sup>67</sup>

Najmiddin Kubro tasavvuf ilm yo'nalishidagi o'z maktabini yaratgan. U Ulamolar Sultonı Baxovuddin Valid, Majiddin Bog'dodiy va boshqa taniqli so'fi shayhlari va shoirlarining ustozи bo'lgan. Kubraviya ta'limotiga ko'ra, inson kichik bir dunyo bo'lib, o'zida kichik dunyoga sig'uvchi barcha narsani jam etgan. U rang-yorug'lik ramziyligiga aniq ta'rif bergan, buni tasavvuf mashqlari jarayonida kuzatish mumkin, — bular dog' nuqtalari va aylanalar: qalb qora nurda namoyon bo'lувchi jarayonlardan o'tadi va ora-sira qora-qizil tusga kiradi, toki yashil rang paydo bo'limganiga qadar, ya'ni ilohiy marhamat darajasigacha ko'tarilmaguncha davom etadi.

Al Kubro o'z qarashlarini arab tilidagi risolalarida bayon etgan, ulardan ayrimlari Xoja Bahouddinning «Ko'ngil Ollohdha bo'l sinu, qo'ling esa ishda» hikmatlarining inson ma'naviy dunyosi takomilidagi ahamiyati beqiyosdir.

<sup>67</sup> <https://arboblar.uz/uz/people/nazmiddin-kubro>

Tasavvuf tariqatlari haqida so'zlaganda Najmaddin Kubro asos solgan kubroviya haqida ham to'xtab o'tishni maslahat beramiz. Biz Najmaddin Kubro siy whole side faqat tariqat boshchisini emas, balki o'z vatanini, xalqini dildan sevgan ingsonni ham ko'ramiz. 1221 yilda bosqinchi mo'g'ul galalari qadami Xorazmga yetib boradi. Muhammad XorazmShoh mamlakatni, fuqaroni o'z holiga tashlab qochadi. Shu qaltis damlarda Urganchni himoya qilishga 76 yoshlik Najmaddin Kubro boshchilik qiladi va jangda qahramonlarcha shahid bo'ladi. Uning siy whole side xalq qahramoni sifatida asrlar osha yashab kelmoqda.<sup>68</sup>

**Yassaviya.** Movarounnahrda tasavvuf yo'nali shining vujudga kelishi shayx Abu Ya'qub Yusuf Hamadoniy (vaf. 1140–41-y.) shaxsi bilan bog'liq bo'lsa-da, XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir.

Xoja Ahmad Yassaviy bugungi Qozog'istonning janubidagi Chimkent viloyati Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, u Yassida (hozirgi Turkiston) tavallud topgan. Ahmad Yassaviy o'zining «Devoni Hikmat» asarida ma'naviy poklanish, axloq, halollik, bag'rikenglik g'oyalarini she'riy uslubda bayon qilgan. Yassaviylikning o'ziga xos jihat oshkora uslubda zikr va duolar o'qish, dunyo lazzatlaridan qisman voz kechishda aks etgan. Yassaviylikka xos xususiyatlar keyinchalik yuzaga kelgan ko'plab tariqatlarda aks etgan.

**Naqshbandiya** XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan tasavvufiy tariqatdir. Bahouddin Naqshband (1318–1389) — islom olamining eng mashhur avliyolaridan biri, Buxoro viloyatida tug'ilgan. Bahouddin Naqshbandning asl ismi — Muhammad. Otasining ismi ham Muhammad bo'lgan. Yoshligida

otasi bilan birga kimxobga naqsh solish hunari bilan shug'ullangani uchun Naqshband laqabi bilan mashhur bo'lgan. «Bahouddin» so'zi «dinning nuri» degan ma'noni anglatadi. Naqshbandiylik ta'lomi asosida «Qalbing Allohdha bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin», degan shior yotadi. Bahouddin Naqshband tasavvufdag'i ilgarilari amalda bo'lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi va kundalik turmushga mosladi. Naqshbandiyada zohir (tashqi ko'rinish) va botin (ichki olam) o'zaro ajratilgan. Bu so'fiylikni xalq orasida oshkor etmaslik, boshqalardan ajralib turmaslik, xilvatga chekinmaslik, mehnat qilib kun ko'rishdan voz kechmaslik, oila, bola-chaqa boqish mas'uliyatini zimmaga olish, boshqalar (qul va cho'rilar) mehnatidan foydalanmaslik kabi ezgu tartib-qoidalarga qat'iy amal qilishni talab qiladi. Naqshbandiya tariqatining asosiy tarbiya usuli suhbatdir. Naqshbandiyalar suhbatning foydasi ko'p, suhbat orqali inson qalbiga kirib borish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bu tariqat quyidagi to'rt tamoyil asosiga qurilgan:

- 1) shariat bilan xulq-atvorni poklash;
- 2) tariqat bilan qalbni poklash;
- 3) haqiqat bilan Allohga yetishmoq;
- 4) ma'rifat bilan Allohga erishmoq.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tasavvuf ilmi sohiblari-ning nomlari abadiylashtirilib, ehtirom ko'rsatildi. Hozirgi paytda dunyoning ko'p mamlakatlarida, Amerika Qo'shma Shtatlaridan to Avstraliya arxipelagigacha bo'lgan hududda Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqati ma'lum va hurmatli maqomga ega. Chunki Bahouddin Naqshband, avvalo, islam dini shariati mezonlarini mahkam ushlagan va ularning buzilishiga yo'l qo'yagan. Ikkinchidan, u chin insoniy g'oyalari va fazilatlarni ilgari surgan, jamiyatning turli vakillari o'rtasida futuvvat — javonmardlik rishtalari paydo bo'lishiga turtki bo'lgan.

#### **6.4. Islomdagi oqim va yo'nalishlarning hozirgi kundagi ko'rinishlari va ularning islom birligiga tahdidi.**

Markaziy Osiyo xududiga diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar faoliyatining kirib kelishi 90- yillarning boshlariga to'g'ri kelib, islom dinini siyosiyashtirib, xokimiyatni egallab olishga xarakat qilgan bu yaramas, mash'um oqimlar yaxlit jamiyat a'zolarini, ayniqsa musulmonlarni bir-biriga zid turli xil guruxlarga bo'lib, parchalab tashlashga, jamiyatdagi barqarorlik, osoyishtalikka qarshi qaratilgan yovuz, mudxish, terroristik, talonchilik xarakatlarini olib borishga urindilar.

Diniy ekstremizmning eng ashaddiy, urushqoq, birodarkush jangarilari vaxxobiylardir. Ular Qur'onga sodiqmiz, xadislarning ximoyachilarimiz deb og'izda da'vo qilib, amalda ularni niqobga aylantirib, tinchlikka taxdid solib, osuda musulmonlar orasida qonuniy xokimiyatdan norozilik uyg'otib, uni ag'darib tepasiga chiqib olib, siyosiy islomga asoslanadigan feodal teokratik xalifalashtirilgan davlat o'rnatishdan iborat.

Fundamentalist ekstremistlar, ularga xayrioxlik qiladigan vaxxobiylar yoshlar orasidagi bilimi sayoz, ongi past, ma'naviyati qashshoq, barqaror, muxim mavqeiga ega bo'limgan, tarixiy xotiradan maxrum bo'lgan laqma yigitlarni yo'ldan ozdirayotilar. Ularga qop-qop va'dalar berib, ta'bir joiz bo'lsa, qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib, to'g'ri yo'ldan ozdirganlar. Afsuski bunday nusxalar orasida ayrim Oliy o'quv yurtlarining talabalari xam bo'lgan.

**«Hizbut tahrir»** (to'liq nomi "Hizb at-tahrir al-islomiy" — "Islom ozodlik partiyasi") — siyosiyashgan diniy tashkilot (oqim). «Falastinda Taqiyuddin Nabboniy (1909—1979) asos solgan. U "Musulmon birodarlar" guruhining Falastin bo'linmasida faoliyat yuritib, 1953-yil maslakdoshlari bilan mazkur

bo'linma a'zolarini yangi diniy-siyosiy partiya — "Hizbut tahrir"ga birlashtirgan.

"Hizbut tahrir" ta'limoti Taqiyuddin Nabhoniy va uning izdoshi Abdul Qadim Zallumning "Islom nizomi", "Islom davlati", "Xalifalik", "Islomiy olamga qaynoq nidolar", "Hizbut tahrirning tushunchalari", "Demokratiya — kufr nizomi" va "Siyosiy ong" kabi kitoblarida bayon etilgan. Ularda dunyoviy davlat tamoyillari qoralangan, demokratiya, konstitutsiya, saylov kabi siyosiy tartibqoidalar inkor qilingan hamda diniy mutaassiblik g'oya-larini targ'ib qilish, siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish va xalifalikka asoslangan tuzumni o'rnatish yo'llari ifoda etilgan.

Nabhoniy dastavval maqsad sifatida Falastinda shariat asosidagi davlat qurishni e'tirof etgan. Keyinchalik esa u partiyaning asosiy maqsadi — musulmon dunyosini birlashtiruvchi yagona xalifalik davlatini qurish, deb e'lon qildi. "Hizbut tahrir" faoliyati 1950—60 yillarda Yaqin Sharqda, 1970—80 yillarda Janubiy Osiyoda, 1990-yillarda Markaziy Osiyoda va MDHga a'zo bo'lgan ba'zi mamlakatlarga tarqaldi. Tashkilot G'arbiy Yevropa-dagi bir necha mamlakatlarda ham o'z bo'linmalariga ega. Ma'lumotlarga ko'ra, tashkilotning Buyuk Britaniyada joylashgan bo'linmasi muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi. O'zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar kengashining 1999-yil 16-iyundagi "Din niqobi ostidagi dinbuzarlik haqida"gi fatvosida "Hizbut tahrir" va boshqa buzg'unchi toifalar faoliyati qattiq qoralangan».<sup>69</sup>

**Akromiylar** (bazan **Akramiya** deb ham ataladi) — Akrom Yo'ldoshev tomonidan asos solingan diniy-siyosiy guruh (oqim). Akromiylar 2005-yil may oyida O'zbekistonning Andijon shahridagi qo'zg'olondan keyin keng tanildi.

<sup>69</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Hizbut\\_tahrir](https://uz.wikipedia.org/wiki/Hizbut_tahrir)

Qozog'iston hukumatining tahminlariga ko'ra, **Akromiya** 1996-yil terrorchi Akrom Yo'ldoshev tomonidan Hizb ut-Tahrir-dan ajralib chiqqan holda Farg'ona vodiysi hududida tuzilgan guruh. Guruh a'zolari, asosan, hunarmandlardan iborat bo'lgan. Ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mehnat faoliyati bilan shugullanganlar. Ular mavjud tuzumni tan olmaydilar, davlat, qonun, ota-onaga emas, faqat oqim sardorlariga bo'ysunish lozim deb hisoblaydilar. Akromiyalar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirishgan:

«Sirli» yoki «maxfiy», Moddiy, Ma'naviy. «Uzviy maydon», «To'ntarish».

O'zbekiston sobiq bosh muftiysi Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf »Akromiyaning Hizb ut-Tahrir va boshqa radikal siyosiy islomiy tashkilotlar bilan hech qanday aloqasi yo'q. Men Akrom Yo'ldoshevning ta'limotini bid'at deb bilishimning mutlaqo boshqa sabablari bor» degan edi.<sup>70</sup>

### Nazorat savollari

1. VI – VII asrlarda Arabiston yarim orolida ijtimoiy-siyosiy vaziyat
2. Islom dinining payg'ambari Muhammad s.a.v. hayoti va faoliyatini gapirib bering.
3. Muqaddas Qur'oni Karimning yaralish tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Islom linini yoyishda Halifalarning roli qanday bo'lgan? Islom dini qanday sabablarga ko'ra bolinib ketdi?
5. Xozirgi paytda jahonda yuz berayotgan terrorchilik va ekstremizmni islom bilan bog'lab ko'rsatishlariga javobingiz?

<sup>70</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Akromiyalar>

## Xulosa

Ko'p millatli, ko'p konfessiyali O'zbekistonda mustaqillikka erishilgan ilk yillardanoq din, bag'rikenglik masalalariga katta e'tibor berildi. Dinning insonparvarlik falsafasi, ezgu g'oyalari va buyuk ajdodlarimiz merosidan bahramand bo'lish, ushbu yuksak qadriyatlarning yoshlar qalbidan joy olishi uchun mamlakatimiz ta'lif tizimi sohasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayonini, tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi: sobiq sovet tizimining ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi. Yangi O'zbekistonning Asosiy qonuni bolmish Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar buning yorqin dalilidir. 2023 yilning 30 aprelida o'tkazilgan Umumxalq referendumida 1-moddaga O'zbekistonning dunyoviy davlat ekanligi kiritildi. Ya'ni, «O'zbekiston- boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi» deb qayd etildi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinding davlatdan ajratilishi tamoyili uning asosini tashkil etishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 75-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirilar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi».

Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkam qo'yilgan. Avvalo diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'iy nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradi.

Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Davlatning dinka bo'lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi. Davlat va din munosabatlarining yana bir asosiy xususiyati bu dinning siyosatga aralashmasligidir. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy-axloqiy jihatni o'z ichiga oladi. Hech qaysi din o'zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha jihatlarini qamrab olishga da'vogarlik qilmaydi. Aks holda u din bo'lmay qoladi.

E'tirof etish lozimki, har qanday diniy e'tiqod kabi islom ham barcha davrlarda, shu jumladan, dahriylik keng targ'ib etilgan sho'ro tuzumi zamonida ham, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy-ruhiy hayotga o'z ta'sirini o'tkazib turgan muhim omillardan biri bo'lib qolavergan. Ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy-ruhiy hayotning uyg'unligi esa, har qanday jamiyatning ichki siyosiy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan ekani sir emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, din va siyosat o'rtasidagi muayyan bog'liqlikni inkor etib bo'lmaydi. Buning sababi esa islomning xalqimiz ongu shuuri va mentalitetiga shu qadar singib ketganidadir. Uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi.

Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, islom dini va musulmonchilik degan tushuncha bizning mintaqamiz uchun faqat o'tmish va bugun tajribasigina bo'lib qolmasdan, u kelajak voqelegi hamdir. Islomning jamiyat hayotidagi roli tom ma'nodagi hurfikrlilik qaror topayotgan mustaqillik davrida o'zini yanada yaqqolroq namoyon etayotgani ham shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Dunyoviy davlat va jamiyat eng avvalo, qonun ustuvorligini taqozo etadi. «qonun – barcha uchun barobar» degan demokratik tamoyil, shubhasiz, diniy jarayonlarga ham taalluqlidir. Ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotning boshqa har qanday sohasi kabi diniy jarayonlar ham faqat qonun belgilab qo'yilgan mezonlarga muvofiq ravishda rivojlanishga haqlidir. Ifodalı qilib aytganda, qonun barcha boshqa sohalarni me'yorga solib turgani kabi diniy vaziyat evolyutsiyasi ham, hech qanday chekinish-larsiz, unga bo'ysunishga majbur. Bu ish demokratiyaning asosiy tamoyillaridan bo'lgan vijdon erkinligi, xususan, e'tiqod erkinligini chegaralash hisobiga qilinmaydi, albatta. Aksincha, azal-azaldan demokratik jamiyatning bosh mezoni bo'lib kelgan qonun ustuvorligini ta'minlash orgali amalgal oshiriladi.

*Jadvallar*

### Islomdagi ikki yo'nalish: Sunniylar va Shiyalarning qarashlaridagi farqlar quyida bayon etilgan:

Sunniylar	Shialar
<p>Sunna (Ar.dan - namuna, misol)</p> <p>Sunniylar - Qur'onda ifodalangan ta'lilotning barcha asosiy qoidalarini qabul qiladilar, shuningdek, an'anaga, sunnatga, hadislarga amal qiladilar. Qur'ondan keyin musulmon ta'lilotning ikkinchi manbaidir. Unda Muhammad sollallohu alayhi vasallamning so'zları va amallari tasvirlangan.</p>	<p>Shialar (Ar.dan shia tarafdarları, partiya, mazhab). Shialar ham sunniylar kabi Qur'onning hokimiyatini tan oladilar, lekin ular sunnatni to'liq emas, balki tanlab tan oladilar. Sunnat to'rtinchi xalifa Ali muallif bo'lgan hadislarnigina tan oladi. Shu bilan birga, shialarning o'zlarining "muqaddas kitoblari" bor,ya'ni, Ali va uning vorislari faoliyati bilan bog'liq hadislarni o'z ichiga olgan axborlar.</p>
<p>To'rt xalifaning barchasi qonuniy voris sifatida tan olingan: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali. Ular Alining alohida muqaddasligini inkor etadilar</p>	<p>Faqat to'rtinchi xalifa Ali va uning avlodlari musulmonlar jamoasining ma'naviy va dunyoviy boshlig'i (imom) sifatida Muhammad payg'ambarning qonuniy davomchilari sifatida tan olingan. Shialar orasida Ali Muhammad bilan deyarli tengdir.</p>

	<p><b>Hammasi bo'lib, shialar Alidan keyin 12 ta imomni taniydilar, 12-si esa yashirin (an'anaga ko'ra, u sirli ravishda g'oyib bo'lgan, ammo qiyomatgacha paydo bo'ladi).</b></p>
Sunniy ilohiyotchilar diniy va ijtimoiy hayotning eng muhim masalalari bo'yicha o'zлari qaror qabul qilish huquqidan foydalanmaydilar. Ularning vazifalari, birinchi navbatda, muqaddas matnlarni talqin qilish bilan chegaralanadi.	Katta shia ilohiyotchilari eng muhim diniy, huquqiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha mustaqil hukm chiqarish huquqidan foydalanadilar.
YIII-IX asrlarda. Sunniylar orasida mo'taziliylar harakati paydo bo'ldi. Ular Qur'онни Xudo tomonidan emas, balki odamlar tomonidan yozilgan kitob sifatida tan olishdi.	<p>VII-asrdan XX-asrgacha shialar orasida ko'plab oqim va oqimlar paydo bo'ldi. Farqlari asosan, ayrim imomlarni tan olish yoki tan olmaslik bilan bog'liq edi. Mazhablar o'z nomlari bilan atalgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Zaydilar</li> <li>• Ismoiliylar</li> <li>• Druzlar</li> <li>• Imomiylar</li> <li>• alaviylar</li> <li>• Hashishiya (qotillar)</li> <li>• Tasavvuf</li> <li>• Ahmadinlar</li> <li>• Vahobiylar</li> <li>• Bahoiylar</li> </ul>

## Dinlar tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar

Din nomi	Muqaddas kitobi	tilli	Sig'inish ob'yekti	falsafasi	davri	Geografiyasi	e'ttiqod quvchilar soni	belgisi
Xristian dini	Bibliya (qadimiy ahd, yangi ahd)	latin orom	Trotsa, Iso Masih apostollar	Xristian falsafasi, monoteizm	Miliodiy 1 asr	Falastin, Rim imperiasi	2,3 mlrd	+
Islam dini	Qur'on, Hadislar	arab	Allah, Muhammad,	Islam falsafasi monoteizm	610 yil (VII asr)	Arabiston	2,2 mlrd	★
Buddizm	Tripitaka	pali	Buddha, Bodhisattv	Buddha falsafasi, reinkarnatsiya	m.av.VI asr	Hindiston, Xitoy, Hindistox	468 mln	
Zardushtiylik	Avesto	pahlaviy	Zardusht, Axura Mazda, Mitra, Varuna	Dualistik falsafasi. (ezguilik va yomonlik xudolar)	M.av. XVIII asr	Markaziy Osiyo, Eron	180 mln	-
Yahudiylik dini	Tanax (Tora, paygambarlar, hittiklar) Talmud	İvrit, oromiy	Iso, Muso, Yahyo, Ibrahim, Dovud, Nux	Iudeanzm falsafasi. monoteizm	m.av. XV-XII asrlar	Falastin, Qadimgi Mist, Bobil	14 mln	❖
Vedalar va veda dinlari	vedalar	sanskrit	Indra, Viahnu, Surya va 33 min yarim xuddolar	Vedalar falsafasi	m.av. 5600 yil	Hindiston	Qadimda mayjud bo'lgan din	❖
Indulzm	Veda, upanishada, Dxarmashastr, Mahobxora, Ramayana	sanskrit	Braxman, Trimurti, Vishnu, Krishna, Shiva	Hind falsafasi. Yoga, meditalsiya, dxarma, karma, vegetarianlik	m.av.V asr	Hindiston		ॐ
Konfutsizm	Si Shu, U Dzin	Xitoy tilli	Osmon xudosi, ruhlar. Konfutsiy	Xitoy falsafasi, Dzyundzli, Syao	m.av 551 yil	Xitoy	6,4 mln	水
Sintoizm	Kodziki, Nixongi	Eski yapon, xitoy klassik tilli	Amaterasu	Yapon falsafasi	m.av.XII-VIII asrlar	Yaponiya	2,7 mln	⛩

Daosizm	Dao de tzin	xitoy	Osmom hukmdori Lao-Dzi, Chjuan-Dzi	Daosizm falsafasi. Dao de, dualism (In-Yan) U-vey	m.av. IV asr	Xitoy	9 mln	
Sikxizm	Guru grantx Saxib	panjobiy	Vaxe Guru, Guru Nanak, sikxlar Gurusi	Sikxizm falsafasi, vedalar va Islom sintezi	1469 yil	Panjob (Hindiston)	24,7 mln	
Jaynizm	Jayn Agam	sanskrit	Jina, Maxavira	Jaynizm falsafasi	m.av. IX asr	Hindiston	5,7 mln	

### Dinlar hamda payg'ambarlar hayoti va faoliyatidagi o'xshash jihatlar

Din	Ma'naviy axloqiy jihatlardagi o'xshashlik	Hayoti va faoliyatidagi o'xshashlik	Payg'ambar vafotidan keyingi faoliyatidagi o'xshashlik
1 Islam Muhammad s.a.v.	«Islam hadarix koteptsiyasi o'n qoida printsipga asoslanadi: 1)ollohga imyon-e'tiqodli bo'lish; 2)xukumatning xalq ishonchini qozongan, adolatli bo'llishi bo'lishi; 3)ozod va mustaqil xalq; 4)ilm-fanni egallash; 5)barcha sohalarda mutanosib iqtisodiy rivojlanish; 6)yuksak hayat darajasi; 7)milliy ozchilik va xotin-qizlar huquqlarinim himoya qilinishi; 8)madaniy va axloqiy muhitning yaxlitligi; 9)atrof-muhitni asrash; 10)yuksak mudofaa qudrati	Muhammad 40 yoshga to'lganida o'zini bosh-qacha sezaga boshlaydi. Yolg'izlikni qo'msab, Makka yonidagi Hiru tor'ida joylashgan g'orga borib ibodat bilan mashg'ul bo'lar, o'yga tolardi. Taxminan 610-yilning Ramazon oyida farishta Jabroil orqali unga vahiy kela bosilaydi. Muhammad Makkada o'zining Allodhan yahiy olayotganligini e'lon qiladi va shu taripa paygambarlik faoliyatiga kirishadi.	632 yilda Muhammad s.a.v. vafotidan song unig ishlarini davomchisi sifatida islam olamida 4 ta xalifa (arab. a'rinosar) tilga olinadi.(Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali) Ular Muhammad s.a.v ishini 30 yil davom ettiradilar.(632-661)
2 Buddaviylik dini (Asoschisi Sidxartxa Gautama)	Nirvanaga erishishga harakat qilayotgan buddaviylik rohibining barcha hattiharakatlari asosan axloq normalariga qat'iy riyoq qilishdan iborat edi. Beshta asosiy taqiq: odam o'dirmaslik, o'g'irlilik qilmaslik, zino qilmaslik, gumrohlikdan saqlanish, mast qiluvchi ichimliklarni ichmaslik hamda boshqa taqiq va cheklolar ham asosan shunga olib kelardil. Kishilarning tengligi, adolatli xukmdor, bag'rikenglik, axloq g'oyalari - buddizmning muvofaqiyati va hukmdorlar tamonidan qo'llab-quvvatlanishiga sabab bo'ldi.		
3 Zardushtiylik dini (Asoschisi Zardusht)	Zardushtiylikda imyon asosları: Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal.	Rivoyatlarga ko'ra, navro'z kunlarining birida kohinlar boshchiligidagi muqaddas ichimlik - "Hum" tayyorlashga kirishgan. Erta tongda u daryordan suv olish uchun	Axura-Mazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlar deb hisoblangan bo'laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig'ila boshlangan.



## TOPSHIRIQLAR

Ravvin, Sidxardxa, Tavrot, Pravoslav, Xinayana, Esseylar, Ikona, Budda, Farziylar, Troitsa, Maxayana, Yahve, Meditatsiya, Injil, Muso, Katolik, Arxat, Sinagoga, Nirvana, Apostollar, Tripitaka, Sangxa, Protestant, Sadduqilar, Iso Masih, Pancha-shila atamalarini jadvalga mos joylang.

<b>Yahudiylik</b>	<b>Buddaviylik</b>	<b>Xristianlik</b>

### Tayanch iboralarni izohlang (Xristian dini)

<b>1</b>	<b>Troitsa</b>	<b>7</b>	<b>Indulgensiya</b>
<b>2</b>	<b>Xaloskor messiya</b>	<b>8</b>	<b>Inkivizitsiya</b>
<b>3</b>	<b>Katolik</b>	<b>9</b>	<b>Ioann</b>
<b>4</b>	<b>Pravoslav</b>	<b>10</b>	<b>Apostollar</b>
<b>5</b>	<b>Protestant</b>	<b>11</b>	<b>Bibliya</b>
<b>6</b>	<b>Martin Lyuter</b>	<b>12</b>	<b>Injil</b>

### Tayanch iboralarni izohlang (Buddaviylik)

<b>1</b>	<b>Budda</b>	<b>7</b>	<b>Siddxartxa</b>
<b>2</b>	<b>Maxayana</b>	<b>8</b>	<b>Dxarma</b>
<b>3</b>	<b>Xinayana</b>	<b>9</b>	<b>Tripitaka</b>
<b>4</b>	<b>Meditatsiya</b>	<b>10</b>	<b>Nirvana</b>
<b>5</b>	<b>Karma</b>	<b>11</b>	<b>Vinaya-pitaka</b>
<b>6</b>	<b>Abxidxarmapitaka</b>	<b>12</b>	<b>Sutta-pitaka</b>

## JADVALNI TO'LDIRING

Katolikning o'ziga xos jihatlari	Provaslaviyening o'ziga xos jihatlari	Protestantizmnining o'ziga xos xususiyatlari

Budda nimaga tarixiy shaxs deb e'tirof etiladi? savolini FSMU texnologiyasi yordamida yeching:

<b>Savol</b>	Budda nimaga tarixiy shaxs deb e'tirof etiladi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Buddaviylik va xristianlik dinlarini o'ziga xos xususiyatlarini «T-sxema» asosida taqqoslang

Xristianlikning o'ziga xos xususiyatlari	Buddaviylikning o'ziga xos xususiyatlari

## TESTLAR

**1. Qachon O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi?**

- A) 1992 yil 7 martda.
- B) 1994 yil 10 martda
- C) 2006 yil 5 martda
- D) 2005 yil 10 avgust

**2. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalarini (funksiyalarini) aniqlang?**

- A) Kompensatorlik, regulyatorlik, aloqa bog'lashlik
- B) Vorisiylik, meros mexanizmi
- C) Integratorlik, kompensatorlik, regulyatorlik, legitimlovlik, aloqa bog'lashlik, falsafiy-nazariy jihatlari
- D) Ishontirish vazifasi birinchi o'rinda

**3. «Din» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida qanday ma'nolarni bildiradi?**

- A) Ishonch, ishonmoq.
- B) Qo'rquv, hisiyot
- C) Yaxshilik, yomonlik
- D) Adolat, adolatsizlik

**4. Dinshunoslik fanining asosiy vazifasi nima?**

- A) Ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan imon-e'tiqodni shakllantirish
- B) Dinni o'rgatish va dunyoqarashni shakllantirish
- C) Islom dini urf-odatlarini o'rgatish
- D) Dinga ishonuvchilarni tanqid etish

**5. Din – bu:**

- A) Axloqiy me'yor va potensiallar tizimi
- B) Xalqni yo'ldan adashtiruvchi vosita
- C) Insonning xudo bilan o'zaro munosabat usuli
- D) Tashqi olam kuchlarining kishi ongida biron-bir tarzda ifodalanishi

**6. Dinning qanday ildizlari bor?**

- A) Gnozeologik, ijtimoiy, psixologik
- B) Genetik, tarixiy, psixologik
- C) Ijtimoiy, biologik, ilohiy
- D) Afsonaviy, falsafiy, psixologik

**7. 1998 yil 23 oktyabrdagi Imom al-Buxoriy tavalludining necha yilligi Samarqand shahrida nishonlandi?**

- A) 1225 yilligi
- B) 1245 yilligi
- C) 1155 yilligi
- D) 1442 yilligi

**8. «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi». O'zbekiston Konstitutsiya-sining nechanchi muddasida ta'kidlangan?**

- A) 35-moddasi
- B) 23-moddasi
- C) 45-moddasi
- D) 55-moddasi

**9. Qachon «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun qabul qilindi?**

- A) 1991 yil 14 iyunda
- B) 1992 yil 25 aprel
- C) 1993 yil 13 iyulda
- D) 1995 yil 20 noyabrdagi

**10. Qachon «Ro'za hayiti» va «Qurban bayrami»ni milliy bayram deb e'lon qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi?**

- A) 1991 yil 11 aprelda                    B) 1990 yil 2 yanvarda  
C) 1991 yil 14 mart                      D) 1993 yil 7 martda

**11. 1998 yil 23 sentyabrdan mustiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman qayerda o'tkazildi?**

- A) Toshkent shahrida                    B) Samarqand shahrida  
C) Xiva shahrida                        D) Jizzax shahrida

**12. Diniy ideologiya ayrim manbalarda qanday nom bilan yuritiladi?**

- A) Teologiya                                B) Geologiya  
C) Dogmatika                                D) Apologiya

**13. Fikr, ta'lilot, yechim degan ma'nolarni anglatadigan, diniy ta'lilotning barqaror, kam o'zgaruvchan qoidalar tizimi nima deb ataladi?**

- A) Dogmatika                                B) Teologiya  
C) Falsafa                                    D) Apologetika

**14. Kishining muayyan hodisa, uning xossa va xususiyatlari haqqoniy ekanligiga ishonchi nima deb ataladi?**

- A) Ezgulik                                    B) Illohiyat  
C) Ta'lilot                                    D) Din

**15. Denominatsiya so'zining ma'nosi nima?**

- A) Boshqa nom qo'yish, nomini o'zgartirish  
B) Diniy qarashlar va marosimlardagi tafovutlik

- C) Diniy dunyoqarashga asoslangan kishi
- D) Fikrlarni va g'oyalarni rad etish

**16. Dinning kompensatorlik qanday ma'noni anglatadi?**

- A) Tenglashtirish, muvozanatlashtirish, to'ldirish
- B) Nom boshqa qo'yish, nomini o'zgartirish
- C) Birlashtiruvchi kuch
- D) Dindorlar faoliyatining tartibga solish

**17. Iptidoiy mifalogiya mazmunini izohlang?**

- A) Iptidoiy odamlarning tasavvurlari va majmuasi
- B) Afsungarlik, shamonlik
- C) Totemlar yoki o'lib ketgan odamlar haqidagi tasavvurlar
- D) Ayol va erkak o'rtasidagi tafovud

**18. Insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga g'ayri-tabiiy yo'l bilan ta'sir ko'rsatish maqsadida bajariladigan xatti-harakat nima ataladi?**

- |             |                  |
|-------------|------------------|
| A) Magiya   | B) Mifologiya    |
| C) Onglilik | D) Diniy tasavur |

**19. Dinning qanday ijtimoiy vazifalari bor?**

- A) Kompensatorlik, integratorlik, regulyatorlik, legitimlovlik
- B) Tarbiyaviy, kompensatorlik, ilmiy
- C) Integratorlik, boshqaruuvlik
- D) Boshqaruuvlik, tarbiyaviy

**20. Kishi ruhining, jonining borligiga ishonish qaysi ibtidoiy diniy tasavvurga xos?**

- |             |              |
|-------------|--------------|
| A) Animizm  | B) Fetishizm |
| C) Totemizm | D) Shomonizm |

**21. Iptidoiy diniy tasavvurning eng yuksak shakli?**

- A) Totemizm                    B) Islom  
C) Buddizm                    D) Sintoizm

**22. Jonsiz narsalar g'ayritabiy xususiyatga ega deb bilish va ularga sig'inish qaysi ibtidoiy diniy tasavvurga hos?**

- A) Fetishizm                    B) Animizm  
C) Totemizm                    D) Shomonizm

**23. Quyidagi dinlarning qaysi turkumi qadimiy dinlar sirasiga kiradi?**

- A) Totemizm, fetishizm, animizm, shomonizm  
B) Fetishizm, iudaizm, zardushtiylik  
C) Sehrgarlik, islom, buddizm, xristianlik  
D) Buddaviylik, xristianlik, islom

**24. Fetishizm nimani ilohiylashtiradi?**

- A) Moddiy narsalarni        B) Hayvonlarni  
C) Odamlarni                D) Parandalarni

**25. Animizm nimani ilohiylashtiradi?**

- A) Jon va ruhni                B) Ruhiy olamni  
C) Barcha tirik mavjudotlarni        D) Dengiz va tog'larni

**26. Totemizm nimani muqaddaslashtiradi?**

- A) Hayvonlarni                B) Jonsiz narsalarni  
C) G'ayritabiiy mavjudotlarni        D) Ilohiy ruhlarni

**27. Yaxudiylarning milliy dini sifatida vujudga kelgan eng qadimgi din nomini belgilang?**

- A) Iudaizm                    B) Fetishizm  
C) Animizm                    D) Jaynizm

**28. İudaizm nima va unga kimlar e'tiqod qiladi?**

- A) Iudaizm diniga yaxudiyilar e'tiqod qiladilar, u monoteistik – yakka xudolikka asoslangan din, miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik oxirida paydo bo'lgan
  - B) Iudaizm jahon dini va unga musulmonlar e'tiqod qiladi
  - C) Iudaizm diniga ruslar, ukrainlar va Markaziy Osiyo xalqlari e'tiqod qiladilar
  - D) Jahon dini va unga hozir hech kim e'tiqod qilmaydi

**29. Jaxonda e'tiqod qiluvchilari soni jihatidan eng katta milliy din qaysi ?**



**30. Dunyodagi eng qadimgi va eng birinchi vahdoniyat – yakka xudolik dini qaysi din?**

- A) Zardushlilik      B) Buddaviylik  
C) Xristianlik      D) Islom dini

31. Zardushtiylik mil.av. necha ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan?

- A) II-I ming yillik                      B) III-V ming yillik  
C) V-IV ming yillik                      D) V-VII ming yillik

### **32. Zardushtiylik qaerda paydo bo'lgan?**

- A) Xorazm vohasida
  - B) Eronda
  - C) Movarounnahrda
  - D) Yaqin va O'rta Sharqda

**33. Avesto kitobi qaysi dinning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi?**

- A) Zardushlilik
- B) Buddaviylik
- C) Xristianlik
- D) Islom dini

**34. Yaponiyaning milliy dini qaysi din hisoblanadi?**

- A) Sintoizm
- B) Buddaviylik
- C) Konfusiylilik
- D) Krishnaizm

**35. Dirlarning farqi nimada?**

- A) Diniy urf-odat va marosimlar amalga oshirilishida
- B) Turli yillarda ibodat qilinishida
- C) Mamlakatlarda turli millat vakillarining joylashganligida
- D) Jahonda tinchlik uchun kurashishida

**36. Zardushtiylik ta'lomit qanday asosiy aqidalarga tayanadi?**

- A) Fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, fikrning ezguligigi
- B) Muqaddas kitobni e'zozlash, duolar o'qish
- C) Ilymon keltirish, savob ishlarni bajarish
- D) Zakot berish, qurbanlik keltirish, amaldorlarning inson-parvarligi

**37. Milliy dinlar qaysi dinlar?**

- A) Iudaizm, hinduizm, jaynizm, daosizm, sintoizm, konfusiylilik
- B) Iudaizm (yahudiylik), daosizm, islom
- C) Provoslavizm, buddizm, protestantizm
- D) Buddaviylik, xristianlik, islom

**38. Milliy dinlarning o'xshashligi nimada?**

- A) Har bir millatning o'z diniga e'tiqodida
- B) Turli tillarda namoz o'qilishida
- C) Ketma-ket paydo bo'lisligida
- D) Hammasi ham ilohiy kuchga ishonishida

**39. Iudaizm dini qayerda paydo bo'lgan?**

- A) Falastinda
- B) Misrda
- C) Markaziy Osiyoroda
- D) Yevropada

**40. Sintoizm dini qaerda paydo bo'lgan?**

- A) Yaponiyada
- B) Xitoyda
- C) Hindistonda
- D) Isroilda

**41. Diniy tashkilot nima?**

- A) Diniy e'tiqodlar va marosimlarning umumiyligi asosida bir dinga ishonuvchilarning va diniy jamoalarning professional ruxoniylar boshchiligidagi buysunish sistemasiga ega bo'lgan uyushmasi
- B) Asosiy diniy yo'naliшhning ichidagi oppozision oqimlar
- C) G'ayri tabiiy kuchlarga ishonch tufayli paydo bo'lgan g'oyalar va obrazlarning yig'indisi
- D) Diniy tasavvurlar sistemasi bilan bog'langan hamda diniy ta'lifotning muayyan jihatini xissiy-obrazli aksettiradigan maxsus hatti-harakatatlari, marosimlar, tantanalar majmuasi

**42. Din fenomenologiyasi nima?**

- A) Din – jamiyat munosabatlarini, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqeа-hodisalarни оrganadi
- B) Dinning ko'zga ko'rinvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini оrganuvchi ilм sohasi

- C) Din madaniyatি
- D) Dindagi psixologik jihatdan o'rganadi

**43. Muhammad (S.A.V) qachondan Allohning rasuli (elchisi) deb e'lон qilindi?**

- A) 610 yil
- B) 570 yil
- C) 622 yil
- D) 632 yil

**44. Islomda kimlar to'g'ri xalifalar deb hisoblanadi?**

- A) Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali
- B) Muhammad, Ali, Xasan, Xusan
- C) Abu Xurayro, Ibn Hanbal, Ibn Xoshim
- D) Ibrohim, Muso, Iso, Dovud

**45. Qur'on suralari qanday qismlarga bulinadi?**

- A) Makka va Madina suralari
- B) Katta vakichik
- C) Dastlabki va yangi
- D) Qadimiy va yangi

**46. Xadis ilmining sultonи deb kim tan olingan?**

- A) Imom al-Buxoriy
- B) Iso at-Termiziy
- C) Abduraxmon as-Samarqandiy
- D) Muslim ibn Nishopuriy

**47. Jaxon dinlari quyidagilardan qaysilari?**

- A) Buddizm, xristianlik, islom
- B) Islom, iudaizm, sintoizm
- C) Xristianlik, hinduizm, zorastrizm
- D) Buddizm, baptizm, fetishizm

**48. Islomda ro'za odatda necha kun tutiladi?**

- A) 30 kun
- B) 70 kun
- C) 33 kun
- D) 3 kun

**49. «Islom» so'zining ma'nosini belgilang?**

- A) Xudoga o'zini topshirish, itoat, bo'ysunish
- B) Faqatgina Allohga sig'inish
- C) Musulmonlik maqomini olmoq
- D) Islom mintaqasi madaniyatidir

**50. To'g'ri yo'lga solmoqlik, qonunchilik yo'naltirmoqlik, ibodat yo'llari, hayotiy va ijtimoiy qoidalar, kishilar orasidagi munosabat va muammolar, halol bilan haromni ajratib bermoqlik nima deb ataladi?**

- A) Shariat
- B) Fiqh
- C) Mazhab
- D) Qur'on

**51. Qur'oni karim necha sura, necha oyatdan iborat?**

- A) 114 sura, 6236 oyat
- B) 155 sura, 7325 oyat
- C) 122 sura, 6332 oyat
- D) 254 sura, 5287 oyat

**52. »Mazhab« so'zi arab tildan olingan bo'lib qanday so'zni anglatadi?**

- A) Yo'l, yo'nalish
- B) Ulug', ulug'lash
- C) Amal, amaldor
- D) Shariat, shakl shamoil

**53. Missionerlik - bu nima?**

- A) Boshqa diniy e'tiqodga ega bo'lgan shaxsni o'z diniga og'dirib olish bo'yicha diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat
- B) O'z dinidan kechib, boshqa dinga o'tgan odam

- C) Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar  
D) O'z diniga hoyinlik qilgan odam

**54. Prozelit – bu nima?**

- A) O'z dinidan kechib, boshqa dinga o'tgan odam  
B) O'z diniga hoyinlik qilgan odam  
C) O'z dinini bilmagan odam  
D) Boshqa diniy e'tiqodga ega bo'lgan shaxs

**55. Terrorizm so'zining ma'nosi nima?**

- A) Qo'rquv, daxshat                    B) Boshqaruv, yo'nalish  
C) Yagonalik, muloqot                D) Tajriba, to'g'ri yo'l

**56. Internet so'zining ma'nosi nima?**

- A) Lotinchadan olingan bo'lib «aro», «tarmoq»  
B) Arabcha so'zdan olingan bo'lib «aloqa»  
C) Lotinchadan olingan bo'lib «daxshat»  
D) Arabchadan olingan bo'lib «vosita»

**57. Internet tushunchasi qachondan shakllana boshlangan?**

- A) XX asr 60 yillarda  
B) XIX asr 50 yillarda  
C) XX asr 70 yillarda  
D) XXI asr 90 yillarda

**58. Ekstremizm so'zining ma'nosini belgilang?**

- A) Aql bovar qilmas darajada haddan oshish  
B) Uyushtirilgan bosqinlar  
C) O'zligidan voz kechish  
D) Qonun qoidalarga qarshi borish

**59. Biron g'oya yoki tamoyilni mutlaqlashtirib konkret ob'ektiv sharoitni hisobga olmagan holda ko'r-ko'rona qo'llash?**

- A) Aqidaparastlik      B) Ekstrimizm  
C) Terrorizm              D) Fanatizm

**60. Diniy fundamentalizm qanday ma'noni anglatadi?**

- A) Asos                  B) Ishonch  
C) Qarshilik              D) Niqob

**61. Qaysi din odamlarni to'g'rilik, rostgo'ylik, poklik, halollik, ezgulik, yaxshilik, saxovat, do'stlik, birodarlik, o'zaro totuvlik, hamjihatlik, tinchligu osoyishtalikka undaydi?**

- A) Islom                  B) Budizm  
C) Xristianlik            D) Yaxudiy

**62. Islom dini marosimlari asosan necha guruhga bo'linadi?**

- A) 2 guruhga              B) 3 guruhga  
C) 4 guruhga              D) 5 guruhga

**63. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida milliy va diniy belgilariga ko'ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi?**

- A) 71 moddasida          B) 67 moddasida  
C) 31 moddasida          D) 85 moddasida

**64. Dunyoviy ilmiy nuqtaviy nazar bo'yicha din nima?**

- A) Ijtimoiy-tarixiy hodisa  
B) Iqtisodiy-tarixiy hodisa

- C) Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa
- D) Ijtimoiy-falsafiy hodisa

**65. O'rta asrlarda dinning madaniyatga ta'siri qanday bo'lgan?**

- A) Madaniyatning barcha turlari ilm-fan, falsafa, huquq, axloq, san'at va boshqa shunga o'xshashlarni o'zida mujassam-lashtirgan, ularga o'z ta'sirini o'tkazgan
- B) Arxitektura, adabiyot va falsafagagina kuchli ta'sir o'tkazgan
- C) Madaniyat va san'atgagina ta'sir o'tkazgan
- D) Ma'naviyatning bir turi va ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan

**66. Diniy tashkilot tarifini aniqlang?**

- A) Ma'lum dinga ishonuvchilar va ularning jamoalarining uyuishmasidir
- B) Diniy aqidalarni konpensatsiyalarni fan-texnika va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga qarab rad etuvchi tashkilot
- C) O'z maqsad yo'lida har qanday keskin tadbir choralar ko'ruvchi tashkilot
- D) O'z fikrini boshqalarga zo'ravonlik bilan o'tkazuvchi tashkilot

**67. Respublikamizda nechta diniy konfessiya uyushmalar faoliyat yuritmoqda?**

- A) 16 ta
- B) 10 ta
- C) 17 ta
- D) 20 ta

**68. Fuqorolarning dingga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslik mustaqil hal qilishlari nima deb ataladi?**

- A) Vijdon erkinligi                            B) Burch erkinligi  
C) Qadriyat erkinligi                            D) Fikr erkinligi

**69. Dinning qanday ildizlari mavjud?**

- A) Gnesialogik, ijtimoiy, psixalogik  
B) Tarixiy, sotsial, ruhiy  
C) Emotsianal, garmonal, biologik  
D) Biologik, psihologik, antropologik

**70. «Monetizm»ning ma'nosi nima?**

- A) Yakkahudolik                                B) Ko'p hudolik  
C) Diniy ta'limot                                D) Diniy mutaassiblik

**71. O'rta osiyoda qaysi davlatda budda dina asosiy hukmron din edi?**

- A) Kushon                                        B) Qang'  
C) Dovon                                        D) Xorazm

**72. Iptidoiy dinlar ko'rinishini aniqlang?**

- A) Totemizm, fetishizm, shamanizm, animizm  
B) Bobizm, klinikizm, lamanizm, jaynizm  
C) Fetishizm, animism, jaynizm, sintoizm  
D) Hinduiylik, animizm, sintoizm

**73. Qaysi muqaddas kitobda tuproq, suv, havo, olov muqaddaslashtirilgan?**

- A) Avesto                                        B) Qur'oni Karim  
C) Injil    D) Tavrot

**74. Mehrjon va Navro'z bayramlari qaysi dinga tegishli?**

- A) Zardo'shlilik dini
- B) Xristianlik dini
- C) Islom dini
- D) Buddaviylik dini

**75. Dinshunoslikda sinkretizm-bu?**

- A) Biror narsa, hodisalarning, bir-biridan ajralmagan holat
- B) Voqeylikni anglashda afsonaviylikni birinchi o'ringa qo'yish
- C) Devlar va farishtalar orasida abadiy kurash
- D) Manbalarning ummumiyligi, asosligi, qadimiyligi

**76. Vedalar necha yirik to'plamdan iborat?**

- A) Rigveda, sameda, yajurveda, axtarvaveda
- B) Sameda, rigveda, varuna
- C) Yajurveda, axtarvaveda, mitra
- D) Axtarvaveda, adita, sameda

**77. Rigveda qanday veda hisoblanadi?**

- A) Madhiyalar vedasi
- B) Qo'shiqlar vedasi
- C) Qurbonliklar vedasi
- D) Afsun va jodular vedasi

**78. Samaveda qanday veda hisoblanadi?**

- A) Qo'shiqlar vedasi
- B) Qurbonlik vedasi
- C) Madhiyalar vedasi
- D) Afsun va jodular vedasi

**79. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi qonunnining yangi tahriri qachon qabul qilingan?**

- A) 1998 yil 1 may
- B) 1997 yil 10 sentyabr
- C) 1996 yil 8 mart
- D) 1999 yil 9 aprel

**80. Hinduizm jamiyatning tabaqalarga bo'linishini aks ettiruvchi savob va jazo (karma) g'oyasiga asosan, inson hayotida nech ta asosiy maqsad bor, deb da'vo qilinadi?**

- A) 4 ta
- B) 5 ta
- C) 3 ta
- D) 2 ta

**81. Hinduizm ta'limotiga ko'ra foydali ishlar qilish, zarur materiallarga ega bo'lish nima deb ataladi?**

- A) Artxa
- B) Draxma
- C) Kama
- D) Moksha

**82. Hinduizm ta'limotiga ko'ra o'zgarish zanjiridan butunlay halos bo'lish nima deb ataladi?**

- A) Moksha
- B) Artxa
- C) Kama
- D) Draxma

**83. Kun-Tszi qachon va qayerda yashagan?**

- A) Mill.avv.551-479 yillar Xitoyda
- B) Mill.avv.331-279 yillar Hindistonda
- C) Mill.avv.551-479 yillar Yaponiyada
- D) Mill.avv.331-279 yillar Koreyada

**84. Daosizm dinidagi xudolar panteonini ko'rsating?**

- A) Shan-Di, Lao-Tszi, Pan-Go
- B) Braxma, Shiva, vishnu,
- C) Indra, Axriman, Axuramazda
- D) Digambar, Shvetambar

**85. Kishilarning harakatsizlikga, faoliyatsizlikga da'vat etuvchi dininy ta'lilot?**

- A) Daosizm      B) Sikxizm      C) Sintoizm      D) Iudaizm

**86. Daosizm qachon paydo bo'lgan?**

- A) Mill. avv. IV-III asrlarda  
B) Mill. avv. II-III asrlarda  
C) Mill. avv. I-II asrlarda  
D) Mill. avv. VI-III asrlarda

**87. Milliy dinlar qaysilar?**

- A) Yahudiylik, Konfusiylik, Sintoizm  
B) Buddizm, Xristianlik, Islom  
C) Konfusiylik, Zardo'shlilik, Buddizm  
D) Hinduizm, Braxmanizm, Buddizm

**88. Daosizm dinining vatani qayer?**

- A) Qadimgi Xitoy      B) Qadimgi Misr  
C) Qadimgi Hindiston      D) Qadimgi Yunoniston

**89. Jahon e'tiqod qiluvchilar soni jihatdan eng ko'p din qaysi?**

- A) Xristianlik      B) Sintoizm      C) Konfusiylik      D) Indoizm

**90. «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan birinchi kitobi qanday nomlanadi?**

- A) Videvdad      B) Yasna      C) Vispered      D) Yasht

**91. «Avesto»ning ikkinchi kitobi qanday nomlanadi?**

- A) Yasna      B) Vispered      C) Videvdad      D) Yasht

**92. «Avesto»ning uchinchi kitobi qanday nomlanadi?**

- A) Vispered      B) Yasna      C) Yasht      D) Kichik avesto

**93. «Avesto» haqida eng muhim manba IX asrga oid qaysi asar hisoblanadi?**

- A) Denkard (din amallari)  
B) Lung-Yuy (suhbatlar va mulohazalar)  
C) Vedalar  
D) Jeng (insonparvarlik)

**94. Buddaviylik dini qachon va qayerda vujudga kelgan?**

- A) Eramizdan avv. VI asrda Hindistonda  
B) Eramizdan avv. VI asrda Xorazmda  
C) Eramizdan avv. IV asrda Xitoyda  
D) Eramizdan avv. IV asrda Yunonistonda

**95. Buddizmning asosiy yo'nalishlari qaysilar?**

- A) Xinayana, yapon buddizmi, lamaizm  
B) Shaktizm, shivaizm, jaynizm  
C) Sunniylik, shialik, xorijiylilik  
D) Provaslav, katolisizm, protestantlik

**96. Dinshunoslik fanining qanday ko'rinishlari mavjud?**

- A) Diniy va dunyoviy                          B) Afsonaviy va diniy  
C) Dunyoviy va sosiologik                          D) Ruhiy va moddiy

**97. Islom qaysi dinlar qatoriga kiradi?**

- A) Yakka xudolik                                  B) Ko'p xudolik  
C) Xudolarsiz dini    D) Millat dinlari

**98. Islom dinida «fiqh» nimani ifodalaydi?**

- |                   |            |
|-------------------|------------|
| A) Huquqshunoslik | B) Tariqat |
| C) Ma'rifat       | D) Haqiqat |

**99. Musulmon diniy boshqarmasi rahbarlari qanday nom bilan atalgan?**

- |             |              |
|-------------|--------------|
| A) Muftiy   | B) So'fi     |
| C) Muxtasir | D) Mutavaali |

**100. Islom dinining muqaddas kitobi nima deb ataladi?**

- |                  |            |
|------------------|------------|
| A) Qur'oni Karim | B) Avesto  |
| C) Tripitaka     | D) Bibliya |

## GLOSSARIY

**Abhidharmapitaka** – buddaviylikning muqaddas kitobi Tripitakaning falsafa va psixologiyaga oid qismi.

**Avtokefal cherkovlar** (yunoncha, «o'z-o'zini boshqarish») – pravoslavlikdagi mustaqil boshqaruvga ega bo'lgan cherkovlar tuzilmasi. Ma'lum bir tashkilot «avtokefal» maqomini olishi uchun miro moyini mustaqil ravishda tayyorlay olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

**Avesto** («Apastak», «Ovisto», «Ovusto», «Abisto», «Avasto») – joriy qilingan qat'iy qoidalar, sanskrit tiliga yaqin o'ziga xos avesto tilida yozilgan zardushtiylikning muqaddas kitobi.

**Avtonom cherkovlar** (yunoncha, «mustaqil») – biror-bir avtokefals cherkovdan ichki tartib-qoidalarni mustaqil bajarish huquqini olgan cherkov. Avtonom cherkov rahbari avtokefals cherkov patriarxi tomonidan tasdiqlanadi.

**Agni** – yer xudolarining eng ulug'i (quyosh, chaqmoq, olov) hisoblangan olov xodosi. Agni haqidagi afsonalar Hindistondan tashqarida vujudga kelgan. U odamlar qurbanliklarini xudolarga yetkazuvchi ruhoniy sifatida tasavvur qilingan va biror qurbanlik uning vositasiz xudolarga yetib bormaydi, deb hisoblangan.

**Adji** – To'rt tomoni teng bo'lgan salb bo'lib, tangrichilik dinining ramzi hisoblanadi. U barcha narsa asliga qaytishining ifodasi bo'lgan.

**Adonay** – Yahudiylikda ibodat vaqtida zikr qilinadigan Xudoning ismlaridan biri.

**Alloh** (arab. "al-iloh" - ilohiy kuch, turkiy xalqlarda, xususan, o'zbeklarda - Tangri, fors-tojik Xudo, Yazid), Olloh - islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning nomi. Odatda Allohga Taolo (ulug', oliy), Taboraka va taolo, Jalla jalalahu, karim, buzurg, Parvardigori olam kabi sifatlar qo'shib

aytiladi. Islom diniga binoan Alloh - yakkayuyagona xudo, olamning yaratuvchisi va qiyomat kunining egasi.

**Aziz** – isnod tabaqasining barchasida roviylari soni ikkitadan oz bo'limgan hadis.

**Akem mana** – yomon fikr, adashtirish ma'budi, Axriman tarafdoi.

**Aqida** – (arabcha, biron narsani bir-biriga bog'lash) aqoid ilmining mashhur nomlaridan biri.

**Aqiqा** – (arabcha, «qorin sochi») tug'ilgan chaqaloqning sochini olish va tavalludi munosabati bilan so'yiladigan qo'yga aytiladi.

